

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Mohichehra Yoqubovna Ro'ziyeva

**ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA
INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

(Metodik qo'llanma)

**„Durdona“ nashriyoti
Buxoro, 2018**

81.2O'zb

R 99

Ro'ziyeva, Mohichehra.

Ona tili va o'qish darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish
[Matn] : metodik qo'llanma / M. Ro'ziyeva. - Buxoro : Durдона nashriyoti,
2018. - 120 b.

KBK 81.2O'zb

32.81

Ushbu o'quv –usuliy qo'llanma boshlang'ich sinf darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, darslarda interfaol metodlarni qo'llash haqida bo'lib, unda ilova sifatida interfaol metodlardan foydalanilgan dars ishlanmalari berilgan.

O'quv –usuliy qo'llanma oily o'quv yurtining boshlang'ich va maktabgacha ta'lim yo'nalishi kunduzgi va sirtqi bakalavriat bosqichidagi talabalari, shuningdek, o'rta umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

SamDU professori, filologiya fanlari doktori J.D.Eltazarov
BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi N.O. Safarova

Ushbu metodik qo'llanma 2018 yil 10 fevralda Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik Kengashining 4-sonli majlisida nashrga tavsiya qilindi.

@ Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori M.Y. Ro'ziyeva

ISBN 978-9943-5181-5-5

KIRISH

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek diyorida ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir!"¹, - deb ta'kidladilar.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Davlat ta'lim standartlari"ning chop etilishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" dagi yetakchi vazifalaridan biri talim-tarbiya sifatini ko'tarish, ta'lim mazmunini yangilash, yosh avlodning aqliy intellektual taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan uzluksiz talim tarbiyaning yangi modelini ilmiy-pedagogik jihatdan ta'minlangan holda muntazam takomillashtirib borishdan iboratdir.

Mazkur vazifalar muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi ya'ni uzluksiz ta'lim tizimni xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lim texnologiyalar mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishda, shuningdek ta'lim jarayonida tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarning xususiy fanlari asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston", 2017, 14-b.

erishish, mazkur loyihalarda oqilona foydalana bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarni puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishini kafolati bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida ta'kidlanganidek, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich talimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun esa yangi pedagogik texnologiyalarni talim jarayoniga olib kirish lozim. Yangi pedagogic texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik - semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil qilish va o'tkazish masalasi ona tili o'qitish metodikasiga doir T.Ashrapova¹ va M.Odilovalarning, K.Qosimovanning hamda K.Qosimova, S.Matchonov² ba b.q larning darslik va o'quv-qo'llanmalarida, ommaviy matbuot nashrlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, ona tili o'qitish metodikasining u yoki bu masalasini o'rganishda yangi pedagogic texnologiyalarni qo'llash masalasiga bag'ishlangan ishlar ham mavjud. Xususan,

¹ Ashrapova T. So'z turkumini o'rgatish usuliyoti. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 4-son, Toshkent, 2000-yil, 34-35-betlar.

² Qosimova, K. va boshq. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. Toshkent, "O'qituvchi", 2000-yil, 34-36-betlar.

Q.Abdullayevaning "Yangi pedagogik texnologiyalar"¹, J.Tolipovaning "Modulli dars", R.Ubayxo'jayevaning "Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash", M.Xoliqovaning "Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish", T.G'afforovaning "Erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatish"² nomli maqolalarida ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi o'rganilgan. Shunday bo'lsa ham boshlang'ich sinf ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari yaxlit holda o'z tadqiqini topmagan masalalardan hisoblanadi. Mazkur o'quv usuliy qo'llanmaning yaratilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad bo'lg'usi o'qituvchilarga boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llarini o'rgatish bo'lib, bu muammoning yechimida quyidagi vazifalar muhim sanaladi:

- boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarining maqsad-vazifalarini ko'rsatib berish;

- boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashning metodik asoslarini ochish;

- boshlang'ich sinf ona tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish yollarini belgilash;

- ona tili darslarida interfaol metodlarni qo'llash yo'llarini ko'rsatib berish;

- ona tili darslarida modulli texnologiyadan foydalanish yo'llarini ko'rsatish.

- boshlang'ich sinf ona tili darslarini noan'anaviy tarzda tashkil qilish yollari yoritib berildi;

Ona tili va o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra boshlang'ich ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Ana shunday bir sharoitda oliy ta'lim muassasalarida barcha fanlar qatori ona tili va o'qish o'qitilishiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Chunki ona tili va o'qish barcha o'quv fanlarining asosidir. Ona tili va o'qishni o'rganish bolaga ta'lim berish uni tarbiyalash va rivojlantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim – tarbiyaning keyingi yuqori bosqichlari uchun poydevor vazifasini o'taydi, shuni inobatga olib boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini ilg'or pedagogik

¹ Abduvaliyev,M, Omilxonova,J. Ona tili darsligi 4-sinflar uchun. Toshkent, "O'qituvchi",2005-yil, 74-bet.

² G'afforova,T, Shodmonov,S. Ona tili darslarida ko'rgazmali qurollardan foydalanish. Toshkent, "O'qituvchi", 2006-yil, 65-bet.

texnologiyalar asosida, interfaol usullardan, foydalanib to'g'ri va mazmunli tashkil qilish bugunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Ijodiy tafakkur sohibini, ya'ni rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo'lgan ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish ona tili ta'limi oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Biroq shunisi borki, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarini mazmunli tashkil qilishga, ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashga, ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar asosida tashkil etishga yordam beradigan metodik (usuliy) qo'llanmalar yetarli emas. Shuni inobatga olgan holda mazkur o'quv –usuliy qo'llanma yaratildi.

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish

Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish muhim sanaladi. Ona tili - nutq: o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan, birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql -idroknining kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi. Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi hislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili boshlang'ich sinfda asosiy o'rinni egallar ekan, har bir o'quvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili mashg'ulotlari turi va mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish, yozuv, grammatik materialni o'rganish, kuzatishlar hamda o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatlari bilan bog'liq holda, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

2. Birinchi sinfga kelgan bolalarga savod o'rgatish, ya'ni ularni elementar o'qish va yozishga o'rgatish, bu ko'nikmalarni malakaga aylantirish.

3. Adabiy til me'yorlarini, ya'ni imloviy va punktuatsion savodli yozuvni, orfoepik to'g'ri talaffuzni o'rganish nutq va uslubiy elementlarni egallash.

4. Grammatika, fonetika, leksikadan nazariy materiallarni o'rganish, tildan ilmiy tushunchalarini shakllantirish.

5. O'quvchilarni o'qish va grammatika darslari orqali badiiy, ilmiy ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishtirish, ularda tabiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish. Bu vazifalarning hammasini boshlang'ich sinflarda ona tili predmeti hal etadi va boshlang'ich sinflar ona tili dasturida aks etadi. Til kursida beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so'zlarning o'zgarishi gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi (grammatik, ya'ni morfologik va sintaktik); so'zning morfemik tarkibi va so'z yasash usullari haqidagi (so'z yasashiga doir); so'zlarning leksik-semantik guruhi haqidagi (leksikologik); o'zbek tili to'g'ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkil etadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so'z yasashiga oid tushunchalarda, ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni ham o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili kursi 1-4-sinflarda tilning hamma tomonlari o'zaro bog'liq holda o'rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so'z yasashi haqida - elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o'zaro ta'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'lim jarayonini o'quvchilar nutqini o'stirish vazifasini hal etishga yo'naltirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun esa, avvalo, pedagogik texnologiyaning mohiyatini bilish va anglash zarur.

Hozirda "Shaxs" tushunchasi milliy ta'limning shakl va tamoyilida muhim ahamiyatga ega bo'lib, darsga zamonaviy talablar asosida yondashishni talab etadi.

Shaxsni tarbiyalash - "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da Respublika ta'lim xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklaydi. Bu vazifani amalga oshirish jarayoni o'quvchilarni o'qitishga yangicha yondashish, o'qituvchilarni o'z kasbiga va o'zgalarga, yani ta'lim oluvchilarga talabchanlik bilan munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Pedagogik jarayonining eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy maktabga davr talablari asosida yondashish, darsga esa yangicha usullarining loyhasini tatbiq etish asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda.

Yangi pedagogik texnologiyaning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda. Bu borada tajriba to'plagan tatqiqotchilar pedagogik texnologiya darsning muvaffaqiyatlarini kafolatlovchi omil ekanligini ta'kidlab, ommaning diqqat e'tiboriga havola etayotir.

Ta'lim - tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma'lum. Bu haqda Prezidentimizning quyidagi so'zlari ibratlidir:«Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota - ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi»(1.61) Pedagogik texnologiya tushunchasi keng ko'lamli, serqirra tushuncha bo'lib, u ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega.

Dastlab bu tushuncha 1940 yillardan 50-yillargacha «Ta'limda texnologiya» deb qo'llanilib, o'quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrda AQSHda qo'llana boshlagan. Bunda "pedagogik texnologiya" va "ta'lim texnologiyasi" ifodalari faqat texnika vositalari yordamida o'qitishga nisbatan qo'llangan edi. Oradan vaqt o'tishi davomida shu ifodalarni

qo'llash darajasi kengayib borishi natijasida ularning ma'nolari ham tegishli o'zgarib bordi. Hozirga kelib esa pedagogik texnologiya ifodasining zamonaviy ilmiy asoslangan yagona ta'rifini belgilash maqsadida bir qancha yirik olimlar tomonidan turli fikrlar va xulosalar asoslab berildi. Pedagogik texnologiya pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumentli va metodologik vositalarning tizimli yig'indisini va amal qilish tartibini bildiradi.

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olish lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Metod tanlashda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi.

"Innovatsiya - yangilik" so'zining qachon paydo bo'lganligi aniq bo'lmasada, bu tushuncha umumiy fanlarga tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Bunday yangiliklarning aksariyati qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va tibbiyot sohalarida joriy etilardi. Pedagogik termin sifatida esa innovatsiya tushunchasi, yangi tushunchalardan biri bo'lib, unga turli ta'riflar va fikrlar bildirilmoqda. Innovatsiya jamiyat paydo bo'lishidan boshlab o'zgarib kelinmoqda. Ba'zi pedagoglar innovatsiya so'zini tor ma'noda ta'limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish desa, boshqalari unga kengroq ta'rif bermoqda. Ta'lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarni, islohot, o'qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir. Quyida boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayoniga qo'llash mumkin bo'lgan shunday interfaol metodlardan namunalar keltiramiz.

«Zinama-zina» metodi

«Zinama-zina» o'yini faqat alohida darslar uchungina ahamiyatli emas. Undan istagan darsda yoki istagan fanni o'qitishda foydalanishi mumkin. O'yin o'quvchilarni hozirjavobgarlikka, tezkorlikka, ziyraklikka, mushohada yuritishga, ziyraklikka, ijodkorlikka o'rgatadi. Bu o'yinni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

Sindagi o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruhning oxirida o'tirgan talabalarga A, B, C, D harflari yozilgan javob varaqalari

beriladi, O'qituvchi test savollari va javoblarni A, B, C, D variantlarida o'qiydi. Oxirgi o'rindagi o'quvchilar berilgan testning to'g'ri javobini quyidagi shartli belgilar asosida ko'rsatadi. Masalan, quyidagi test savolini keltiraylik. Ot qatnashgani gapni toping.

- A) Ular gullar terishdi.
- B) Uchalasi birga kelishdi.
- D) Bu yerda nima bor?
- E) Sen ham keldingmi?

Ushbu test savoli o'qilishi bilan o'quvchilar A harfining tasviri tushirilgan varaqni ko'rsatadi. O'quvchilarning qaysi biri tezlik bilan to'g'ri javobni ko'rsata olsa, yonidagi sherigiga javob varaqalarini beradi. To'g'ri javobni ko'rsata olmagan o'quvchi yonidagi sherigiga javob varaqalarini bermaydi. To'g'ri javobni ko'rsatgan guruh bir zina yuqoriga ko'tariladi. O'quvchi keyingi savolni o'qiydi. Yana yuqoridagi holat qaytariladi. Savolni to'g'ri javobini ko'rsatgandagina javob varaqalarini yonidagi sherigiga uzatadi.

O'quvchilardagi faollik, tezkorlik guruhiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Agar o'quvchilar to'g'ri javobni ko'rsata olmasa guruh zinaning quyi pog'onalarida qoladi. Javob varaqalari o'quvchilar qo'lidan bir-biriga o'tib, oldingi qatordagi o'quvchilarga yetib keladi va o'sha guruh g'olib bo'ladi. Test savoliga zudlik bilan javob ko'rsata olmagan o'quvchiga past baho qo'yiladi. Buni o'quvchining o'zi ham bilib turadi. Eng asosiysi, o'quvchi har bir javobni ko'rsatishi orqali o'z bilimiga baho qo'shib boradi.

«Zinama-zina» o'yini o'quvchilarning bilimi, topqirligini oshiradi, xotirasini mustahkamlaydi. O'yinga bo'lgan qiziqish natijasida o'quvchilarda diqqat- e'tibor, idrok ortadi. Bu esa o'quvchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi, esda saqlash qobiliyatni rivojlantiradi, ma'lum mavzu o'tilgach, o'sha mavzu bo'yicha 15-20 savolga javob topish uchun o'quvchi yaxshi o'qishi kerak bo'ladi, savollar o'tilgan va avval o'tmagan mavzular bo'yicha ham beriladi. Yangi mavzu o'tilgach, o'sha mavzu bo'yicha savollar avvalgilarga qo'shilgan holda o'tkaziladi. Shu zaylda har darsda o'yin o'ynaladi va o'tilgan mavzular mustahkamlanadi.

«Tarmoqlar» (klaster)

Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni

bemalol bay on etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Bu usul talabalarga biror bir mavzu to'g'risida erkin, mustaqil fikr yuritishda yordam beradi. O'qituvchi mavzuning asosiy markazini, mazmunini yozadi va o'quvchilarga ushbu mavzuni yoritishga xizmat qiluvchi so'zlarni aniqlashni taklif qiladi. O'qituvchi bildirilgan fikrlarni sinf taxtasiga yozib boradi. O'quvchilar fikri noto'g'ri deb topilmaydi, oxirida o'qituvchi bildirilgan fikrlarni o'zi tahlil qiladi. Klaster metodi aqliy hujum turlaridan biri bo'lib, bu usulda mavzu o'quvchilar fikri bilan ochiladi va mavzuni tushunish osonroq kechadi. Fikrlarning tarmoqlanishi - o'quvchilarning mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan tarmoqlashga o'rgatadi. Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarning shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklda ifodalashga undaydi. Masalan, quyidagi dars ishlanmani ko'ramiz:

Mavzu: Sifat - so'z turkumi.

Maqsad: O'quvchilarga sifat so'z turkumi, uning so'roqlari, gapdagi vazifasihaqida ma'lumot berish.

Sifatlardan nutqda o'rinli foydalanish malakalarini hosil qilish.
Kitoblarga bo'lgan ixloslarini oshirish.

Chiroyli vato'g'ri yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish.

Dars turi: aralash

Dars uslubi: suhbat, aqliy hujum, klaster, o'yin

Darsjihozi: mavzuga oid rasmlar, mevalar mulyaji,

Darsning borishi.

1. Darsni tashkil qilish.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

2. Uy vazifasi aniqlanib, "Shudring" she'rini 3-4 o'quvchidan so'rab, daftarlariga yoddan yozdirish va otlarni topib, tagiga chizdirish.

Shudring

Adajon ,tongda kimdir

Gulim ko'rib o'tibdi.

Mana har bir bargiga,

Marjon taqib ketibdi.

O'quvchilar daftarini tekshirib, baholash.

3. Takrorlash . Ot so'z turkumi bo'yicha bilimlarini qisman takrorlab o'tish. Darslikdagi (94-bet) savollar yordamida qaytarish:

- Qanday so'zlar ot deyiladi?
- Otlarga qanday so'roqlar beriladi?
- Qaysi otlar kim? Va nima? So'roqlariga javob bo'ladi?
- Birlikdagi otlar bilan ko'plikdagi otlar dan farqi nimada?
- Qaysi so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida otlar hosil qiladi?
- Qanday otlar bosh harf bilan yoziladi?

4. O'yin - musobaqa (qisqa muddatli) o'tkazish.

O'quvchilar 6 guruhga bo'linib, topshiriq asosida doskada otlarga so'zlar topib yozishadi:

Kim? Nima? Birlikdagi otlar. Ko'plikdagi otlar

Shifokor, paxta, dars, o'quvchilar, kitobxon, kitob, javon, javonlar

Shaxs yasovchi otlar: O'rin - joy yasovchi otlar:

Paxtakor, paxtazor, kitobchi, mevazor

To'g'ri va birinchi bajargan guruhni rag'batlantirish.

5. Yangi mavzu bilan tanishtirish

Xattaxtaga maqollar yozilgan. Ular o'quvchilarga o'qitilib, mazmuni yoritiladi:

Bilim - baxt keltirar. Bilimsiz kishiga ish yo'q, ishsiz kishiga osh yo'q.

Mazmunini tahlil qilishda maqollardagi shaxsning belgilarini bildirgan so'zlarga alohida e'tibor beriladi. Bilimsiz, ishsiz so'zlariga savollar berilib, bu so'zlar nima bildirayotgani o'quvchilardan so'ralib, mavzu e'lon qilinadi va qoidasi aytiriladi. Ishli, hunarli bo'lish uchun nima qilish kerak? To'g'ri, bilimni qayerdan egallaysiz ?

"Kitob" so'zidan yozilishi, unga so'roq berilib, qaysi so'z turkumiga oidligi aniqlanadi va undan sifat yasatiladi, kitob haqida she'r yoki topishmoqlar ham aytiriladi.

6. Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

Kitobim qo'limda

Qaranglar, qaranglar

O'qisam so'zlari

Tilimda jaranglar.

Kitobim ajoyib,

Judako'p she'ri bor.

Eng yaxshi odoblar

Yozilgan yeri bor.

1) Har bir tarifning tarbiyaviy ahamiyati ham ochib boriladi va ot, sifat turkumiga oid so'zlar aniqlatiladi.

2) Mevalar mulyaji bilan ishlash.

Turli mevalarning (olma, nok, shaftoli...) belgilari savollar berib aniqlanadi.

Qizil olma, suvli nok, tukli shaftoli, danaksiz mandarin

3) Husnixat mashqi o'tkazish. Xattaxtdagi maqollar daftarlariga chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilgan holda yozdiriladi. Matndan sifat va unga bog'langan ot bilan birga yozdirish: Ochiq havo, go'zal tabiat, oq, sariq, qizil gullar, mayin shamol, xushbo'y hid, yoqimli ovoz, ko'rkam fasl.

4) Darslik bilan ishlash.

237-mashq mustaqil bajartiriladi. She'riy misralar ko'chirtirilib, sifatlar aniqlatib, yashil rangda va unga bog'langan otlar tagiga qalamda chizib bajariladi.

7. Mustahkamlash. 1. Klaster usulida Sifatga ta'rif beriladi.

8. Darsni yakunlash, faol o'quvchilarni baholash.

9. Uyga vazifa berish: 238-mashq, qoidani yodlash va "Mening sevimli kitobcham" ni yasash.

«Muzyorar» metodi

O'quvchilarning bir-birlari bilan tanishib olishlarida ishlatiladigan usul. Uni turli variantlarda qo'llash mumkin. Sinf ikki guruhga bo'linib, doira hosil qiladi.

Birinchi o'quvchi ismini aytadi, navbatdagi o'quvchi o'zidan oldingi o'rtog'ining nomini aytib, so'ngra o'zining ismini qo'shadi va o'yin shu tariqa davom ettiriladi. Oxirgi o'quvchi o'zidan oldingi barcha o'quvchilar nomini aytishi kerak.

Qiziqarliroq bo'lishi uchun bolalar nomidan oldin ismlari bilan boshlanadigan sifatlarni qo'shishlari ham mumkin. Masalan, «tirishqoq Tolibjon», «sohibjamol Salima» va hokazo.

«Suratli diktant» metodi

O'quvchilar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarni, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o'qitish usuli. Sinfxonadagi stullar orqama-orqa qo'yiladi. O'quvchilar ham bir-birlariga orqa o'giran holda surat chizadilar. Alohida dars ko'rinishidagi bu usulda birinchi o'quvchi manzarani bayon qiladi, o'rtog'i esa uni suratga tushiradi. Diktant davomida o'quvchilar almashadilar va surat chizib bo'lingach, u tasvirlanadi.

«Chigil yozdi» metodi

Dars boshlanishida bu usul darsga o'quvchilarni ruhiy tayyorlash va dars yarmida o'quvchilar diqqatini mashg'ulotning keyingi bosqichiga chog'lash uchun qo'llaniladi. O'qituvchi she'rlardan parcha aytishi, hazil savollar berishi, fonetik mashqlar bajarishi, ko'pincha qiziqarli o'yinlar tashkil etishi mumkin.

"6x6" metodi

Bu metodda 36 qatnashchi qisqa muddatda birorta masalani muhokama qilish va guruh a'zolaridan aksariyatini qarashlarini bilib olish imkoniyatini beradi.

6 ta guruhda qatnashchilar olib boruvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni 6 minut mobaynida muhokama qiladilar. Bu metod barcha guruh a'zolarini faollashtiruvchi metoddir. Qatnashuvchilardan har biri qisqa davr mobaynida 20 minut munozara qatnashchisi, ham ma'ruzachi rovida chiqadi.

"Fikriy hujum" metodi

Yangi fikriy hujum metodi J.Donald Filipp tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n nafar o'quvchilardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin. Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarni o'rta tashlanishi uchun sharoit yaratib borishga xizmat qiladi. Har biri 5 yoki 6 nafar o'quvchilarning o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruh a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq va ijodiy vazifalarning yechimi borasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholanib boradi.

«Qarorlar shajarasi» metodi

Qarorlar shajarasi metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvlar. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bor tahlil etishi va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh o'quvchilari ishtirokida qo'llaniladigan «Qarorlar shajarasi» bir necha o'n nafar o'quvchilarning bilimlarini darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi.

"Qora quti" metodi

Ta'lim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

"Zig-zag strategiyasi" metodi

Tarqatma materiallar ta'lim oluvchilar tomonidan yakka tartibda yoki guruh-guruh bo'lib o'zlashtiriladi. Ular dars jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda matnlar bilan ishlashni o'rganadilar. 4 bosqichdan iborat bo'lib:

1-bosqich 4-5kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etib, har bir guruhga alohida topshiriq berish;

2-bosqich. Guruhlarga berilgan matnlar alohida mustaqil o'rganiladi;

3-bosqich. 1,2,3,4,5 raqamlar yozilgan qog'ozlar tarqatiladi;

4-bosqich. Guruhlardagi bir xil raqamli ishtirokchilar alohida stol atrofida o'tirishadi va o'qituvchi romida o'rgangan mavzusini hammaga tushuntirib beradi. Guruh ishtirokchilari savollar asosida bir-birlarining bilimini tekshirib ko'radi.

«Insert strategiyasi» metodi

O'quv materiallarini o'zlashtirish va mustahkamlash ta'lim oluvchining kitob bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, berilgan vazifalarni mustaqilbajarishdan iborat. Ta'lim olinganda matnda mustaqil ravishda kitob bilan maxsus o'qitish jadvali.

"Muammoli-izlanuvchi" metodi

Noan'anaviy o'qitish uslublaridan «Muammoli izlanuvchan» uslubi o'qitishning didaktik tizimida to'liq tadqiq qilingan metod hisoblanadi. O'rganuvchilarning (o'quvchilarning) fikrlash faoliyatini birmuncha faollashtirishga, ularda muammo yechimini tezda topishlariga yordam beradi.

"Ishchanlik o'yini" metodi

Turli vaziyatlarda o'yin va noto'g'ri qilingan reglament qoidalari asosida o'yin topshiriqlarini imitatsiya qilish yo'li orqali bajarish. Unda guruhlarda, yakka juft bo'lib ishlar tashkil etilishi kerak.

"Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi,...) ortiqcha"

metodi

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita,...) tushunchaning o'rin olishiga erishish;

- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash, mavzuni mustahkamlash maqsadida, o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi

mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim. Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata olish va asoslay olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

"3/3" ("4/4", "5/5",...) metodi

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko'ra o'qituvchi mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan uchta (to'rtta, beshta,...) bo'lgan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (so'zlar, belgilar, tasvirlar va boshqalar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchilar ushbu tizimdan mavzu (bo'lim, bob)ga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzu (bo'lim, bob)ga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

- o'quvchilar mavzu (bo'lim, bob)ga oid bo'lgan va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar. Metoddan individual, guruhviy va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

"Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash" metodi

O'quvchilar bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ushbu metodni qo'llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg'ulotlar so'ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foydalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo'llaniladi:

- o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatni mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi "yadro"

tushunchasining bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);

- har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga, asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;

- guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

1. O'qitish jarayoniga bu tarzda yondashilganda o'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishlariga imkon tug'iladi.

2. U yoki bu faoliyatni darsda amalga oshirish uchun o'quvchilarga boshlang'ich axborotlarni uzatish zarurati tug'ilsa, ma'ruza o'rnini bosa oladigan samarali instrument hisoblanadi.

3. O'qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo'yicha o'quvchilarni darsga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo'ljallangan alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, qo'shimcha tarzda gazeta, jurnal, maqolalardan materiallar bo'lishi kerak.

4. Har bir o'quvchi 2 guruh tarkibida ishtirok etadi: dastlab «o'z uyi» (birlamchi) guruhiga, keyin esa "ekspert" guruhiga birlashib, o'quv elementlarini mustaqil o'rganishadi. Ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun o'quvchilar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar bir xil rangdagi qog'ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog'ozning biror bir burchagi bo'yalgani ma'qul.

5. Har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha kishi (o'quvchilar soniga qarab) bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi "o'z uyi" dagilarni va qayta uchrashish joyini aniqlab olishi kerak.

6. O'qituvchi o'quvchilarni «rangli» topshiriqlar asosida guruhga birlashishini taklif etadi va ular alohida mavzular bo'yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, "qizil"larni sinf xonasi oxirida, "ko'k"larni esa maktab yo'lakchasida uchrashishi belgilanadi. Har bir ekspert guruhda 3 tadan kam o'quvchi bo'lmasligi kerak.

7. Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. Har qaysi guruh turli xil materiallar to'plamini olishlari va ularni o'qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo'yicha ekspertga aylanishi lozim. O'quv materiallari bo'yicha "ekspert" bo'lishi uchun o'quvchilarda vaqt yetarli bo'lishi kerak. Bu uchun agar materiallar murakkab va katta bo'lsa, ehtimol, bir dars to'liq talab qilinadi.

8. O'quvchilarga quyidagicha topshiriqlar beriladi:

- paketdagi materiallarni qunt bilan o'rganing va muhokama qiling;
-bir-biringizdan so'rang va o'quv materiallarini har biringiz tushunib olganingizga ishonch hosil qiling;

- o'z "uyingiz" guruhini o'qitish zarurligini hisobga olib materialning muhim o'quv elementlariga e'tiborni qarating.

9. O'quvchilarning o'z "uylariga" qaytishlarini iltimos qiling. Har biri o'z «uyi» guruhiga axborot beradi. Shaksiz, «uy» guruhida ekspert guruhlaridan bittadan o'quvchi bo'lishi shart. O'quvchi o'rganib kelgan materiallarni o'z guruhi o'quvchilariga o'rgatish javobgarligini bo'yniga olish lozim. Bu jarayon o'quv materialining o'zlashtirish zarurligiga qarab yana bir soat davom etishi mumkin.

10. O'quvchilar bir-birlaridan axborotlarni o'rganib bo'lishgach o'qituvchi oldindan rejalashtirgan faoliyat turini o'tkazishi mumkin.

"O'z o'rningni top" metodi

Agar sinfda u yoki bu mavzu bo'yicha tortishuvlar vujudga kelsa bu metod yordamida muammoning yechimini topish mumkin. Undan, ko'pincha, darsning kirish qismida foydalanishadi va o'tilayotgan mavzuni o'rganishga turli xil yondashuvlar mavjudligi namoyish etiladi. Bu bir tomondan. Ikkinchidan, o'quvchilarga o'z fikrini bayon qilishga, muloqot ko'nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo'ladi. Uchinchidan, dars so'nggida o'qituvchi tomonidan mavzuni o'zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

1. Sinfning qarama-qarshi burchaklariga ikkita plakat osildi. Ularning biriga "roziman", boshqasiga "rozi emasman" degan so'zlar yozilishi kerak. Plakatlarda ba'zi bir mavzuga oid savollar bo'yicha bildirilgan qarama-qarshi fikrlar ham yozish mumkin. Masalan: "anjir gullaydi va meva tugadi", yoki "anjir gullamasdan meva tugadi".

2. Darsni tashkil etish qoidalari muhokama qilinadi.

3. Qaralayotgan muammo yuzasidan o'z fikrlariga mos keladigan plakat yoniga borish zarurligi o'quvchilarga taklif etiladi.

4. Bo'lingan o'quvchilardan o'z qarashlarini asoslash so'raladi. Bu paytda bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tish ruxsat etiladi va shu tariqa sinf o'quvchilarining hammasi jalb etiladi.

5. Muammo bo'yicha fikrlar bildirilgach, o'quvchilar ichida munozara davomida o'z nuqtai nazarini o'zgartirganlar va boshqa guruhga o'tuvchilar bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ular o'z o'rnini o'zgartirish sabablarini asoslashi kerak bo'ladi.

Ishtirokchilardan opponentlari ichida muammo yuzasidan eng ishonchli fikr aytgan o'quvchilarni aniqlash so'raladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodi

Kichik guruhlarda ishlash o'quvchilarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o'rganishga imkoni tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

Qo'llanish usuli

1. **Faoliyatni tanlash.** Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada o'quvchilar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. **Zaruriy asos yaratish.** O'quvchilar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari kerak.

3. **Guruhni shakllantirish.** Odatda har bir guruhda 3-5 o'quvchi bo'ladi, (kam yoki ko'p bo'lishi ham mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishilik guruh tuzilgani ma'qul.

Guruh o'lchovi masalaning muhimligi sinfdagi o'quvchilar soni o'quvchilarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, "getrogen" guruh tashkil etishdir (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash o'quvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi. (Misol uchun, bir o'quvchi munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor rolini o'taydi va hokazo). Sinfni guruhlarga ajratish. xohish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.

4. **Aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish.** O'quvchilarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va hajm jihatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchiguruhlarining ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. O'quvchilar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib yetganligi tekshirib ko'riladi.

5. **Qo'llab-quvvatlash va yo'naltirish.** O'qituvchi zarurat tug'ilsa, guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga tazyiq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun har bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'ilsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozib boriladi. Muhimi, guruh yechimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt yetarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

«Menyu» metodi

Yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ish olib borishni xohlagan ijodkor o'qituvchiga "Menyu" metodidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda kichik guruh (o'quvchi)ga aniq topshiriq beriladi. O'qituvchi har bir guruh uchun alohida topshiriq tayyorlaydi. Masalan quyidagicha:

1. Ot so'z turkumi
2. Sifat so'z turkumi
3. Son so'z turkumi
4. Olmosh so'z turkumi
5. Fe'l so'z turkumi
6. Ravish so'z turkumi

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 minut davomida muhokama qilishadi, so'ngra har bir guruhdan bittadan vakil o'qituvchi stoliga kelishadi va tayyor "Menyuni olib qaytishadi. Bu uzun qirqilgan qog'ozlar - "Tillar" bo'lib ularda so'z turkumi haqida bayon qilingan bo'ladi. Guruh vakili tillardan tanlab oladi va o'z guruhiga olib keladi, keyin boshqa o'quvchi shu ishni bajaradi va zaruriy materiallar yig'ilguncha bu holat davom etadi. 10 minut davomida topshiriq muhokama qilinadi va rasmiylashtiriladi. Bu jadval qo'lda tayyorlanishi ham mumkin yoki javoblar og'zaki ham bo'lishi mumkin. Boshqa guruh vakillari savollar berishadi, o'qituvchi esa guruh ishlarini, sardor faoliyatini baholab beradi.

"Kichik guruhlarda bosma materiallar bilan ishlash" metodi

Kichik guruhlarda ishlashning yana bir samarali metodi - bu nashr qilingan materiallar bilan ishlash hisoblanadi. O'quvchilarning zaruriy axborotlarni izlab topishlari uchun, nazariy bilimlarni mustahkamlash yoki tasniflashlari uchun, nazariy materiallarni chuqur anglab olishlari uchun bu metoddan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinf 4-5 kishidan

iborat kichik guruhlarga bo'linadi. Guruh bir xil yoki turlicha mazmundagi topshiriqlar. Zaruriy materiallar: A 4 formatli oq qog'oz, qaychi, yelim.

Topshiriqlar:

A) narsa va shaxs nomini bildirgan so'zlar ichidan ortiqchasini ajrat.

Daraxt, yaxshi, suv, osmon, ko'k, mard, kamalak, yomg'ir, tiniq;

B) Narsa va shaxs harakatini belgisini bildirgan so'zlar ichida ortiqchasini ajrat.

Baland, keng, choynak, piyola, tor, yugurmoq;

Plakatlarga suratlar bilan birga ularni ifodalovchi so'zlar ham yozilgan bo'lishi shart. Har bir guruh (ular 4 ta) topshiriq oladi, suratdan ortiqchasini topadi.

Suratlarni qirqib oladi va plakatga yelimlaydi, zaruriy matnni sharhlaydi. Har bir guruh o'z sardorini aniqlaydi va ular ish yakuni to'g'risida hisobot beradilar.

Boshqa guruh o'quvchilari savollar berishadi va ishni baholashadi.

Bu metodni qo'llash davomida o'quvchilardan barcha materiallar yig'ib olinadi. O'quvchilardan ehtiyot bo'lib ishlash talab etiladi. Ortiqcha qog'oz qirqish, yelimlash, sinfni ifloslantirishga yo'l qo'yilmaydi.

Nazariy metod

Nazariy metodga adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish hamda pedagogic tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitoblar jurnallar, maqolalar, patentlar, ilmiy ishlanmalar, to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Kuzatish metodi

Kuzatish, odatda, tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'lim-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metodning asosini tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarni biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi.

Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan tavsifnomalar va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab kuzatishlar turlarga bo'linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayon kuzatuvchilarining xatti-harakatlari va hokazolarni yozib qo'yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli biror-bir hodisaning oqibatlarini haqidagi asl materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbob yordamida olishga imkon beradi. Fan-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullaridan xilma-xil texnika vositalari (kinofilm, videotasvir teleko'rsatuv) ni qo'llash orqali tobora ko'p foydalanilmoqda.

Suhbat metodi

Suhbat metodi savol-javobning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan, erkin muomala ko'rinishini qo'llaydi.

Suhbat metodi o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan, yakka tartibda va guruh bilan ish olib borilganda qo'llaniladi.

Suhbat metodidan farq qilib, intervyu olish metodi savollarning oldindan belgilangan izchillikda intervyu yo'li bilan bayon qilinishini nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy savol-javob nazariyasi va amaliyotida intervyu tashkil etishning ko'p usullari mavjud:

- guruhlar bilan;
- intensiv;
- sinov va h. k.

O'quvchilar ijodini o'rganishda ularning o'ziga xos shaxsiy faoliyatlariga doir omillar tahlil qilinadi, xulosalar yasaladi.

"Pedagogik savol- javob" metodi

Pedagogik savol-javob metodi. Tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogic tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. Ushbu metod savollarning mantiqiy o'ylangan tizimini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kam (3-5 ta) bo'lishini nazarda tutadi. Shuningdek, qisqa ko'rinishdagi javobni («ha», «yo'q») ham taqozo etishi mumkin.

Testlar, so'rovnomalar

Testlar, so'rovnomalar yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, yakka o'quvchining yoki o'quvchilar guruhining fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini

bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi. Test savollaridan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini yoppasiga baholashdir. Mutaxassislarning bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri bu test yordamida sinashdir. Test yordamida sinash o'quvchi yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma'naviyati hamda yoshlarning qaysi yo'nalish va mutaxassislikka layoqati borligini, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida bilimni baholashning pedagogika nuqtayi nazaridan ayrim yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta'kidlangan. Test savollari va masalalarining jozibadorligi ularning qisqa va lo'ndaligi, umumiy javoblar ichida to'g'ri javobning borligi va ularning o'quvchilarga ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi, topishmoqli o'yinga o'xshashligi va javobni topishda xotira ichki his (intuitsiya) va topqirlik qo'l kelishida namoyon bo'ladi. Test savollarini chop etish o'quvchilarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovlari metodi

Test sinovlari metodi - bu yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (so'rovnomalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot natijalarining ishonchliligi so'rovnomalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan so'rovnomalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, test savollari ma'lumotlarni kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

"Eksperiment-tajriba-sinov" metodi

Eksperiment-tajriba-sinov metodi ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarni tatbiq etish jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Sinf: 2- "B"

Sana: 5-mart

Fan nomi: Ona tili

Mavzu: So'z-narsa, belgi, sanoq yoki harakatning nomi.

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: Nutq birligi bo'lgan so'z haqidagi tasavvurni shakllantirish: odamlar bilan aloqa, munosabat jarayonida gap va so'zning xususiyatlari haqidagi tasavvurni aniqlash.

b) tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni fikrini bayon qilishga o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarda narsa, belgi, sanoq yoki harakatning nomini bildirgan so'zlarga beriladigan so'roq bilan shu so'zning ma'nosini taqqoslash ko'nikmasini o'stirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars jihozi: Darslik, mavzuga oid rasmlar.

Dars uslubi: noan'anaviy

Darsning borishi:

I. Uy vazifasini tekshirish.

II. Darsning maqsadini tushuntirish.

Gap nima? Bu haqida darslikdan o'qing. Qaysi mavzudan qidirasiz? (Nutq.Matn. Gap.) O'quvchilar mundarijadan mavzu nomini o'qiydilar va darslikdan shu betini topadilar, gap haqidagi ma'lumotlarni o'qiydilar. O'zingiz qish fasli haqida gaplar tuzing. (ular tuzgan gaplardan biri yozdiriladi)

Gap nimalardan tuziladi? (so'zlardan)

Darslikda berilgan so'roqni o'qing (so'z nimalarni bildiradi?). Bu savolga qanday javob berasiz? (o'quvchilar o'ylaydilar). Darsning maqsadi aytiladi:

So'z nima? So'z nimalarni bildiradi? so'rog'iga birgalikda javob beramiz. III.So'z yuzasidan kuzatish.

Birinchi usul. Suhbat.

Sindagi narsa buyumlarning nomini ayting. (Parta, xattaxta, stol, stul, javon, daftar,...)

Derazadan maktab hovlisiga (ko'chaga) qarang.

U yerda ko'ringan narsalarning nomini ayting. (O'quvchilar ko'rgan narsalarini aytadilar, lekin kishilarni aytmasliklari mumkin)

Hovlida kimlarni ko'ryapsiz? (O'quvchi,o'qituvchi, bola, ...)

Siz narsa va shaxslarning nomini aytish uchun nimadan foydalandingiz? -So'zlardan.

Narsalarni bildirgan so'zlardan beshtasini yozing. (So'z aytib turish bilan yozdiriladi). Har bir narsaning o'z belgisi bor. (O'qituvchi biror narsani,masalan, qandni, olmani ko'rsatadi.)

Bu nima? Qand (olma)

Qandning rangi qanaqa?

- Oq (ko'k, qizil).

- Mazasi qanday?

- Shirin (nordon)

Shakli qanaqa?

To'rtburchak (dumaloq).

- Siz narsa- buyumning (qand, olmaning) belgisini (rangini, mazasini, shaklini) va sonini aytish uchun nimadan foydalandingiz? (so'zdan) Demak, so'z narsa-shaxslarning belgisini va sonini bildiradi.

Narsalar (hayvonlar, jonivorlar,qushlar, ..) va kishilar (shaxslar) biror ishni yoki harakatni bajaradilar.

(Masalan, ot, o'quvchi rasmi ko'rsatiladi.) Ot nima qiladi? (Yuradi, tashiydi, chopadi.) O'quvchi nima qiladi? (O'qiydi, yozadi, so'zlaydi, ...) Narsa va kishilar bajargan ish harakatni aytishda nimadan foydalandingiz? (so'zdan)

Demak, so'z narsa va kishilarning harakatini bildiradi.

Odamlar atrof-muhitda mavjud bo'lgan hamma narsa-shaxslarni,ularning belgilarini va harakatlarini katta e'tibor bilan kuzatadilar hamda ularning barchasiga nom qo'yadilar. Agar narsa va shaxslar so'z bilan atalmasa, biz bir-birimizni umuman tushuna olmaymiz va har vaqt bir -birimizga fikrimizni tushuntirishni juda qiyinlashtiradi.

-So'z nima? So'z nima uchun kerak? O'quvchilar xulosani darslikdan o'qiydilar.

Ikkinchi usul. O'quvchilar sarlavha tagida berilgan savolga javob berish uchun shu betda berilgan topshiriqlarni bajaradilar, bir necha so'zni yozadilar,o'qituvchi yordamida xulosa chiqaradilar va darslikdagi xulosani o'qiydilar. 155-mashq.

IV. So'z va gapning nutqimizdagi ahamiyatini taqqoslash.

O'quvchilar 156-157- mashqlarni bajaradilar, darslikdagi xulosa ustida ishlaydilar.

V. "Tilimizda so'zlar nima uchun juda ko'p?" savoliga birgalikda javob topish. (Atrofimizda har-xil narsalar, o'simliklar ko'p, o'rmonlarda turli xil daraxt va hayvonlar, daryo va ko'llarda har xil baliqlar ko'p. Ularning hammasining nomi bor. Kishilar xilma-xil ish - harakatni bajaradilar. Bularning ham nomi bor. Har bir narsaning bir necha xil belgisi va soni, sanog'i mavjud, ularning ham nomi bor va boshqalar. Ana shular uchun ham tilimizda so'zlar juda ko'p.)

I. Darsni yakunlash.

Darsda nimalarni bilib oldingiz?

O'quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

II. Uyga vazifa. 158-mashq.

So'z va gap haqida darslikdan o'qish bilish. Tilimizda yangi so'zlar yaratiladimi? Savoliga javob berishga tayyorlanish.

SIFAT MAVZUSINI O'TISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ma'lumki, «Ona tili» darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o'sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'otishda, milliy tilga, o'z xalqining an'alariga iftixor hissini kamol toptirishda «Ona tili» darslarining o'zni beqiyosdir.

Dars o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqamiz. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilamiz. Murakkab mavzuni o'quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Modul dars», «Zigzak», «Interfaol», «O'yin dars», «Munozarali-bahsli dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars» kabi usullardan foydalanamiz. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi, ularni zeriktiradi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Zamonaviy darslarning asosiy yo'nalishlari:

- a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish;
- b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash;
- v) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish;
- g) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Shu maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni bajarish tavsiya etiladi:

- o'qituvchilarga kerakli metodik yordam ko'rsatish:

- turkum fanlar bo'yicha uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferentsiya hamda seminarlar tashkil etish.

- darslarni kuzatish va ularda IPT elementlarini qo'llash darajasini oshirish;

- ilg'or ijodkor o'qituvchilar tajribasini o'rganish va ommalashtirish.

Dars jarayonida umumiy yoki mavhum tushunchalar o'rniga aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar berish va boshqalar. Bugungi taraqqiyot har bir o'qituvchidan o'ziga xos ijodkorlikni, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu, o'z navbatida, ona tili fani o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. XXI asr muallimi yuksak taraqqiy etib borayotgan bugungi fan-texnika yutuqlariga har doim hozirjavob bo'lishi, ulardan o'z darslarida samarali foydalana olishi kerak bo'lmoqda. Darslarda qo'llanadigan interaktiv usullar o'quvchilarda o'z ona tili va yurtiga mehr-muhabbat tuyg'ularini uyg'otish, ularni mukammal savodxonlik darajasiga ko'tarish, mantiqiy aniq va to'liq nutq sohibi bo'lishiga erishish kabi muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ona tili darslarida o'tiladigan mavzuga oid materiallarni topish, ularni bajarishda o'yin usullaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Masalan, o'quvchilar ikkiga bo'linib gap tuzadilar. O'yin sharti shundaki, birinchi gap qaysi harf bilan tugasa, ikkinchi gap shu harf bilan boshlanishi kerak. Gaplar ma'lum bir mavzuga oid bo'lib, natijada matn tuziladi. Masalan: «Odam odamsiz yashay olmaydi. Inson o'zining xushtabiati, shirin muomalasi bilan odamlar qalbidan joy oladi», kabi. Maktabda adabiy kechalar o'tkazish ham o'ziga xos samara beruvchi usullardandir. O'quvchilar bunday tadbirlarda she'rlardan namunalar yodlaydilar, timsollarga bo'linib, asarlardan parchalar ko'rsatadilar, sahnada o'zlari ijro etadilar. Bunda o'quvchi yodlagan har bir jihat uning ongida bir umr muhrlanib qoladi, uning yodidan chiqmaydi.

Ona tilidan zamonaviy dars turlari:

-ta'limiy darslar.

-nazorat darslari.

Ona tilidan nazorat darslari:

-til hodisalarini o'zlashtirganlik darajasi ustidan nazorat;

-o'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligi ustidan nazorat;

-nutqiy malakalarni egallaganlik darajasi ustidan nazorat.

Ona tili darslarining noan'anaviy shakllari:

“Topqirlar bellashuvi” darsi.

“Bahs-munozara” darslari.

“O’tkir zehnlilar” darsi.

“Zakovat” darsi.

“Ishchan o’yinlar” darsi.

“Ijodiy ishlar” darsi.

“Mushoira” darsi.

“Mo’jizalar maydoni” darsi.

“Seminar” darsi.

“Yubiley” darsi.

“Konferensiya” darsi.

Mazkur noan’anaviy darslarning bir-nechtasi haqida to’xtalib o’tamiz.

“Zakovat” darsi. Bu dars orqali o’quvchilarni intellektual rivojlantirish ancha samarali hisoblanadi. Odatda, muayyan bob yoki bo’limi yakunlangach bunday darslarni tashkil etib o’tkazish ancha samarali hisoblanadi. Darsni o’tkazish tartibi quyidagicha:

Sinfdagi bilimli, zukko o’quvchilardan 6 nafari tanlanib «zakovat» klubi tashkil etiladi.

Boshlovchi (a’lochi o’quvchi yoki fan o’qituvchisi) 10 kun oldin sinfdagi har bir o’quvchidan dars mavzulariga mos 2 tadan qiziqarli savol-topshiriqlari tuzdirib oladi va topshiriqlarini to’plashni tashkil etadi. Topshiriq mazmunining maxfiyligi ta’minlanishi zarur. Tushgan savollardan 11 tasi saralab tanlanadi.

«Zakovat» darsida boshlovchining yordamchisi konvertlarni raqamlab chiqadi. Ishtirokchilar navbat bilan konvertlarni tortib 1 daqiqa ichida savollarga umumkomanda (6 kishi) nomidan yakuniy javob beradilar.

Bu o’yinda komanda a’zolari yoki tomoshabinlar g’olib bo’lishi mumkin. 3 kishidan iborat hakamlar hay’ati, berilgan savollar hamda javoblarni baholab boradilar. Eng yaxshi savol ya’ni, eng zukko «zakovat» klubi ishtirokchisi qimmatbaho kitoblar bilan taqdirlanib boriladi.

“Musobaqa” darsi. Musobaqa darslari bob yoki bo’lim yakuni bo’yicha o’tkaziladi. Bu darsni o’tkazish tartibi quyidagicha bo’ladi:

I.Sinfdagi o’quvchilar qatoriga qarab 3 ta komandaga ajratiladi. Guruh sardorlari tanlanadi.

II. Uch kishidan iborat hakamlar hay'ati tuziladi. O'qituvchi dars mavzusi yuzasidan 60 ta savol va har bir savolga mos ravishda 60 ta yulduzcha tayyorlaydi. Har bir to'g'ri javobga 1 ta yulduzcha beriladi. Darsning borishi quyidagicha amalga oshadi:

5 daqiqalik musiqali pauza. Guruhlar o'z nomlarini izohlab, o'z shiorlarini e'lon qiladilar.

Uy topshirig'i (eng original bajarilgan uy ishi - 5 ballgacha baholanadi).

“O'ylab top!” musobaqasi har bir guruhga 10 tadan qisqa, qiziqarli savol beriladi. To'g'ri javob yulduzcha bilan taqdirlab boriladi.

Guruh sardorlari bahsi- mavzu yuzasidan 3 tadan qiziqarli savollar beriladi. To'g'ri javob yulduzcha bilan taqdirlanadi.

Rassomlar tanlovi-har guruhdan bir rassom o'quvchi tanlanib, u dars mavzusiga atab rasm chizib hakamlar hay'atiga topshiradi.

Eng yaxshi she'r tanlovi-dars mavzusiga atalgan eng yaxshi she'r komanda tomonidan hakamlar hay'atiga taqdim qilinadi. Dars yakunlanib xulosa chiqariladi.

“Kim oshdi savdosi” darsi. Mazkur dars odatda, «auksion dars» nomi bilan ham yuritiladi. Bunday darslarni umulashtiruvchi takrorlash darslarida qo'llash ancha samarali hisoblanadi. Bunday darslarni tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilar auksiya qonun-qoidalarini yaxshi o'zlashtirishlari kerak. Bunday darslarni quyidagi tartibda olib boriladi:

Auksionga kirish, bilet olish uchun har bir o'quvchiga shu o'quv fani bo'yicha o'tgan mavzular yuzasidan avval 1 ta savol beriladi. Aniq javob bo'lmasa, qo'shimcha yana savol beriladi. So'ngra o'quvchiga aukstionga qatnashish huquqi beriladi.

Auksionni olib boruvchi sifatida a'lochi o'quvchilardan biri tayinlanadi. Auksionga o'xshab har bir predmet uchun 1 tadan 10 tagacha shu fanga doir savollarga o'quvchi javob berishi kerak.

“Sinov” darsi. Ushbu dars odatda, bob yoki bo'lim yakunida, o'quv choragi yoki o'quv yili yakunida barcha umumta'lim fanlaridan tashkil etib o'tkazilishi mumkin.

Bu darsning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yangi pedagogik texnologiya elementlariga asoslangan turli ko'rinishlarda tashkil etilishi mumkin. Uning variantlarini tanlash har bir fan mutaxassisining mahoratiga, ilmiy salohiyati va eng asosiysi, uning pedagogik tajribasiga bog'liq. Biz quyida hamma o'quv fanlariga mos tushadigan

sinov darsi variantini keltirmoqchimiz. 1.O'qituvchi va ikki o'quvchidan iborat sinov komissiyasi tuziladi.

Sinovning birinchi bosqichi og'zaki savol-javob bo'lib, 20-30 ta mavzuga doir savollar doskasiga yozib qo'yiladi. Sinovga chaqirilgan har o'quvchi kamida 2 ta savolga javob berishi lozim. Undan o'tganlar sinovning ikkinchi bosqichiga ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

Sinovning ikkinchi bosqichi o'tilgan bob yoki bo'lim mavzulari asosida tuzilgan 15 ta savoldan iborat test sinovi bo'lib test topshiriqlari varaqalari o'quvchilar soniga mos ravishda ko'paytiriladi.

Dars yakunida og'zaki savol-javoblar hamda test topshiriqlari yakuni bo'yicha baholarni sinov komissiyasi e'lon qiladi.

“Ishchan o'yinlar” darsi. Bunday darslarni o'quv yili oxirida, bo'lim yoki boblarni yakunlash jarayonida o'tkazish tavsiya etiladi. Ishchan o'yinlarni tashkil etish, ayniqsa 3-4-sinflarda juda yuqori samara beradi. Insoniyat oldida turgan global muammolar, iqtisodiyot, til va madaniyat, inson salomatligi va hokazo dolzarb mavzular mazmunini yoritishda bunday darslarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Ishchan o'yinlarni o'tkazish tartibi quyidagicha.

Sinf o'quvchilari maxsus guruhlariga ajratiladi.

Birinchi guruh - ilmiy g'oyalar, ilmiy taxminlar turli sohalardagi ilmiy loyihalar tuzish ularning mazmunini tushuntirish va himoya qilish bilan shug'ullanadi (4-5 ta bilimdon o'quvchidan iborat).

Ikkinchi guruh - yordamchi guruh bo'lib, u kerakli ma'lumotlarni to'playdi. Qo'shimcha adabiyotlarni, ma'lumotnomalarni birinchi guruhga yetkazib beradi (4-5 nafar o'quvchidan iborat).

Uchinchi guruh - ijrochi guruh bo'lib birinchi guruh bergan topshiriqlarni bajaradi va ijroning borishi haqida axborotlar tayyorlab boradi.

To'rtinchi guruh - nazorat guruhi hisoblanib, ularga nazorat kartochkalari to'ldiradi va 1- hamda 3 - guruhlariga berib turadi.

Ilmiy kengash guruhi – yosh tilshunoslar, lug'atshunoslar, jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari vakillari. Dars haqida yakuniy xulosa beradi.

“Uchrashuv” darsi. Noan'anaviy darslar ichida uchrashuv tipidagi dars deyarli barcha o'quv fanlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali dars hisoblanadi. Uchrashuv darsining mohiyati shundaki, dars mavzusiga mos ravishda shu fanga hissa qo'shgan olim yoki

yozuvchi «obrazi» ga o'quvchilardan biri kirib, o'zining hayot yo'li, ijodi va yaratgan asarlari haqida fikr yuritiladi.

Uchrashuv darsining kirish qismida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. O'qituvchining dars mavzusi, maqsadi, shiori va dars rejasi haqidagi kirish so'zi.

2. Olim yoki shoirning eng yaxshi asarlari namoyishi.

3. Shoir yoki olim «obrazi» dagi o'quvchini sinfga taklif etib, kutib olish.

Darsning asosiy qismi:

Shoir (olim) ning hayot yo'li va ijodi haqida ma'ruza.

O'quvchilarning «Qahramon» bilan savol-javoblari.

Shoir (olim) ijodidan namuna sifatida badiiy montaj.

Darsning yakuniy qismi:

4. Olim yoki shoir ishtirokida «sirli sandiq» uyini (Sandiqda olim hayoti va ijodi bilan bog'lik savollar bo'ladi).

5. Ilg'or o'quvchilarni taqdirlash.

6. Shoir yoki olimning yakuniy so'zi.

“Ijodiy” dars. Ilg'or tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday darslarni ta'lim tayyorgarligi ancha yuqori bo'lgan sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazish yaxshi samara beradi. «Ijodiy darslar»ni tashkil etish metodikasi quyidagicha:

Sinf o'quvchilari ixtiyoriy ravishda 5 ta guruhga ajratiladi.

1-2 guruhlariga yangi dars mavzusi bo'yicha krossvordlar tuzish topshiriladi. Bunga 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

3-4 guruhlariga dars mavzusi bo'yicha «Evrika» - mantiqiy - didaktik savollar berilib shu asosda o'yin olib boriladi. Unda har bir o'quvchiga 2 tadan savol - topshiriq beriladi. Javoblar uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

5-guruh «Ssenaristlar» guruhi bo'lib, ular dars mavzusiga bag'ishlab, hujjatli, multfilm shakllaridan birini tanlab ssenariy yozadilar. Ssenariy usuli hajviy, yumoristik, jiddiy, drama shakllarida bo'lishi mumkin.

3 kishidan iborat hakamlar hay'ati ijodiy ishlar ko'rigini o'tkazadi va natijalarga ball qo'yadi. Hakamlar ishining yakuni uchun 5-10 daqiqa kifoya. Bu darsda musiqali tanaffus bo'lishi mumkin.

“Ijodiy ishni himoya qilish” darsi. O'qituvchi ma'lum bir bo'limni o'rganishdan oldin shu bo'lim mavzulari yuzasidan 15-20 ta «ijodiy

ish» mavzusini ajratadi va uni o'quvchilarga tarqatadi. Eng a'lochi o'quvchilardan «ilmiy rahbar» tayinlaydi. Ijodiy ish olgan o'quvchilarga «ilmiy tadqiqotchi» nomi beriladi. Har bir ijodiy ishga 1 nafar «opponent» tayinlanadi. Ijodiy ish himoyasi umumlashtiruvchi takrorlash darsida amalga oshiriladi. O'qituvchi «ilmiy kengash raisi» vazifasini bajaradi. Har bir ijodiy ishni himoya qiluvchi o'quvchiga tanlagan mavzusi bo'yicha ma'ruza uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. «Opponent» ijodiy ishni bajarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish haqidagi mulohazalarini 2 daqiqada bayon etadi. Ilmiy rahbar mazkur ish yuzasidan o'z fikrini bayon etib o'z bahosini e'lon qiladi. Ijodiy ishlar muhokamasi tugagach, 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi, byulletenlar tarqatib yopiq ovozda ilmiy kengash a'zolarining ijodiy ishga qo'ygan baholarini aniqlaydi. Kengash raisi dars so'nggida ijodiy ishlarga qo'yilgan baholarni «ilmiy kengash» nomidan e'lon qiladi.

“Matbuot konferensiya” darsi. Darsda prezidium 8-10 kishidan iborat bo'lib «Davlat rahbarlari», vazirlik va tashkilotlardan vakillar o'tirishadi. Har bir vakilning oldida uning lavozimi, vazifasi ko'rsatilgan taxtachalar qo'yiladi. Muhokama etiladigan masala shior shaklida yoziladi.

Qolgan o'quvchilar mavzuga doir turli savollar bilan Prezidium a'zolariga murojaat qiluvchi telekanallar, gazeta va jurnal redaksiyalarining muxbirlari rovida ishtirok etadilar. 4 kishidan iborat «Matbuot markazi» vakillari prezidiumga tushgan savollarni qayd etib boradilar va yozma tushgan savollarni tegishli mutaxassislariga yetkazib turishadi. Darsning borishi quyidagi tartibda amalga oshadi:

Tanlangan mavzu buyicha 5 daqiqa asosiy ma'ruza qilinadi. Jurnalistlar 30-35 daqiqa davomida o'zlarini tanishtirib, ularni qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishadi. Javoblar qisqa, aniq, lo'nda bo'lishi kerak. Darsning so'nggida o'qituvchi 5 daqiqada xulosa qilib yakunlaydi.

So'z isboti sifatida 4- sinflarda sifatning ma'no turlarini o'tishning namunasini ko'rsatib o'tiladi.

Sifatlarning ma'no turlari

Dars ishlanma

Maqsadlar:

a) ta'limiy: o'quvchilarga sifatlarning ma'no turlari, rang- tus, maza-ta'm, hajm, shakl, xil- xususiyatni bildiruvchi sifatlar haqida

ma'lumot berish, mavzu borasidagi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mashqlar ishlash jarayonida takomillashtirish;

b)tarbiyaviy: fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, dunyoqa- rashini kengaytirish, o'z ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, so'zlashuv madaniyatiga rioya qilishga, o'zaro suhbat jarayonida suhbatdoshi fikriga hurmat bilan qarashga o'rgatish;

c)rivojlantiruvchi: ularning sifat so'z turkumi, sifatlarning ma'no turlari haqidagi bilimlarini va darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish.

II. O'tilgan mavzu va uy vazifasini so'rash.

Savollar:

Sifat so'z turkumining qoidasini ayting.

Ular qanday so'roqlarga javob bo'ladi va qanday so'z turkumiga bog'lanib keladi? Misollar keltiring.

Sifatlar qanday ma'nolarda

DTS talabi: so'z turkumi, sifat, ularning ma'no turlarini farqlay bilish; o'zlashtirilgan bilimlar doirasida xatoliklarga yo'l qo'ymaslik.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Jihozlar: kompyuter, video- proyektor, kompakt disklar.

Fanlararo bog'liqligi: darsni matematika, tasviriy san'at, atrofimizdagi olam fanlari bilan uzviy olib borish.

Uslubi: og'zaki bayon, savol- javob, darslik hamda rasmlari kartochkalar bilan ishlash.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism: O'qituvchi bolalar bilan salomlashadi. Navbatchi axboroti tinglanadi.

Darsning asosiy qoidasi o'quvchilarga yana bir bor eslatiladi.

qo'llaniladi? Gapda qaysi bo'lak vazifasida keladi?

O'quvchilarga birikmalardagi sifatlarni o'z ma'nosida qo'llab, gap tuzib, yozish topshirig'i beriladi: shirin bola, achchiq gap, chaqqon qiz kabi.

III. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

Guruhlarga bo'lingan holda mashg'ulot davom etadi. O'tilgan mavzularga doir bir necha savollar beriladi.

1- guruhga:

1- savol kartochkalar asosida:

Ot deb nimaga aytiladi?

Ot qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

Ot yasovchi qo'shimchalarni ayting va misollar keltiring?

Matn nima?

2- guruhga:

2. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'ying.

Raxta.....

Ish.....

Quruq.....

Pilla.....

Dahl.....

Uy vazifasini mustahkamlashda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Rag'bat kartochkalarida bahor faslidagi yog'inlar tasvirlangan (3 ball - «do'l», 2 ball - «yomg'ir», 1 ball «chaqmoq») kabi.

IV. Yangi dars bayoni:

Mavzu doskaga yoziladi.

Sifatning qoidasi aytiladi.

Shaxs, narsa belgisini bildirgan so'zlar sifat deyiladi. Sifat qanday? qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi.

Sifatlarning ma'no turlari haqida ham ma'lumot beriladi.

Bunda rang-tusni, hajmni, maza-ta'm, shakl hamda xil-xususiyatni bildiruvchi sifatlar borasidagi ma'lumotlar ko'rgazmali qurollar asosida bolalarga yetkaziladi.

286- mashq. Sifatlarni ma'no turlariga ko'ra jadval asosida guruhlang.

Keng, taxir, oppoq, kichkina, bepoyon, egri, cheksiz, qiyshiq, botir, tor, shirin, jasur, dumaloq, yam-yashil, saxiy, sho'x, aqlli, qip-qizil, achchiq, yapaloq.

Jadvaldagi ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli sifatlarni ayting. Ularning yozilishini yodingizda tuting.

Masalan: kichkina, keng, bepoyon, cheksiz, tor, shirin, achchiq, taxir.

Rang-tusni, maza-ta'mni, hajmni, shaklni, xil-xususiyatni bildiruvchi sifatlar

Oppoq, taxir, keng, qiyshiq, botir, yam-yashil, shirin, kichik, egri, jasur, qip-qizil, achchiq, cheksiz, dumaloq, saxiy, yapalo, sho'x, aqlli

287- mashq. Sifatlarning ma'no turlariga misol topib, qatorlarni davom ettiring.

Rang-tus: moshrang, oppoq, ko'm-ko'k.

Maza-ta'm: nordon, achchiq, sho'r, taxir.

Shakl: qiyshiq, to'g'ri, to'rtburchak, romb, aylana.

Hajm: baland, past, keng, tor, cheksiz.

Xil-xususiyat: muloyim, osoyishta,
xushchaqchaq, qayg'uli.

288- mashq shartiga ko'ra, o'quvchilar berilgan otlarga mos rang bildiruvchi sifatlar asosida birikma tuzib yozadilar.

Shuningdek, ular sifatlarning otlarga bog'lanishi haqidagi savolga javob bera turib, berilgan sabzavotlarga qanday ranglar mos kelishini ham aytadilar.

V. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Guruhlarga maza-ta'mga doir qo'shimcha topshiriqlar beriladi.

2-guruhga:

Banan, xurmo, limon, sarimsoq, olma, qalampir

Javoblar:

Banan - shirin, limon – nordon, xurmo – shirin, sarimsoq – achchiq,
olma - shirin (nordon), qalampir – achchiq

FSMU texnologiyasidan foydalanilgan holda yangi mavzu mustahkamlanishiga erishiladi.

Kichik guruhlarga topshiriqlar:

1- guruhga: Sifatlar gapda qanday bo'lak vazifasida keladi?

2- guruhga: Sifatlar otga qanday bog'lanadi?

3- guruhga: Sifatlarning ma'no turlarini sanab o'ting-chi?

4- guruhga: Shirin so'z - shirin kulcha, achchiq choy - achchiq gap,
uzoq yo'l - uzoq qarindosh, keng uy - keng fe'l birikmalaridagi
sifatlarning ma'nolarini aniqlang.

O'quvchilar avval yakka, keyin kichik guruhlarda, oxirgi bosqichda esa jamoa bo'lib ishlashadi. Ular o'rganilgan mavzu bo'yicha o'z fikrini erkin, asosli tarzda bildirishlariga erishiladi. Ham jamoa bo'lib, ham erkin faoliyatda bo'lish ularning yangi mavzuni oson va mukammal o'zlashtirishlariga zamin yaratadi.

«Debat» usulidan foydalanib, sifat turlariga misollar keltirish topshirig'i beriladi.

VI. Darsni yakunlash: Ballar umumlashtirilib, natijalar e'lon qilinadi.

Lug'at daftarchasiga ma'no, ta'm, taxir, saxiy so'zlarini yozib qo'yish topshiriladi.

VII. Uyga vazifa: O'quvchilarga o'zlari tanlagan birorta rasm asosida hikoya tuzish, hikoyadagi sifatlarning ma'no turlarini aniqlash va rang-tusni bildirgan sifatlarning tagiga chizish topshirig'i beriladi.

II-dars ishlanmasi

Sifatlarning otlashuvi 4-sinfda ona tili fanidan

bir soatlik dars ishlanmasi

Dars mavzusi:

Sifatlarning otlashuvi.

Darsning maqsadi:

1)ta'limiy:

– O'quvchilarda ona tilimizning boy imkoniyatlari haqidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish.

2)tarbiyaviy:

– O'quvchilarda ona tiliga mehr uyg'otish.

3)rivojlantiruvchi:

- Mavzuga tayanib o'quvchilar nutqini, so'z boyligini o'stirib borish.

Darsning jihozi:

Kodoskop, boshqotirma, test varaqalari, sifat so'z turkumiga oid so'zlar jamlanmasi.

Dars uslubi:

Noan'anaviy, interfaol, guruh va jamoa bo'lib ishlash, "Aqliy hujum".

Dars rejasi va taqsimoti:

1.Tashkiliy qism

- 5 daqiqa

a)Sinf tozaligi.

b)Davomat

c)Ona tili haqida she'r

d)Dunyo yangiliklari (qisqacha)

2.O'tilgan mavzularni o'yinlar asosida takrorlab olish. "Xotira charxi" – 5 daqiqa.

a)Boshqotirma

b)Tezkor savollar

c)Test savollari (har xil shaklidagi varaqalar).

3.Yangi mavzu bayoni: - 10 daqiqa.

a)Kodoskop asosida.

b)1-2-topshiriqlarni ishlab chiqish.

4.Darsni mustahkamlash: - 15 daqiqa

a)Mashqlar asosida

b)O'quvchilar mashq bajarguncha, uy vazifalarini tekshirib, "ozoda darslik", "chiroyli husnixat" egalarini aniqlash.

c)O'yin, musobaqa tashkil qilish.

d)Xalq og'zaki ijodidan foydalanish (maqollar, hikmatli so'zlar, kodoskop vositasida).

5.Uy vazifasini so'rash:- 3 daqiqa.

a)Mashq bajarish.

b)Test tuzish.

6.Rag'batlantirish: - 5 daqiqa.

7.Uyga vazifa: - 2 daqiqa.

Darsning borishi.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, hurmatli o'quvchilar. Mana bugun o'lkamizga kuz tarovatini ko'z-ko'z qilmoqda. Sizlar kuzni yaxshi ko'rasizlarmi?

O'quvchilar bir ovozidan:

"ha", deb javob berishadi.

O'qituvchi:

- Unda darsimizni boshlaymiz, bugun darsimiz nima?

O'quvchilar:

- Ona tili

O'qituvchi:

- Odatda, bu darsni ona tiliga bag'ishlangan she'r bilan boshlardik:

Qani kim she'r aytadi? Bir o'quvchi turib: Tursinboy Adashboyevning

"Ona tilim" (she'rini aytadi)

Buyuk Temur jahon bo'ylab,

O'z dovrug'ini slogan tilim.

Mir Alisher bobomlardan,

Meros bo'lib qolgan tilim.

Bobur Mirzo she'rlaridan,

Rang va qiyos olgan tilim,

Shunday tildan tonar bo'lsam.

Qiyma-qiyma bo'lsin tilim.

Alla bo'lib jaranglagan,

Ona tilim – jon-u dilim.

O'qituvchi:

juda ham yaxshi, endi navbatchi o'quvchidan davomatni qabul qilamiz.

Sinfimiz toza darsga tayyor. Darsimizning shiori "Til bilgan – elga manzur".

O'qituvchi:

Dunyo xabarlaridan bugun bizni kim boxabar qilmoqchi? O'quvchilardan ikki nafari yangiliklarini aytishadi.

O'tilgan mavzu asosidagi boshqotirma xat taxtaning ikki yoniga osilgan. Ikki o'quvchi chiqib, boshqotirmaning yechadi.

1.Sifatning so'rog'i?

2.Xajm bildiruvchi sifat?

3.O'simliklar rangi?

4.Maza-ta'm sifati?

1.Sifatning so'rog'i?

2.Masofa bildiruvchi sifat?

3.Sifat so'z turkumi bilan boshlanuvchi hayvon nomi?

4.Shu jarayonda yana ikki o'quvchi chiqib, o'qituvchi tomonidan o'qilayotgan "Tezkor savollar"ga javob berishadi.

Birinchi o'quvchiga:

1.Bir asosdan iborat sifat ...

(sodda sifat)

2.Takroriy sifatning ahamiyati

(so'zni kuchaytirish)

3.Sifatning so'roqlari?

(qanday, qanaqa?)

4.Old qo'shimchalar (ser-, no-, be-, bo-)

5.Old qo'shimchalar qaysi tildan olingan? (tojik)

Ikkinchi o'quvchiga:

1.Ikki asosdan iborat sifat... (qo'shma sifat)

2.–lik qo'shimchasi ot yasaydimi, sifatmi? (ikkalasini ham)

3.Noto'g'ri so'zida qo'shimcha bormi? (oldi qo'shimcha bor).

4.Juft sifatga misol ayting?

(achchiq-chuchuk).

5.Sifatning gapdagi vazifasi?

(aniqllovchi, kesim va hol).

Har xil shakllar ichidagi test savollar

1.Yasama sifatni toping?

- a)Dilkash, olcha, toshloq
- b)Xushhavo, hamyurt, o'quvchi
- c)Erkin, ko'tara, asrandi
- d)O'tmas, sog'lom, duogo'y

2.Kelinga ko'zimiz tushadi; yumaloq qip-qizil loladay yuzli ko'zlari uchqunli

yaxshigina go'zalgina qiz. Ushbu gapda nechta yasama sifat bor?

- a)3 ta b) 4 ta c) 5 ta d) 6 ta

3.Yasama sifat ishtirok etgan gapni toping?

A)Go'zallikdan ezgulik yaxshiroqdir.

B)Bizning Shaxlo o'zi kichgina bo'lsa ham ancha ziyrak.

C)Agar birorta kichikroq baliq suv yuziga suzib chiqsa, mushuk bir hamla bilan

uni ushlab olar ekan.

D)Qor tip-tiniq shudring tomchiga aylandi.

4.Tub sifatni toping?

A)Yoqimli, siniq

B)Go'zal, qadimgi

C)Bo'm-bo'sh, qoramtir

D)Johillik, ajoyib

Yoki 2-sinflarda ham shu mavzuni quyidagi usulda o'tish mumkin:

Darsning mavzusi : Shaxs va narsa belgisini bildirgan so'zlar

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsad: o'quvchilar dashaxs vanarsa belgisini bildirgan so'zlar haqida, belgini bildirgan so'zlarga qanday? qanaqa? so'roqlarini berish haqida bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirish

2.Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda Vatanimizni sevish, barcha fanlardan puxta bilim olib, barkamol avlod bo'lib yetishish hissini tarbiyalash

3.Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning so'zlarga so'roq berish hamda husnixat bilan yozish malakasini rivojlantirish

Darsturi: yangi bilim beruvchi

Darsmetodi: tarmoqlash, aqliy hujum metodlari, "o'zingnikini top", "ingliz tili bilago'ni", "to'rtinchisi ortiqcha" mashqlari

Darsning jihozi: darslik, multimediya, slaydlar, kartochkalar, rasmlar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism

1. Salomlashish.

2. Davomatni aniqlash

- Bugungi navbatchini tinglaylikchi, darsda kim yo`q? (navbatchi o`quvchi darsga kelmagan o`quvchilar bo`lsa, ular haqida hisobot beradi)

3. O`quvchilarning darsgahozirlikini tekshirish

- Qani, bolajonlar, darsgahammatayyormi? Darsga kerakli barcha o`quv qurollaringiz taxtmi?

4. Yurtimiz va chet ellarga oid yangiliklar bayoni

- Bugun ham darsimizga har kungidek "suxandon" tashrif buyurdi. Qani uni tinglaylik-chi. (Navbatchi o`quvchi yurtimiz va chet ellarga oid yangiliklardan xabardor qiladi)

5. O`qituvchi she'r o`qiydi:

Quyosh chiqar olamga nurlarini sochgali,

Sening ila kitobdan sahifalar ochgali.

Kitobdagi sirlarni tezroq bilgin, bolajon,

Undan keyin yanada g`ayrat qilgin, bolajon.

"Yozolmayman" demagin qiyin bo`lsa harf yana,

Yalqovlarda bo`lmaydi yozmoqlikka hafsala.

Muammoni yechmoqqa sen doimo tirishgin,

Eplolmasang ilk marta, yana takror kirishgin.

So`zlar faqat o`shanda sirlarini ochishar,

Ular bilan do`stlashsang, yo`lingga nur sochishar.

II. Uy vazifasini tekshirish

-Qani bolajonlar, uyga nima vazifa berilgan edi?

- Uyga vazifa 97-betdagi 237-mashqni bajarish edi

- Uy vazifasini hamma bajarib keldimi? Mashqni qanday bajardingiz?

-Mashqda berilgan Tursunboy Adashboyevning "Bahor kelgach" she'rini yodoldik, to`rt qatorini yoddan yozdik.

-Barakalla, hozir daftarlaringizni partadoshingiz bilan almashib, ekran orqali ko`rsatilgan mashqni tekshiring. Tekshirib bo`lgach kamchiliklari haqida fikringizni ayting.

(237-mashq ekran orqali ko`rsatiladi)

Uyishi

237-mashq.

Yalangoyoq qirda chopdik,

Savat-savat jag`-jag` topdik,

Ikki tandır somsa yopdik

Bahor kelgach.

Husnixat mashqini o`tkazish.

Ekran orqali “Alifbo” metodik qo`llanmasidagi “Yozishni o`rganamiz” videoroligi ko`rsatiladi. O`quvchilar bosh va kichik F fharfini husnixat bilan yozish qoidasini yodga oladilar. Duskada o`qituvchi shu harf bilan boshlanadigan so`zlarni yozib ko`rsatadi (Feruza, fasl). O`quvchilar daftarlariga so`zlarni bir qatordan yozadilar.

-Topshiriqni bajarib bo`ldingizmi? Barakalla! Endi har bir qatordan bittadan o`quvchi boshqa qator o`quvchilar daftarini ko`zdan kechiradi va eng namunali husnixat egasini aniqlaydi. (Chiroyli yozgan o`quvchilar rag`batlantiriladi)

Dam olish daqiqasi

Kulrangg`ozlaruchdilar

Ko`lmakchagaqo`ndilar.

U yon-bu yon qarashib

Yana uchib ketdilar.

III. Yangimavzuningbayoni

-Bolajonlar, bugun biz sizlar bilan shaxs va narsa belgisini bildirgan so`zlar haqida suhbatlashamiz.

(**1-slayd**: Mavzu: Shaxs va narsa belgisini bildirgan so`zlar)

-Bu nima?

-Olma

-Olmaqanday?

-Mazali, xushbo`y, qizil, shirin


(**2-slayd**)

-Bu nima?


-Mashina

-Mashinaqanday?

-Katta, ko`rkam, oq, yangi



(3-slayd)



-Bu nima?

-Kamalak

-Kamalakda qanday ranglar bor?

-Qizil, zarg`aldoq, sariq, yashil, moviy, ko`k, binafsharang

(4-slayd)



(Belgini bildirgan so`zlar doskaga yopishtiriladi)

-Demak, bu soʻzlar shaxs va narsaning belgisini bildirgan soʻzlar ekan. Shaxs va narsaning belgisini bildirgan soʻzlar qanday? qanaqa? soʻroqlariga javob boʻladi.

Darslik bilan ishlash

-Hamma darslikdagi 238-mashqda tasvirlangan rasmga qarasin. Nimalarni koʻryapsiz?

-Rasmda binolar, koʻchalar, daraxtlarni koʻryapmiz.

-Savollarga javob bering. Javobingizni yozing.

(Oʻquvchilar mashqni daftarlarida bajaradilar. Uch nafar oʻquvchi navbat bilan doskada yozadi.)

Qanday bino? *Katta, hashamatlibino.*

Qanday koʻcha? *Keng, tekiskoʻcha.*

Qanday daraxt? *Yashil, koʻrkamdaraxt.*

(5-slayd)

Qoida

Shaxs va narsaning belgisini bildirgan soʻzlar qanaqa? qanaqa? soʻroqlariga javob boʻladi.

(Oʻquvchilar birgalikda takrorlashadi)

-Bolajonlar, hozir biz sizlar bilan darslikdagi 239-mashqni bajaramiz.

Topishmoqni o`qing. Narsaning belgisiga qarab, topishmoqning javobini toping.

(6-slayd)

Usti yo`l-y`ol, sariq, ko`k,
Beqasamga o`xshaydi.
Shirinligi til yorar,
Hidi o`tkir, bo`yi past.

-Topishmoq handalak haqida aytilganini bilishingizda sizga qaysi so`zlar yordam berdi?

-Yo`l-yo`l, sariq, ko`k, o`tkir, past.

-Shu so`zlarga narsani bildirgan so`zlar orqali so`roq bering.

-Usti (qanday?) yo`l-yo`l; rangi (qanaqa?) sariq, ko`k; hidi (qanaqa?) o`tkir; bo`yi (qanday?) past;

-Topishmoqni ko`chiring. Handalakning belgisini bildirgan so`zlarning tagiga to`lqinli chiziq chizing.

-Hozir darslikdagi 240-mashqni bajaramiz. O`qing va qaysi hayvon haqida yozilganini aniqlang.

-Uning qulog`I uzun, dumi kalta. Terisi yozda kulrang, qishdaoq.

-Matn nima haqida?

-Quyvon haqida.

-Matn quyvon haqida ekanini topishingizda sizga qaysi so`zlar yordam berdi?

-Uzun, kalta, kulrang, oq.

-Bu so`zlar nimani bildiradi?

-Belgini bildiradi.

-Qaysi so`roqqa javob bo`ladi?

-Qanday? qanaqa? so`roqlariga javobbo`ladi.

(O`quvchilar gaplarni ko`chirishadi. Narsaning belgisini bildirgan so`zlar tagiga chizishadi.)

Dam olish daqiqasi
Kulrang`ozlaruchdilar
Ko`lmakchagaqo`ndilar.
U yon-bu yon qarashib
Yana uchibketdilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. “O`zingnikini top” o`yini

-Hozir biz sizlarbilan “O`zingnikini top” o`yinini o`ynaymiz. Har bir qator a`zosi “nima?”, “nima qildi?”, “qanday?” savollaridan birini tanlaydilar. Men narsa, harakat, belgini bildirgan so`zlarni o`qiyman. Siz esa o`zingiz tanlagan savolga javob bo`ladigan so`zlarni yozasiz. (So`zlar: bino, o`qidi, katta, kitob, gulladi, qiziqarli, daraxt, yuvdi, gulli, sochiq, qurdi, ko`rkam)

-Shu so`zlar ishtirokida gaplar tuzing va belgini bildirgan so`zni aniqlang

-Shahrimizda juda ko`p katta binolar qurilyapti. (qanday bino?-katta)

-Alisher qiziqarli kitob o`qidi. (qanday kitob?-qiziqarli)


-Ko`chamizda ko`rkam daraxt gulladi. (qandaydaraxt?-ko`rkam)

-Nafisa gulli sochiqni yuvdi. (qandaysochiq?-gulli)

“Ingliz tili bilag`oni” mashqini o`tkazish.


-Bolalar, ingliz tilida ranglar nomlanishini qay darajada bilishingizni hozir sinab ko`ramiz.

(Har bir qatorga ingliz tilida ranglar nomi yozilgan qog`z hamda rangli doirachalar tarqatiladi. O`quvchilar doirachalarni kerakli joyga yopishtirishlari lozim bo`ladi. Bittadan o`quvchi doskada bajargan ishini taqdimot qiladi. Ranglarni inglizcha va o`zbekcha aytadi)





black


red




yellow




green




blue




grey



brown



pink



orange

“To`rtinchisi ortiqcha” o`yini.

(Topshiriq ekranda ko`rsatiladi. O`quvchilar so`zlarni o`qib ortiqchasini topadilar)

- Barakalla, to`g`ri. Lekin siz Vatanimizning yanada rivojlanishiga o`z hissangizni qo`shishingiz kerak. Buning uchun nima qilish kerak?
- Barcha fanlardan puxta bilim olib, barkamol avlod bo`lib yetishishimiz kerak.
- Shahrimiz ko`chalari, mahallalar, maktabimiz obod bo`lishiga o`z hissamizni qo`shishimiz lozim.
- Odobimiz, namunali xulqimiz bilan barchaga o`rnak bo`lishimiz kerak.
- Sport bilan shug`ullanib, davlatimiz bayrog`ini dunyo bo`ylab hilpiratishimiz lozim.
- Balli, bolajonlar. Yurtimizning gullab-yashnashi siz, yosh avlodning qo`lida. Siz Vatanimiz kelajagisiz. O`zbekistonning rivoji uchun har soat, har daqiqa o`z hissangizni qo`shing.

(Musiqali slayd “O`zbekiton”)

V. O`quvchilarni baholash

Darsda faol ishtirok etgan o`quvchilar rag`batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish

-Uyga vazifa 241-mashqni bajarish, qoidani yodlash (Mashqni bajarish sharti tushuntirib beriladi)

VI. Darsniyakunlash

- Bolajonlar bugungi darsimiz sizga yoqdimi?
- Nimalarni bilib oldingiz?
- Juday axshi, shu bilan darsimizni yakunlaymiz

“Ega va kesim” mavzusini o`tishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Bitiruv malakaviy ishimizning oxirgi faslida yangi pedagogik texnologiyalarining ta`lim jarayonidagi o`rni va ular asosida tuzilgan ishlanmalarimizni e`tiboringizga havola etamiz.

Mana shu yuqorida ko`rsatilgan maqsad, vazifa va talablar asosida boshlang`ich sinf ona tili darslarida gap bo`laklarini o`rganish mavzusiga doir innovatsion texnologiyalar ko`rinishida tuzgan ishlanmalarimizni keltiramiz va ulardan foydalanishga doir tavsiyalar berishga harakat qilamiz.

1-ishlanma. Mazkur ishlanma boshlang`ich ta`lim 4-sinf ona tili darsligining 112-mashqi asosida tuzildi. Mashqda berilgan topshiriq va uning mazmuni quyidagi ko`rinishga ega.

112-mashq. Matnni o`qing. Gaplarning kesimini toping.

Non

Nonushta uchun dasturxonga qand, asal, qaymoq qo'yildi. Lekin hamma dasturxon atrofida jimgina o'tiribdi. Chunki dasturxondagi narsalarni "harakatga" soladigan non ko'rinmaydi. Onam tandirdan so'lgildoq nonlarni uzdilar. Singlim savatdagi bug'i chiqib turgan nonlardan otamga uzatdi. Otam nonni sindirdilar. Hammamiz nonushta qilishga kirishdik. Shunda hech narsa nonning o'rnini bosolmasligini his qildik.

Ha, non – aziz ne'mat. (G'. Abdullayev)

Shu mashqning berilgan topshirig'i asosida o'quvchilar bilan ishlagandan so'ng undan yanada samarali foydalanishimiz mumkin. Buning uchun ularga quyidagi topshiriq beriladi.

	O'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materialiyuzasidan topshiriq	Topshiriqni bajarish yuzasidan ko'rsatma
O'FE-1	Maqsad: Nonning tayyorlanishi, uning texnologiyasi bilan tanishish 1.Non nimadan tayyorlanadi? 2.Un nimadan olinadi? 3. Qanday donli ekinlarni bilasiz?	Guruh a'zolari bilan birgalikda darslikdagi "Non" matnini o'qing.
O'FE-2	Maqsad: Non turlari va xillarini aniqlash 1.Nonning turlarini ayting. 2.Ularning farqlari nimadan iborat? 3.O'zbekistonning qaysi hududlarida yetishtiriladigan nonlar mashhur?	Guruhdagi o'quvchilar bilan hamkorlikda ishleng.
O'FE-3	Maqsad: Nonni e'zozlash va ahamiyatini aniqlash. 1. Nonni nima uchun e'zozlab, uni buyuk ne'mat deymiz? 2. Non haqidagi maqollardan ayting	Guruhdagi o'quvchilar bilan hamkorlikda ishleng

Hikmatli so'zlar.

Odamlar so'z uvolidan ham non uvolidan qo'rqqanchalik qo'rqqsalar olam guliston bo'lur edi.

Non ham non, ushog‘i ham non. Non – farovonlik keltiradi. Nonsiz hayot kechirib bo‘lmaydi. Uni uvol va isrof qilmaslik odobdandir.

Don ayagan donga yetar,

Non ayagan – nonga.

Nonni e‘zozlash.

Mashhur olim va podshoh Ulug‘bek Mirzo bir kun o‘z amaldorlari bilan safarga ketayotgan ekan. Ulug‘bekning nigohi yo‘l yoqasida yotgan non burdasiga tushadi va u darrov otdan tushib, nonni olib qo‘yniga soladi. Vazir: “Nega bizga buyurmay, o‘zingiz otdan tushdingiz?” – deb so‘raydi. Ulug‘bek: “Nonni dastlab men ko‘rdim, uni yerdan olishni birovga buyurish nonga nisbatan hurmatsizlik bo‘lardi”, - deb javob bergan ekan.

2-ishlanma.

125-mashqda berilgan topshiriq va uning mazmuni quyidagi ko‘rinishga ega. Har bir qatorda berilgan so‘zlardan gap tuzing.

Dalalarni, g‘ozapoyadan, tozaladilar, dehqonlar, haydadi, yerni, traktorda, traktorchi, qizg‘in, borayotir, ishlar, dalalarda.

Tuzgan gaplaringizni yozing. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni tegishlicha belgilang.

Bu ishlanmamizda qo‘shimcha “Havo shari” o‘yinidan foydalanamiz. Ya‘ni sinfdagi o‘quvchilarni 2 guruhga bo‘lamiz. Har bir guruh a‘zolariga chipta tariqasida kartochka beriladi. Kartochkalarga quyidagicha topshiriqlar yozilgan.

1-guruh. Kartochkadagi maktab, gulli, gul, qo‘lqop, kitob, so‘z, shkaf, xushbo‘y, mazali, soyabon, qalam, jurnal, go‘zal so‘zlari orasidan bosh bo‘laklarni ajrating.

2-guruh. Kartochkadagi sumka, mushuk, qizil, odobli, qalpoq, aqlli, gulsiz, keng, xona, yorug‘, oydin so‘zlari orasidan ikkinchi darajali bo‘laklarni ajrating.

O‘quvchilar xayolan osmonga ko‘tariladilar va pastga tushish uchun 1-guruh ikkinchi guruhni, 2-guruh 1-guruhga berilgan topshiriqni bajarishlari kerak. Qaysi guruh a‘zolari topshiriqni tez va to‘g‘ri bajarsa, o‘sha guruh g‘olib hisoblanadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarni topqirlikka, chaqqonlikka va bir-biriga o‘zaro yordam berishga chorlaydi.

Shu o‘rinda quyidagi maqollarni keltirishimiz mumkin.

Yakka otning changi chiqmas, changi chiqsa ham do‘ng‘i chiqmas.

Birlashgan – o‘zar

Birlashmagan – to‘zar.

Ayрилganni ayiq yer,

Bo‘linganni bo‘ri yer.

Oltovlon ola bo‘lsa og‘zidagin oldirar.

To‘tovlon tugal bo‘lsa uzoqdagin undirar.

3-ishlanma.

3-sinf 25-mashqqa berilgan topshiriq va uning mazmuni quyidagi ko‘rinishga ega.

25-mashq. O‘qing. Matndagi gaplar qanday mazmun bildiriyapti? So‘roqlar yordamida gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini aniqlang.

Gullar kechasi uxlaydimi?

Gullar kun bo‘yi quyoshning nurlaridan oziqlanadi. Gullar kechasi ko‘zlarini yummaydi. Gullar quyoshsiz o‘smaydi. Ular ham tunda ishlamaydi. Aytingchi, gullar tunda uxlaydimi yoki yo‘qmi?


(“Mo‘jiza kitobi” dan)

Matnni ko‘chiring. Gaplardagi ikkinchi darajali bo‘laklarni tushirib, matnni qayta o‘qing. Gapning mazmunida qanday o‘zgarish yuz berdi? Qaysi gapda mazmun to‘liq ifodalangan? Ajratilgan so‘zlar qanday ma’noda qo‘llangan?


Bu ishlanmamiz bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar mavzusini takrorlash va reyting orqali bilimlar darajasini aniqlashga mo‘ljallangan. Yanada samarali natijaga erishish uchun sinf o‘quvchilari 7-8 nafardan guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga topshiriq beriladi. Buning uchun o‘quvchilar matndagi gaplarni chizma asosida izohlab berishlari kerak.

1-gap. Gullar kun bo‘yi quyoshning nurlaridan oziqlanadi.


1-chizma



2-chizma



3-chizma.



Chizmalarni izohlaydigan bo'lsak: 1-chizmada faqat bosh bo'laklar berilgan (gullar, oziqlanadi). 2-chizmada bosh bo'laklarni izohlash maqsadida ikkinchi darajali bo'lak to'ldiruvchi qo'shildi. Bu bo'lak gapda manbaa hisoblanadi. Ya'ni nimadan oziqlanishi ifodalangan.

3-chizmada gapning mazmunini yanada to'ldirish va uning vaqtini ifodalash maqsadida ikkinchi darajali bo'lak hol qo'shildi. 3-chizmada gapning umumiy ko'rinishi ifodalandi.

2-gap. Gullar kechasi

1-chizma.

Bosh bo'lak
Gullar



Bosh bo'lak
yummaydi

2-chizma.

Bosh bo'lak
Gullar




Ikkinchi darajali
bo'lak





Bosh bo'lak
yummaydi

3-chizma.



Bunda ham 1-chizma bosh bo'laklar: ega va kesimdan iborat. 2-chizmada bosh bo'laklarni izohlash, to'ldirish maqsadida ikkinchi darajali bo'lak: to'ldiruvchi ishtirok etgan. 3-chizmada gapning vaqtini izohlash maqsadida hol ishtirok etgan. 3-gap. Gullar quyoshsiz o'smaydi.


1-chizma.2-chizma.




2-chizmada ikkinchi darajali bo'lak (quyoshsiz) gapning manbaasini ifodalagan.

4-gap.Ular tunda ishlamaydi.

1-chizma.



2-chizma.




2-chizmada ikkinchi darajali bo'lak hol harakatning vaqtini bildiriyapti.

Bu matn orqali o'quvchilar tabiatni asrab-avaylashni, gullarni sevishni o'rganadilar.Gullar insonlarga estetik zavq bag'ishlaydi, insonlarning bahri dilini ochadi.

E'tiboringizga havola qilingan ishlanmalarimiz sonini yanada ko'paytirish mumkin. Ammo maqsadimiz ishlanmalarning hajm va sonida emas, balki ularning tuzilish tartibidan soddaroq qilib aytganda, mavzuni o'rganishga doir namunalardir. Ishlanmalarimiz yakunida shuni ta'kidlashimiz kerakki, ularning barchasi bitiruv malakaviy ishimiz mavzuiga ya'ni gapning ikkinchi darajali bo'laklarini o'rganishga bag'ishlanadi. Keltirilgan ishlanmalarimiz darsning muhim elementlaridan (qismlaridan) biri bo'lgan mustahkamlash mashqlar ustida ishlashga bag'ishlangan.

Ishlanmalarimizning modul texnologiyalari asosida tuzilganligi quyidagi tasvirdan yaqqol ko‘rinib turibdi.



To‘rtala ishlanmalarimiz ham pedagogik amaliyot jarayonida sinovdan o‘tgan va kamchiliklari bartaraf etilgan.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH VA ULARDA DTS TALABLARI

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan ona tili o‘qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o‘qish va nutq o‘stirish bo‘limida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar mazmuniga; o‘quvchilarni to‘g‘ri, ravon, ma‘lum darajadagi tezlik bilan ifodali o‘qishga o‘rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g‘oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

O‘qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog‘lab o‘tishi uning ta‘sirchanligi ongli idrok etishlarini ta‘minlaydi. O‘qish va nutq o‘stirishning ta‘limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo‘yicha o‘qish mazmunini o‘qish ko‘nikmalarining og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish

usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflardagi o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi o'qish darslariga jiddiy e'tibor talab qilinadi. O'qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o'qituvchi asosan quyidagilarga e'tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo'ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qo'li harakatda, xayoli o'yinda bo'ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglay olmaydilar. Shu tufayli bu sinflarda ta'lim-tarbiya vazifalari, asosan o'yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o'qish orqali amalga oshiriladi.

Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha, faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas uyg'otadi.

O'qish darslarida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning, asosan ikki yo'li bor:

1. Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish;
2. O'qish darslari materiallariga berilgan soatlarni qisqartirish hisobiga maxsus ifodali o'qish dasturlari tashkil etish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. To'g'ri o'qish. Birinchi sinfda jiddiy ahamiyat berish talab qilinadi. Har bir so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, eshitarli, talaffuz etilishiga erishish lozim.

2. Ongli o'qish. O'quvchi har bir gap, gapdagi so'z, so'zdagi bo'ginlarni o'qish jarayonida uning ma'nosini tushunib o'qishi kerak.

3. Tez va ravon o'qish. Sekin yoki juda tez o'qish emas, balki gapirganday, o'rtacha tezlik sur'atiga amal qilinib, ham to'g'ri, ham ongli, ham sidirg'asiga ravon o'qishni ta'minlash zarur. Agar o'quvchi, labi labiga tegmay, haddan tashqari tez yoki aksincha

sekin, tutilib o'qisa ko'r - ko'rona, ma'nosiga tushunmay qolishi mumkin.

O'rtacha tezlikda o'qishga o'quvchi harf tovushlarni o'rganayotgan vaqtdan boshlab asos yaratiladi. Biroq dastlabki o'rinda to'g'ri va ongli o'qish jarayonidagi o'rtacha tezlik darajasiga erishiladi.

To'g'ri o'qishga o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. So'zlarni bo'g'inlarga bo'lib o'qish. Masalan: "Fazliddin" Faz-lid-din, ro'z-no-ma. Shuningdek, buzib o'qigan ayrim so'zlarni to'g'ri o'qiy olmasa uni bo'g'in tovushlarga bo'lib o'qigan ayrim so'zlarni ovoz chiqarib takror o'qish. Tez aytish ham ancha foydali usullardan hisoblanadi. Ongli o'qishga o'rgatish uchun notanish so'zlarga izoh berish, matn yuzasidan berilgan savol topshiriqlarni o'rgatish matn yuzasidan savollar tuzish, reja asosida matn mazmunini qisqartirib, kengaytirib so'zlash kabi usullar ham muhim yordam beradi.

Ravon o'qishda matndagi tinish belgilariga amal qilinishi lozim. Ifodali o'qishga o'rgatishning eng muhim usullaridan biri o'qituvchining namunali ifodali o'qishidir. Buning uchun o'qituvchi o'qitishning pauza, urg'u, ohangi, sur'at kabi texnik-nazariy vositalari haqida yetarli bilim mahoratga ega bo'lishi, og'zaki nutq madaniyatini puxta egallashi lozim.

Ifodali o'qish turlari quyidagilar:

1. Yakka o'qish.

2. Rollarga bo'lib o'qish.

3. Jo'r bo'lib o'qish.

1. Yakka o'qishning yuqori bosqichi baralla o'qishdir.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a....

Kun-tuningga aylagali nur fosh,
Birsin oy angla, birisin quyosh.

(A. Navoiydan)

2. Rollarga bo'lib o'qish.

"Qish" X. Eshonqulov.

1-o'quvchi: Hovlida zag'cha,
Qanot qoqadi.

2-o'quvchi: Oppoq kiyimda,
O'rmonu tog', yer.

Hamma o'quvchi: Dag', dag', dag'....

Rollarga bo'lib o'qish uchun "Bo'g'irsoq" ertagini ham o'qisak bo'ladi.

3. Jo'r bo'lib o'qishning ahamiyati katta. Bunda o'quvchilar bir xil sur'at va ohang bilan o'qishni o'rganadilar.

O'qish mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilar nutq faoliyatining asosiy ko'rinishi bo'lgan ko'nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

1-sinfda o'quvchilar matnni ongli, to'g'ri va bo'g'inlab sidirg'a o'qishni o'rganadilar o'qish darslaridagina emas, balki barcha predmetlar yuzasidan o'tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari uyushtiriladigan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berishi zarur. Bolalar o'qilgan asarlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishga o'rganadilar. Matn ustida ishlash o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

2-sinfda o'quvchilarga so'zlarni butunligicha sidirg'asiga o'qish malakasi shakllanadi. O'qishning to'g'ri ifodali bo'lishiga erishiladi. O'qish sur'ati tezlashadi. Bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichida mustaqil o'qishga o'tadilar. Matn ustida ishlash murakkablashib boradi. Bolalar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning hatti xarakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyligiga talab ortadi.

3-sinfda so'zlarni butunicha sidirg'a o'qish ko'nikmasi to'la shakllanadi. So'zlarni to'g'ri tanlashga, gap qurilishidagi so'zlarning bir-biriga bog'lanishidan to'g'ri foydalanishga talab etiladi.

4-sinfda o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlamay sidirg'a o'qishlari, matnni tez, to'g'ri, ongli o'qiy olishlari kerak. Bu sinfda o'quvchilarni bo'g'inlab o'qishga yo'l qo'ymaslik kerak.

Bolalar o'qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuza olishlari, uning asosiy mazmunini ajrata olishlari, o'qilgan matnni to'la, qisqartirib tanlab qayta hikoya qilishlari zarur.

Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida bolalarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. O'quvchilar nutqining faollashuvi nutqning grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash va to'g'ri talaffuz etish bolalar nutqining ravon ifodali bo'lishiga yordam beradi. Ifodali o'qishga o'rgatishda:

- a) nafasdan to'g'ri foydalana olish;
- b) adabiy til talaffuz normalarini yaxshi bilish;
- d) so'z bo'g'in va tovushni to'g'ri aniq talaffuz etish.

O'qish vaqtida badiiy asar namunasida ifoda etilgan his tuyg'uni, yozuvchi yoki qahramonning ichki kechinmalarini asarning mazmunini yecha olishga erishish. O'qishdagi normal tezlik o'qilganning ma'nosini to'liq anglab olishga yordam beradi. Normal tezlikda o'qish orqali bola gapdagi asosiy mazmunni anglaydi. Aksincha, ortiq darajada o'qish orqali mazmunini tushunishga to'sqinlik qiladi. O'qish tezligini rivojlantiruvchi asosiy shartlardan biri to'g'ri o'qishdir. O'qish tezligini oshirish uchun bola ravon o'qiydigan bo'lishi kerak. 1-sinfda o'quvchilar o'qish tezligi davlat talablariga nisbatan 25-30 so'zdan iborat bo'lishi kerak. 2-sinfda esa 40-50 so'z, 3-sinfda 60-70, 4-sinfda 80-90 so'zdan iborat bo'lishi kerak. O'qish tezligi o'qilayotganning ma'nosini tushunish va qabul qilishga bog'liq. Juda sekin o'qish ham ongli bo'lishga halaqit beradi. O'qituvchining o'qish tezligi yuzasidan ko'rsatilgan namunasi uning normal holatda so'zlashish tempiga teng kelishi kerak. O'quvchilarni ham shunday o'qishga o'rgatish lozim. O'qish tezligini normallashtirishda quyidagi usullardan foydalanish lozim.

1. Normal tezlikda o'qish namunasini ko'rsatish.

2. Ichida o'qish yuzaki bo'lmasligi uchun topshiriqlar berish yo'li bilan tekshirish.

Ovoz chiqarib o'qishda o'qilganning mazmuni yuzasidan savollarga javob olish. Bunda ba'zi o'quvchilarning tekst mazmuniga qaramay tez o'qishlariga chek qo'yiladi.

Ular o'qiganning mazmunini aytib berishga to'g'ri kelishini o'ylab o'qiydigan bo'ladilar.

Dialogdan o'qitish. Bunda bir o'quvchi savolni o'qisa ikkinchi javobni o'qiydi.

She'r yodlash. Bolalar she'rni o'rta tezlikda o'qishlari kerak. Aks holda ularning o'qishlari ifodali bo'lmay qoladi.

O'qish tezligi muhit hisobiga o'lchanganda so'z yoki harf sanaladi.

Matn qismlarini navbat bilan o'qitish. Bunda o'qish tezligi past bolalar tez o'qiydiganlarga tenglashgisi keladi. Yoki aksincha.

Boshlang'ich sinfni tugatgan o'quvchilarning o'qish ko'nikmalari quyidagicha bo'lsa davlat talabiga xos bilimga ega bo'ladilar:

-adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ongli to'g'ri ongli va o'rtacha tezlikda (ovoz chiqarib) bir daqiqada 90-100, ifodali va ichdan 110-130 so'z o'qisalar;

-sinfda o'tilgan asar yoki asardan parchani mustaqil tarzda ifodali o'qish, o'sha asar yoki parcha qanday mavzuga bag'ishlanganini aniqlash, unda ishtirok etuvchi qahramonlarga munosabat bildirish;

-qahramonlarning fe'l atvori, xatti harakatlariga qarab ovoz ohangini o'zgartirish, matndagi urg'u tushadigan so'zlarni aniqlash, pauza qilinadigan o'rinlarni ajratish.

“Ta’lim to’g’risida” gi Qonun, ‘Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi’ da ta’lim berishning yangi usullarni izlab topish va uni tadbiq qilish borasida ko’p aytilgan. Shu nuqtai nazardan boshlang’ich sinflarda ham dars o’tish jarayonini takomillashtirish uchun izlanishlar olib bormoqdamiz. Shu bois o’qish darsida ayrim mavzular quyidagi usulda bayon qilinsa, bu mavzu materiallari o’quvchilar tomonidan osonlikcha o’zlashtirib olinadi.

Darsning maqsadi: O'tmishda yashab o'tgan vatandoshimiz shoh Mirzo Bobur shaxsi bilan tanishtirish, uning hayoti haqida ma'lumot betish. O'quvchilarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ular nutqini o'stirish va o'qish malakasini oshirish.

Darsning turi: O'tilganlarni mustahkamlash.

Darsning uslubi: Suhbat.

Darsning jihozi: Mirzo Bobur portreti va tarqatma material.

Darsning borishi: Dars O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi bilan boshlanadi.

O'tilgan mavzuni so'rab, bolalar bilimi aniqlanadi, quyidagi savollar beriladi:

a) biz o'tgan darsda qanday mavzudagi asarlarni o'rgangan edik?

b) Alisher Navoiy Jaloliddin Munshiyga qanday topshiriq bergan edi?

d) Said Ruhillo nima uchun xursand bo'ldi?

Tanlab o'qitish:

a) Mirak naqqosh navkariga yalinib-yolvorgan qismigacha o'qing.

b) Mirak naqqosh Ulug' amirning shartini qabul qilgan qismigacha o'qing. Lug'at ustida ishlash:

Munshiy jome masjid, tilxat, falakning gardishi, boshni tanadan judo qilish kabi so'z va iboralar.

Yangi mavzuning bayoni: Asarni o'qishga tayyorgarlik. O'qituvchining hikoyasi.

Shoh va shoir Mirzo Bobur temuriylar avlodidan edi. U taqdir taqazosi bilan Hindistonga borib, u yerda katta davlat tuzdi.

Shu yurtni obod qilishga o'z hissasini qo'shdi. Bobur nafaqat shoh, balki shoir, tarixchi, biolog, musiqachi va me'mor ham bo'lgan.

Uni dovyurak, jasur va epcil bo'lgani uchun "Bobur", ya'ni "Yo'lbars" deb ataganlar. Bobur Hindistonda yashar ekan, o'z yurtini. Andijon-u Farg'onaning so'lim bog'larini, shirin-shakar mevalarini qo'msaydi.

Shuning uchun u Hindistonda go'zal bir bog' yaratadi. Bu bog'da shirin-shakar mevalar yetishtiriladi, polizda esa piyoz, sabzi, bodring, tarvuz bitadi, ammo handalak bilan qovun bo'lmaydi.

Shoh ketma-ket 3 yil qovun ektiradi, biroq dehqonlar yerdan qovun olisha olmaydilar.

Shoh Bobur bu yil ham qovun ekib pishirmasalarini, hammangizni jazolayman deb g'azablanadi.

Hozir yangi mavzuni o'qib o'rganamiz.

- a) Bobur yaratgan bog'da qovun yetkaza olindimi yo'qmi?
- b) Dehqonlar shohning g'azabiga duchor bo'lishdimi yoki yo'qmi? Degan savolga javob topamiz?

Asarni o'qish.

O'qituvchi asarni ifodali qilib o'qib beradi.

Asar yuzasidan dastlabki suhbat:

- a) Asarda kim haqida hikoya qilinadi?
- b) Shoh Bobur qovunning o'z yurtida yetishtirilganini qayerdan bildi?
- c) Bobur bog'bonni nima uchun bosh-oyoq sarpo bilan mukofotlaydi?

Yangi mavzuni mustahkamlash:

O'quvchilarga asar qismlarga bo'lib o'qitiladi. Bolalar Bobur yaratgan bog'ida nimalar yetishtirilganiga, nimani yetishtirishning iloji bo'lmaganiga, shoh dehqonlardan nimani talab qilganligi, dehqonlar shohning talabini qondirish uchun qanday hiyla o'ylab topishgani va Bobur buni nimalarga asoslanib bilib qolganiga e'tiborni qaratish vazifasi topshiriladi. So'ngra hikoya qismlariga sarlavhalar qo'yiladi.

- a) "Bog'i Boburiy" bog'i barpo etildi.
- b) Bog'bonlarning qiyin ahvoli.

c) Boburning ko'ngli buzildi.

d) Bobur bog'bonga rahmatlar aytdi.

Reja asosida tanlab o'qish va qayta hikoyalash:

Xat taxtada reja yozilgan bo'ladi, yaxshi o'qiydigan o'quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoyalaniadi.

To'liq qayta hikoyalash:

Bir o'quvchi qism sarlavhalari yordamida qayta hikoyalab beradi.

Shundan so'ng asar ichida o'qitiladi:

O'qiganda notanish so'zlarni belgilab ketish topshiriladi.

Masalan: chekkasi rezavor, tilimlamoqchi, tilni yorar kabi so'z va iboralar.

O'quvchilarga asar mazmuni yuzasidan savollar tuzib kelish vazifa qilib qo'yiladi.

Hikoyaning tahlilidan so'ng o'quvchilarning Bobur haqidagi fikrlari so'raladi.

Darsni yakunlash:

Bolalar, siz bu hikoya orqali kimning hayotidagi voqea bilan tanishdingiz?

Boburning hind yerida qovun yetishtirishni talab qilishdan asosiy maqsadi nima edi?

Bu hikoyada asosiy g'oya nimadan iborat deb o'ylaysiz?

O'qituvchi darsda ishtirok etgan o'quvchilarning bilimi qanchalik mustahkam bo'lishiga erishilsa yuqori sinflardagi materialni o'zlashtirish oson kechadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu borada samaraliroq ishlashiga umid bog'laymiz.

T E S T L A R.

1. 2-sinfda o'qish mavzulari qaysi bo'lim bilan boshlanadi?

- a) "Maktabim-qutlug' makonim" bo'limi bilan
- b) "Ertaklar yaxshilikka yetaklar" bo'limi bilan
- d) "Ona yurtim-oltin beshigim" bo'limi bilan
- e) "Kitobim oftobim" bo'limi bilan
- j) "Vatanim - O'zbekiston" bo'limi bilan

2. 3-sinfda necha so'zli matn asosida bayon yozish talab etiladi?

- a) 60-65 so'zli
- b) 70-75 so'zli
- d) 55-60 so'zli
- e) 65-70 so'zli
- j) 60-70 so'zli

3. DTS da matn mazmunini va o'zgaralar fikrini anglash malakasi bo'yicha miqdoriy ko'rsatkichni aniqlang.

- a) 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish
- b) 5 daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish
- d) 5-10 daqiqada 5-6 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish
- e) 5-7 daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish
- j) 10 daqiqada 5-7 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish

4. Ichda o'qishning afzalligi nimada?

- a) Matn tez tushuniladi, bir vaqtning o'zida butun sinf o'qiydi
- b) Matn ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari takomillashadi, o'qituvchi har bir o'quvchining mustaqil o'zlashtirish darajasini aniqlaydi
- d) Bola estetik zavq oladi, ongli o'qiydi
- e) O'qituvchi o'quvchilarning o'quv ko'nikmalarini aniqlaydi
- j) Mustaqil o'qish ko'nikmalari hosil qilinadi

5. Boshlang'ich sinfda o'qishning qaysi turidan foydalaniladi?

- a) Izohli o'qish
- b) Badiiy o'qish
- d) Abadiy o'qish
- e) Abadiy va badiiy o'qish
- j) Ifodali o'qishdan

6. 2-singda o'qishga necha soat va sinfdan tashqari o'qishga necha soat ajratiladi?

- a) O'qishga 120 soat, sinfdan tashqari o'qishga 22 soat
- b) O'qishga 130 soat, sinfdan tashqari o'qishga 25 soat
- d) O'qishga 125 soat, sinfdan tashqari o'qishga 24 soat
- e) O'qishga 135 soat, sinfdan tashqari o'qishga 20 soat
- j) O'qishga 150 soat, sinfdan tashqari o'qishga 66 soat

Dars: O'qish.

Mavzu: "Ibn Sino bobo-ulashar davo".

Maqsad: 1. Buyuk ajdodlarimiz haqidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. Sog'lom turmush tarzi haqida tushuncha berish.

3. Ifodali o'qish va og'zaki nutq malakalarini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat.

Dars jihozi: mavzuga oid rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi.

1. Tashkiliy qism.

- Bolalar, hozir qaysi dars?

- Hozir o`lkamizda qaysi fasl?

- Qishda tabiat qanday ko`rinishda bo`ladi?

- Har bir narsaning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo`lganidek, kumush qish faslining ham yaxshi va yomon tomonlari mavjud.

Hozir qiz bolalar qish faslining ijobiy tomonlarini, o`g`il bolalar salbiy tomonlarini 5 daqiqa ichida mana shu qog`ozlarga yozib berishlari kerak.

Qish fasli

Ijobiy tomoni

salbiy tomoni

QISH

IJOBIY TOMONI

1. Qor bo`ron o`ynaymiz.
2. Archa bayrami bo`ladi.
3. Chana uchamiz.
4. Qor bobo keladi.
5. Konki uchamiz.
6. Yaxmalak uchamiz.
7. Yangi yilni kutamiz.

QISH

SALBIY TOMONI

1. Qo`lqotishi.
2. Toyilib tushish.
3. Shamollash.
4. Gripp.
5. Yo`tal.
6. Burun oqishi.
7. Izg`irin shamol.

Bitta qiz va bitta o`g`il bola doskaga chiqib, yozganlariga izoh berishadi.

-Qish faslining salbiy tomonlarini yengish uchun jismoniy baquvvat bo`lishimiz kerak. Jismoniy baquvvat bo`lish uchun nima qilish kerak? (Sport bilan shug`ullanish kerak).

- Qanday sport turlarini bilasiz?
- Qaysi sport to`garaklariga qatnaysiz?
- O`zbek milliy sporti qaysi?
- Kurash haqida nimalar bilasiz?


2. Uyga vazifani so`rash.

-Bolalar o`tgan darsimizda “Kurashchi bola” she`rini o`tgan edik, she`rni yod olib kelish uyga vazifa qilib berilgan edi. (she`rni o`quvchilarga yod aytirish).


3. Uyga vazifani mustahkamlash.

-“Sog`lom bo`lish uchun sport bilan shug`ullanishdan tashqari yana nima qilish kerak?” degan savolga javob berishni qatorlararo musobaqa tarzida o`tkazamiz. Uch daqiqa ichida yozib, qator boshlig`i sharxlab berishi kerak.

Sog`lom bola



(g`olib qator aniqlanadi).



4. Yangi mavzu bayoni.

- Bolalar, sizlarning yozgan fikrlaringiz judayam to`g`ri, bugungi mavzumizdan keyin sizlarning fikrlaringiz yana ham kengayadi.

Bolalar, bugun sizlar bilan P.Mo`minning “Ibn Sino bobo-ulashar davo” o`g`itlari bilan tanishamiz.

Po`lat Mo`min o`zbek bolalar she`riyatining eng ko`zga ko`ringan vakillaridan biri hisoblanadi.

- Qani bolalar, ibn Sino kim bo`lganlar?

Abu Ali Ibn Sino 980 yil Buxoro viloyatining Afshona qishlog`ida tug`ilgan. U 18 yoshida yetuk olim bo`lib yetishdi. Ibn Sino yozgan asarlar soni 450 dan ortiq. Lekin ularning bizgacha 240 ga yaqiniga yetib kelgan.

Uning “Tib qonunlari” asari hozirgacha shifokorlarning asosiy qo`llanmasi hisoblanadi. Medisina so`zi ham Ibn Sinoning nomidan olingan. U yevropada Avitsena nomi bilan mashhur.

Bizning yurtimizda bunday butun dunyoga mashhur insonlar ko`p o`tgan. Biz ular bilan qancha faxrlansak shuncha oz.

- Bolalar, hozir "Buyuk siymolar" mavzusida "Doktor Xotira" o`yin-musobaqasini o`tkazamiz. (g`olib qator aniqlanadi).

Yangi mavzuni o`quvchilarga o`qittirish. O`qigan joylarining mazmunini gapirtirish.

Maqollar musobaqasi.

Sharti: aytiladigan maqollar faqat sog`liqqa doir bo`lishi shart.

Test sinovi

1. Bu yilning nomi?

- a) Sihat – salomatlik yili.
- b) Mehr – muruvvat yili.
- c) Yo`lbars yili.

2. "Tib qonunlari" asarining muallifi kim?

- a) Ibn Sino
- b) A.Navoiy
- c) Bobur

3. Maqolni davomini toping: Sog` yuray desang....

- a) ozoda bo`l
- b) kir bo`l
- c) iflos bo`l

4. Sog`lom bo`lish uchun nimalarni ko`proq iste`mol qilish kerak?

- a) mevalarni
 - b) sabzavotlarni
 - c) meva va sabzavotlarni
5. Ko`p dardga davo nima?

- a)kulish
- b)uxlash
- c)shamollash

- Bolalar, sizlarga vazifa sifatida Ibn Sino bobomizning ba`zi kasalliklar to`g`risidagi fikrlarini yod olishni topshirgan edim. Topshiriq bajarildimi?

Yo`tal

Sutga anjirni solib,

Qaynatib ichgan zamon,

Kim yo`tal bo`lsa, yo`taldan

Qolmagay zarra nishon.

Sovuq urishga tadbir

Qaysi a`zoni sovuq ursa, agar qilmay navo,
Sirka-yu kashnich suvini surkasin, shuldir davo.

Yo`tal

Har kishi zahmat chekar bo`lsa, yo`taldan kunu-tun,
Ot sutin ichsin, tuzalgay, sog`lig`i bo`lgay butun.

Buyrak

Gar yesang pishgan sarimsoq buyragingni pok qilur,
Buyraging nobop bo`lsa, xomin yema, halok qilar.

- Judayam yaxshi. Davlat Konstitutsiyamizda ham sog`lig`imizni saqlashga doir moddalar mavjud.

40-modda: Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

5. Darsni mustahkamlash.

- Sog`lom bo`lish yuqori baholarga o`qishingizga garov bo`ladi. Shu sababli ham Prezidentimiz I.A.Karimov 2005 yilni. "Sihat – salomatlik yili" deb nomladi.

- Bolalar, siz bugungi darsimizdan qanday xulosa chiqardingiz?

Sog` badanda – sog` aql,
Deydi bizning bobolar
Bu so`z to`g`ri, bu so`zga
Amal qiling, bolalar.
Bu hikmatli maqolga
Men ham amal qilaman
Ozoda bo`lish ishim
Vazifam deb bilaman
A`zoyi badanimni
Xo`p yaxshilab yuvaman
Tirnog`imni, tishimni
Doim toza tutaman

Shifokorning so`ziga
Har choq quloq solaman
Vaqtida yeb ovqatni
Vaqtida dam olaman
Men hech vaqt partada

Qiyshayib o`tirmayman
Kir-chir bolalarni hech
Yonimga keltirmayman.
Shuning uchun har mahal
Ruhim yengil, ko`nglim shod.
Shuning uchun do`stlar men
Dard ko`rmayman umrbod.

6. Darsni yakunlash.

- Aziz bolajonlar, sizlarning javoblaringizdan ko`nglim to`ldi. Har doim shu qoidalarga amal qilib yursangizlar, kasal bo`lmasdan, uzoq umr ko`rishlaringiz mumkin.

Shu bilan bugungi “Sihat-salomatlik” yiliga bag`ishlab o`tkazilgan darsimiz tugadi.

7. O`quvchilarni baholash.

8. Uyga vazifa berish.

NOAN’ANAVIY DARSLAR VA AXLOQIY TA’LIMiy TADBIRLARDA XALQ MAQOLLARIDAN FOYDALANISH

Yoshlarimizda axloqiy tarbiyani shakllantirishda faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo`lib kelgan milliy mafkuramizga murojaat qilishimiz mumkin. Shuningdek, axloqiy tarbiyaning rivojlanishida maqollarning o`rni beqiyosdir. O`zbek xalq maqollari kishilarni odoblilik-xushxulqlikka, xushxulqlilik-yuksak axloqiylikka yetaklaydi. Agar axloqiy tarbiya bo`lmasa, buning aksi bo`ladi, ya`ni odobsizlikdan badxulqlikka, badxulqlikdan axloqsizlikka o`tish mumkin. Shuning uchun ham yoshlarimiz milliy mafkurasini shakllantirishda, ularning axloqiy tarbiyasini shakllantirishda, axloqiy madaniyatini o`stirishda o`zbek xalq maqollarining roli juda katta. “Yaxshi xulq-kishining husni” deb bejizga aytishmagan. Insonning tashqi qiyofasi emas, balki uning ichki dunyosi, qalbi, xulqi go`zal bo`lishi lozim.

“Ta’lim to`g`risida” gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” kabi hujjatlarda ko`rsatilgan yo`l-yo`riqlar yosh avlodni har tomonlama barkamol, ma’naviyatli, hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlariga ega qilib, tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boshlang`ich sinflarda maqol mavzusini o`tish jarayonida ramziy obrazlarni izohlashning yana bir usuli o`qituvchining mahorati, ijodkorligiga daxldor. Darslikning to`rtinchi bo`limi “Ilm aql chirog`i”

deb nomlanadi. Ushbu hikmatli soʻz ostidagi boʻlim matnlari mohiyatan ilm olishga havas ruhi bilan ajralib turadi. Maktab, kitob, bilim, kopyuter haqidagi matnlar oʻquvchini ilm-fanga havasini yanada oshishiga xizmat qiladi. Mazkur boʻlim tugagach, takrorlash darsida quyidagi dars ishlanmasini misol tariqasida tavsiya etish mumkin.

Darsning maqsadi: Oʻquvchilarda bilim olishga qiziqish uygʻotish, kitobni asrab-avaylashga oʻrgatish, boʻlim yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash.

Dars tipi: Mustahkamlash darsi.

Dars metodi: Savol-javob, hikoya.

Dars jihozi: Darslik, turli xildagi kitoblar, videoapparatura.

Darsning borishi: Darsning tashkiliy qismi oʻtkaziladi. Oʻqituvchi mavzuni eʼlon qiladi. Shu sinfga “Bilagʻon” “Bilmasvoy”ning qoʻlidan tortib kirib keladi. “Bilagʻon” toza va ozoda kiyingan. “Bilmasvoy” tartibsiz kiyingan, qoʻlida yirtilgan, ezilgan kitob. U “Bilagʻon”ning qoʻlidan chiqmoqchi boʻlib, shovqin soladi.

Oʻqituvchi: Nima gap? Tinchlikmi? Sizlar kimsizlar?

Bilagʻon: Men Bilagʻonman.

Bilmasvoy: Men Bilmasvoyman.

Oʻqituvchi: Nima uchun urushyapsizlar?

Bilmasvoy: Men maktabga bormoqchi emasman. Mana bu esa meni sudrab olib kelayapti.

Bilagʻon: Axir, maktab bilim maskani. Bilmasvoyning oʻzlashtirishi juda past. Yana dars qoldirsa, oʻqishni oʻrgana olmay qoladi-ku.

Oʻqituvchi: Juda toʻgʻri, oʻquvchi hech qachon sababsiz dars qoldirmasligi kerak. Maktab bu oftob demakdir. Xuddi shu boʻlimda biz maktab haqidagi sheʼrni oʻrgangan edik. Kelinglar, shu sheʼrni yodga olamiz.

Oʻquvchilardan biri “Maktab – oftob qoʻshigʻi” sheʼrini ifodali oʻqiydi yoki uni ashula qilib joʻr boʻlib kuylashsa, yanada yaxshi boʻladi.

Bilagʻon: bu sheʼr bilan biz ham oʻqish darsida tanishganmiz, toʻgʻrimi, Bilmasvoy?

Bilmasvoy: Men bu sheʼrni oʻqimaganman. Chunki kitobimning shu varagʻi yirtilib, tushib qolgan.

Shu orada oʻqituvchi kitob haqida maktab haqidagi matnlar ishtirokida test topshiriqlarini berishi mumkin. Sheʼr mualliflari

so'ralishi mumkin. Shuningdek, kitob, bilim haqida topishmoq aytish o'yini o'tkaziladi. O'yinga Bilag'on va Bilmasvoy ham qatnashadi.

O'qituvchi: Kitob o'quvchilarning chuqur bilim egallashlariga yordam beradi. Yusuf Xos Hojib bilimni nimaga o'xshatadi?

Javob: Qorong'u tundagi mash'alga, taralayotgan nurga.

Bilmasvoy: Endi men ham kitobni asrab-avaylayman.

O'qituvchi: Kitob bizga bilim olishga, aqlimizni charxlashga yordam beradi.

Darslikdagi boshqotirma va rebus yechiladi (Bu yuqorida zikr etildi. M.Sh.)

O'qituvchi bo'limdagi boshqa matnlarni ham shu tariqa, takrorlagach, "Kim ko'p biladi?" didaktik o'yinini o'tkazadi.

- Kim kitob haqida maqol, hikmatli so'zlarni biladi? Eng ko'p aytgan o'quvchi g'olib sanaladi.

O'qituvchi: Kitobni ko'p o'qigan o'quvchilar har qanday yaxshi niyatlariga yetadilar. O'quvchilardan biri Anvar Obidjonning "Yaxshi niyat" she'rini aytib beradi.

O'qituvchi darslikdagi savol-topshiriqlar asosida darsni xulosalaydi, o'quvchilar reytingini e'lon qiladi.

Ko'rinadiki, noan'anaviy dars o'tishda xalq maqollaridan unumli foydalanish mumkin. Xususan, kitob, bilim olish haqidagi maqollar endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan birinchi sinf o'quvchilarini bilimga, kitobga, maktabga havas uyg'otishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, birinchi sinf "O'qish kitobi"dagi maqollar, she'rlar va matnlar tarkibida, rebus hamda boshqotirma tarzida, nihoyat, "Maqollar" izohi ostida berib borilgan. Maqollar, yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir mavzu so'nggida keltirilgan. Ular rang-barang mavzuda. Bevosita ilm-fanni targ'ib etuvchi, ilmga havas uyg'otuvchi maqollar ham alohida turkumni tashkil qiladi. Chunonchi, "Bilgan o'qir, bilmagan to'qir", "Avval o'rgan, keyin o'rgat", "Aqlning qayrog'i bilim", "Ilm olsang dunyoda, aqling bo'lar ziyoda" kabilar shu ma'noda e'tirofli. Bularning so'nggisi, kompyuter matnining hissasida berilgan. Demak, bevosita matn, rivoyatlarning qissadan hissasi maqollar orqali berilishi ham xalq maqollarining yana bir uslubiy ifodasidir.

Bundan tashqari, mustaqil o'qish uchun ajratilgan mavzular ichida maqollar ham berilgan bo'lib, unga birinchi sinf yillik o'quv rejasida bir soat (45 minut) ajratilgan. Mazkur bo'limda yigirmaga yaqin

maqollar keltirilgan bo'lib, shulardan bevosita uch-to'rttasi bilim haqidadir. Masalan: "Bilimdan ortiq boylik yo'q".

"Bilimliga dunyo yorug',

Bilimsizga qorong'u",

"Til- aql bezagi" maqollar shular jumlasidandir.

Bu kabi maqollar o'z navbatida o'quvchilarga ilm-ma'rifatning afzalligi, bilim olish joizligini uqtirishda muhim rol o'ynaydi. Ma'lumki, maqollar nutq jarayonida istagan o'rinda keladi. Uni fikrni boshlashdan ilgari, nutq orasida, fikr yakunida qo'llash mumkin. Shu sababli, badiiy adabiyotda ham maqollar ko'pincha epigraf shaklida uchraydi. (Masalan: A.Qahhor hikoyalari va qissalarida). Bu jihat kattalar uchun hikoyada aytilmoqchi g'oyasini lo'nda, xalqona ifodalashga xizmat qiladi.

Bolalarga aytilayotgan fikrlarda esa ko'pincha qissadan hissa tariqasida beriladiki, bu ayni muddao. O'quvchilar mavzu mohiyatini anglagach, xalq maqollari yordamida uni mustahkamlaydilar. Birinchi sinf "O'qish kitobi"dagi aksariyat maqollar matn ostida, matn xulosasi (hissa)da berilishi e'tiborga loyiq. Va albatta, ana shu maqollarning har birini kichkintoylarda ilmga havas uyg'otishda alohida o'rni, ta'siri bor.

"ILMGA HAVAS UYG'OTUVCHI MAQOLLAR - AQL BEZAGI" mavzusida o'tkaziladigan tadbir-darsning ssenariysi :

DARS MAQSADI:

a) ta'limiy maqsad : O'quvchilarning o'zbek xalq og'zaki ijodi, maqol, ilmga havas uyg'otuvchi maqollar to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy maqsad : O'quvchilarni bilimga qiziqish ruhida, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash .

v) rivojlantiruvchi maqsad : O'quvchilarning milliy dunyoqarashi, nutqini, fikrlash qobiliyatini, Vatan oldidagi burchini his etish kabi tuyg'ularini rivojlantirish.

Tarbiyaning rejasi :

1.Xalq og'zaki ijodi to'g'risida ma'lumot.

2.Maqol – xalq og'zaki ijodi namunasi sifatida.

3.Ilmga havas uyg'otuvchi maqollar, ularning izohi

4.Bahru- bayt (ilmga havas uyg'otuvchi maqollar haqida).

Izoh. Ushbu tadbir 4-sinf o'quvchilari ishtirokida 45 minutlik (1 soat) dars jarayonida o'tkaziladi. Tadbirda sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Reja asosida har ikki guruhga savol va topshiriqlar

berib boriladi. To'g'ri javob bergan guruh g'olib sanaladi. Har bir to'g'ri javob uchun 5 ball qo'yiladi. Tadbir oxirida g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.

1-reja asosida savollar :

1.Folklor nima? Folklor xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan janrlar majmui.

2.Folklorning turlaridan qaysini bilasiz ? Folklor janrlariga maqollar, topishmoqlar, tez aytish, laparlar, ertak, doston va boshqalar kiradi.

3.Tez aytishlardan ayting, ularning ahamiyati nimada ?

Tez aytishni tez-tez ayt.

Tolib turpni tarozida tortib topshirdi.1 Tez aytishlar nutqning ravon bo'lishini va so'zlarni to'liq talaffuz qilishni o'rgatadi.

4.Ertaklar haqida gapiring !

Ertaklar xalq og'zaki ijodining eng qadimiy, hajman yirik va qiziqarli bo'lgan janridir. Ertaklarda odatda, xalqning maishiy turmushi va eng oliyjanob insoniy fazilatlarini haqidagi orzu-o'ylari xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida bayon etiladi.

2-reja asosida savollar :

1.Maqol nima ? Qanday mavzuga oid maqollarni bilasiz ?

“Maqol” aslida arabcha so'z bo'lib,“qavvola”, ya'ni “so'z, “gap” degan ma'nolarni anglatadi. Uni “Otalar so'zi” ham deydilar. Maqol – xalq og'zaki ijodining bir janri hisoblanadi. Turli mavzudagi maqollar mavjud. Masalan, Vatan haqida, ilm haqida, mehnat hamda yaxshilik haqida va hokazo.

2.Nutqimizda nega maqol ishlatamiz ? Maqollar kishilarning axloqiy fazilatlarini shakllantiradi, nutqning ta'sirchanligini oshiradi.

3-reja asosida topshiriq :

1.”Kitob - bilim manbai” maqolini izohlang. Ota-bobolarimiz bu maqolni bejizga aytishmagan. Albatta inson bilimni kitobdan oladi. Kimki ko'p kitob o'qisa,u ko'p narsalarni biladi va puxta bilimga ega bo'ladi. Dunyoqarashi, tafakkuri va tushunchalari kengaya boradi.

2. “ Ilm – tubsiz quduq” maqolini izohlang. Ilm – bu shunday narsaki, uning tubi yo'q, cheksiz. Kishi qanchalik ko'p o'qisa-yu, u o'zini ilimli deb atasa, u xato o'ylaydi, chunki qancha ko'p o'qisada uni

¹ M.Jumaboyev. “Bolalar adabiyoti”T., “O'qituvchi”,- 1994.

uqmasa, o'ziga tegishli xulosa chiqarolmasa, unday kishini bilimdon deb bo'lmaydi. Dunyoda yechimi topilmagan jumboqlar juda ko'p.

Shu tariqa ilmga havas uyg'otuvchi maqollar beriladi va ularning ma'nosi o'quvchilar tomonidan izohlanadi.

4 – rejaga asosan, guruhlar o'zaro ilmga havas uyg'otuvchi maqollar haqida bahru-bayt o'ynaydilar. Masalan,

1 –guruh : “ Kitob – bilim bulog'i ,
O'quvchining o'rtog'i ”.

2 – guruh : “Avval o'rgan, keyin o'rgat”.

1 –guruh : “Bilgan o'zar,
Bilmagan to'zar”.

2 –guruh : “Ilm olish –nina bilan quduq qazish”.

Shu tariqa bahri-bayt davom etadi. To'xtab qolgan guruh mag'lub bo'ladi. Guruhlarning to'plagan ballari aniqlanadi va g'olib guruh rag'batlantiriladi.

Ushbu tadbirdan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'quvchilar xalq og'zaki ijodi namunalari haqida bilimga ega bo'ladilar. Tadbir orqali o'quvchilarda ilmga chanqoqlik va qiziqish yanada mustahkamlansa ajab emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ta'limning turli o'qitish metodlaridan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham ta'lim jarayonida muammoli o'qitish texnologiyasiga asoslangan o'qitish metodlari qo'llanib kelinmoqda.¹ Ayni paytda har qanday o'quv maskanlarida muammoli o'qitish texnologiyasi samarador hisoblanadi. Jumladan, boshlang'ich sinflarda noan'anaviy darslar va axloqiy-ta'limiy tadbirlarda xalq maqollaridan foydalanish jarayonida axloqiy tarbiya berishda bir necha xil interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki interfaol usullar darsda muammoli vaziyatni vujudga keltiradi. O'quvchilarni topqirlikka, mustaqil fikrlashga undaydi. O'quvchilarda bilim olishga, tengqurlaridan ortda qolmaslikka intilish hissi kuchayadi. Dars jarayonida jo'shqin vaziyat vujudga keladi. Eng muhimi bolalardagi iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlik yuzaga chiqadi va mukammallashib boradi.

¹ “Boshlang'ich ta'lim” jurnali, Muammoli o'qitish. M.Shodiyeva, G'.Nematova, 4.2009.6-bet

4 – SINF O’QISH DARSIDA ERTAKLARNI INTERFAOL USULLARDA O’TISH

Bizga ma’lumki, inson tafakkuri nutq yordamida yuzaga chiqadi va ular o’zaro aloqada bo’ladilar. Fikr bayon qilish vositasi bo’lgan nutq og’zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Og’zaki nutq oilada, hayotda, kishilar bilan o’zaro munosabatda, hamda ularga taqlid qilish orqali rivojlanib boradi. Og’zaki nutq asosida yozma nutq rivojlanadi. Nutqning yozma shakli tilning alifbo va imlosi bilan bevosita bog’liqdir. O’quvchilarning og’zaki nutqni o’stirishda turli ilg’or pedagogik mahoratdan foydalanish, darslarni ko’rgazmali qurollardan foydalanib, ta’lim to’g’risidagi qonunga mos holda yangi pedagogik texnologiyalardan amalda foydalanish kerak. Mamlaktimizda qabul qilingan "Ta’lim to’g’risidagi qonun"i va "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"da o’qitish jarayonida ilg’or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiyalarni keng ko’lamda tatbiq etish barcha turdagi ta’lim muassasalari oldidagi eng dolzarb vazifalardan ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Boshlang’ich sinfni o’qitish o’qish darslarida o’tkaziladigan umumlashtiruvchi mashg’ulotlarni talab darajasida uyushtirish o’qituvchilardan katta ma’sulyat talab etadi. Umumlashtiruvchi darslar ma’lum bir bo’lim doirasidagi ilg’or o’rganilgan mavzular mazmunini o’quvchilar yodiga shunchaki qaytarish emas, balki ular bilimni bir tizimga solish, amaliy nazariy tushunchalarini shakllantirish orqali badiiy estetik tafakkurni yuksaltirishga qaratilgan.

"Ertaklar mamlakatida" bo’limi yuzasidan o’tkazilgan umumlashtiruvchi darsda o’quvchilar bo’limdagi o’qiyotgan ertaklardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek, asarlarda qahramonlar, ularning xulq-atvori haqida o’z fikrlarini bayon qilishadi.

O’qituvchining vazifasi asarni o’quvchilar bilan tashkil qilish, ular nutqini qahramonlarning axloqiy sifatlarini ko’rsatuvchi sohalar bilan boyitib borishdan iborat. Bu esa adabiy qahramonlarning harakatini yaxshi yoritib berish shakllaridan biri hisoblanadi. Bizda hozirgi kunda qo’llanilayotgan texnologiyalardan biri bo’lgan tarmoqlar metodi qo’l keladi. Bu metod o’quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki fikrni erkin yoritishda ketma-ketlik bilan uzviy bog’langan holda yo’qlashda o’tkaziladi. Mazkur texnologiyani

umumlashtiruvchi darslarda chizma shakllaridan foydalanish, o'quvchilarda bir qancha yengilliklar yaratadi. 4 sinfda " Ertaklar mamlakatida" bo'limi o'tib bo'lingach umumlashtiruvchi darslarda o'quvchilardan birinchi navbatda o'rganilgan ertaklar nomini eslash va ularni ko'rsatilgan chizmaga joylashtirish topshirig'i beriladi.

2-topshiriq. Har bir ertakdagi qahramonlarni esga olish va tizimga solish kerar bo'ladi. Ya'ni "Davlat" ertagidagi dehqon, dehqonning kelini; "Ilm afzal" ertagidagi bobo, qiz, sakkiz o'g'il; "Laqma it" ertagidagi it, mushuk, sigir,echki,endi ularni uch guruhga, ya'ni qahramonlarning faqat insonlardan iborat ertaklarni bir guruhga, insonlar va hayvonlardardan iborat qahramonlik ertaklarini ikkinchi guruhga , qahramonlari hayvonlardan iborat ertaklarni uchinchi guruhga ajratib chiqish vazifasi beriladi.

1. "Davlat", "O'lim afzal", "Hunarli kishi xor bo'lmas", "Xiylining jazosi".

2. "Ovchi, ko'kcha va dono", "Ochko'z boy", "Baqa bilan taqa", "Olapar, mosh musicha".

3. "Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak" "Ko'zacha bilan tulki", "Laqma it".

Endi o'quvchilar jamoasi ham uch guruhga bo'linadi. Har bir guruh o'quvchilarni o'ziga belgilangan guruh ertaklarining mavzusi, asosiy g'oyasi qahramonlarning xulq-atvori fazilat va nuqsonlarini aniqlash to'g'risidagi topshiriqning ustida ishlaydi. Dars jarayonida o'quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytirish maqsadida ertaklarni boshqa janrdagi asarlardan qaysi jihatlardan farqlanishi to'g'risida quyidagi mazmunda savol-javob o'tkazish mumkin.

O'qituvchi: Biz o'tgan bo'limda sizlar bilan qanday hikoyalarni o'qigan edik?

O'quvchilar: O'tgan bo'limlarda biz "Xarita" "Oltin fasl", "Qovun sayli" kabi hikoyalarni o'qigan edik

O'qituvchi: Hikoya ertakdan nimasi bilan farq qiladi?

O'quvchilar: Hikoyada voqealar hayotda qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlanadi. Ertakda esa voqealar bo'rtirilgan holda aks ettiriladi. Faqat ertaklarda sehrgarlik holati uchraydi.

O'qituvchi: Uchrayotgan qanday hissiyotlar hayvonlarga xos?

O'quvchilar: Hayvonlarda ham ayyorlik, ochko'zlik, vahshiylik, qo'rqqoqlik kabi xususiyatlar uchraydi.

O'qituvchi: Sanab o'tilgan xususiyatlar qaysi hayvonlarga xos deb o'ylaysiz.

O'quvchilar: Ayyorlik tulkiga, qo'rqqoqlik quyonga vahshiylik sherga, ochko'zlik bo'riga xos bo'lgan xususiyat.

O'qituvchi: Bo'limdagi qaysi hayvonlar insonga yordam beradi?

O'quvchilar "Olapar, Mosh, musicha" ertagidagilar aka-ukalarning inoq bo'lishiga yordam beradi.

O'qituvchi: Nima uchun ertaklarni bolalar yaxshi ko'radilar?

O'quvchilar: Chunki ertaklarda ham doim yovuzlik ustidan yaxshilik g'alaba qozonadi, yovuzlik doim jazolanadi.

Demak, "Tarmoqlar" metodi o'quvchilarda fikriy bog'liqlik og'zaki nutqni shallantirish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi darslarni uyushtirishda ilg'or texnologiyalarning roli kattadir.

Asarning janri xususiyatlarini aniqlash, adabiy qahramonlarning fel-atvorini baholash o'quvchilarning adabiy nazariy tushunchalarini shakllantirishda mazkur texnologiyalardan samarali vosita bo'lib xizmat qiladi va o'quvchilarning ta'lim jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishda yordam beradi va ta'lim samaradorligiga zamin yaratadi. Og'zaki nutqni shakllantirishda darsning ko'rgazmaliligi katta ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki dars samaradorligini oshirishda ko'rgazmali qurollardan foydalanishning ahamiyati katta chunki ko'rgazmali qurollar o'quvchilar bilimni oshirish va o'qituvchi mehnatini samarali qilish vazifalaridan biri hisoblanadi. Darslarda ko'rgazmalilikni tatbiq etish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini oshiriladi, fikr va nutqi rivojlanadi ular diqqat qilish va kuzatuvchanlikka o'rganadilar. Darsda ko'rgazmalilik bolalarni yodda saqlashga undaydi, o'qish va yozuv malakalarining sifatini oshiradi, ta'limni hayot bilan bog'laydi. Ko'rgazmalilikning zarurligi boshlang'ich sinf o'quvchilarininh ruhiy holatini mustahkamlaydi. Sinf o'quvchilarini o'ziga xosligi va o'qitiladigan fanning vazifalaridan kelib chiqadi. Kichik yoshdagi bolalar tabiati ko'rgazmalilikni talab qiladi. Ular turli narsalarni bo'yoqlarni shakllarni ko'rib fikrlaydilar. Fikrlash orqali hodisalarni ongli o'zgartirishga o'rganadi ko'rgazmalar doimiy tushuncha va harakatdagi ko'rgazmalar bo'ladi.1-turdagi ko'rgazmalar o'quv yilining oxirigacha turadi. harakatdagi ko'rgazmalardan esa ta'lim jarayonida yangi mavzu o'tilganda va

mustahkamlanganda foydalaniladi. Ko'rgazmali qurollar yasalishi jihatdan sodda, ixcham, boshlang'ich ta'limdagi barcha fanlarga moslangan bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qish darslarida ham ko'rgazmalarning turli xillaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi. Darslikda keltirilgan ertaklarni o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqib tushuntiradi. Ertaklarni o'qitishning eng qulay va ko'p qo'llaniladigan turi bu og'zaki suhbat, dialog hamda ko'rgazmali metodlardir. Hozirgi zamon pedagogik texnologiyasida dars jarayonida yangi ped texnologiyalaridan foydalanib dars o'tish joriy etilgan. O'quvchilar o'qib, eshitib o'rgangandan ko'ra ko'zi bilan ko'rgan voqea-hodisalarni uzoq muddat xotirada saqlaydi va ko'rib turgan narsasiga to'g'ri baho bera oladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda darslar asosan ko'rgazma vositalari yordamida o'tiladi. Rasmlar, ko'rgazma qurollari yordamida dars o'tilsa, o'quvchilarda nutq faoliyati jadalashadi. Ular rasimga qarab o'z fikr mulohazalarini bayon etadilar. Agar ertaklar ham ko'rgazmali vositalar yordamida o'qitilsa, o'quvchilar xuddi ertakni ichida turgandek bo'ladilar. Rasimga qarab turib ertak mavzusi uning maqsadi, qahramonlari haqida tushuncha o'z-o'zidan shakllanadi. Ko'rgazma qurollarini qo'llashda o'qituvchidan e'tiborlilik talab etiladi. Chunki, o'tayotgan darsiga mos keladigan vositalari o'z o'rnida qo'llay olishi hamda ko'rgazmani qo'llashdagi asosiy maqsadi, unutilmasligi lozim. 4-sinf o'qish darsligida berilgan "Quyosh sevgan yurt" ertagini o'qitish usullari haqida mulohaza yuritadigan bo'lsak, ushbu ertakni turli usulardan foydalanib o'qitish mumkin. Masalan, keng miqyosda qo'llaniladigan metod bu ko'rgazmalilik metodi bo'lib, unda ertak mazmunini o'zida to'la aks ettiruvchi rasmlardan foydalaniladi. Agar dars yangi pedagogik texnologiyadan foydalangan holda tashkil etiladigan bo'lsa, unda avval dars o'tish joyi tanlanadi. Ya'ni dars texnika vositalari bilan to'la ta'minlangan. Sinf xonasida tashkil etiladi va video, proyektorlar yordamida turli slaydlar asosida dars tashkil etiladi. Slaydlarda jonajon o'sha o'lka tarixidan so'zlovchi, uning betakror rang-barang tabiatini ifodalovchi, moziydan so'zlovchi, osmono'par, yoshi yillardan asrlarga tenglashib jangu-jadallarni guvohi bo'lgan tarixiy obidalarning suratlari keltiriladi hamda yurt tarixi unda yashab o'tgan ajdodlar ota-bobolar haqida og'zaki savol-javob o'tkaziladi. Biz yuqorida aytib o'tgan ertak o'quvchi ongida shunday yurtda tug'ilganidan faxr-iftixor tuyg'usini

shakllantiradi. Dars jarayonida ertak avval o'qituvchi tomonidan ifodali qilib baland ovozda o'qib beriladi. Unda ilgari surilayotgan fikr-mulohazalari slaydlarda o'z aksini topadi. Agar sinf xonalarida texnika vositalari yetarlicha bo'lmasa yoki darsni yangi ped texnologiyadan foydalanib o'tishga imkoniyat bo'lmasa, unda sinf xonasida o'qituvchining o'zi ertak mazmunini aks ettiruvchi rasmlar orqali darsni o'tsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Rasmlarda asosan tarixiy obidalar olim-u, fuzalolar aks ettirilishi lozim. Ertak "Quyosh sevgan yurt" deb nomlanishining asl ma'nosi ham o'quvchiga tushuntiriladi. Ertalabki quyoshning chiqishi hamda uning ufqqa bosh qo'yishi quyosh bobonurini diyorimizda ayamayotgani ham rasmda alohida tarzda ko'rsatilishi lozim. Ushbu ertakni o'qib o'rgangandan so'ng o'quvchi qalbida o'zgacha tuyg'ular tug'ila boshlaydi. Endi unda ona vataniga, xalqiga nisbatan o'zgacha mehr, shukronalik, faxr-iftixor tuyg'ulari bo'y ko'rsata boshlaydi.

Xullas, 4-sinf darsligida mavjud ertaklarning aksariyati ilm olish, mehnat qilish, do'stga sadoqat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hunar o'rganish, tabiatni asrash kabi insoniy fazilatlarni tarannum etuvchi ertaklarni qamrab olgan. Bu sinfdagi o'quvchilarda mehnat qilish hurmat-izzat jamoaga nisbatan yuksak e'tiborda bo'lish xususiyatlari rivojlanayotgan bo'ladi. Shu sababli ham darslikda aynan shu mavzularni aks ettiruvchi ertaklar beriladi. O'quvchilar bu mavzularda bemalol suhbat uyushtirish qobiliyatiga ega bo'lib, o'qituvchi bilan bemalol suhbat qiladilar. Bir tip ertaklarning berilishidan asosiy maqsad, o'quvchilarning fikrlarini to'g'ri bayon etish imkonini beradi.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA G'AFUR G'ULOM SHE`RIYATINI O'TISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

O'zbekistonda bugungi kunda ijtimoiy sohalarni, jumladan, ta'lim tizimini rivojlantirishga katta mablag' yo'naltirilayotgani, qolaversa, yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol insonlar etib tarbiyalashga katta e'tibor qaratilayotgani jahon jamoatchiligi tomonidan keng e'tirof etilmoda.

Haqiqatan ham, endilikda kelajagimiz bo'lgan yosh avlod tarbiyasiga davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilmoda. Shunday ekan hozirgi kunda barcha sohadagi singari

boshlang'ich sinf darslariga ham yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish, darslarni shunchaki emas, noan'anaviy usullarda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'tish talabi qo'yilmoqda. An'anaviy o'quv jarayonida biz ko'proq o'qituvchining mahoratiga suyanib samaraga erishishga harakat qilamiz. Buning uchun esa pedagog ma'lum tajriba ortirgan bo'lishi talab etiladi. Pedagogik texnologiyaning asosi esa proyektlashtirishdir. Ana shu aniq proyektlashtirilgan dastur pedagogga samarali natijaga erishish imkonini tug'diradi. Bunday projekt asosida ish olib borayotgan pedagog katta pedagogik tajribaga ega bo'lmasa-da, yuqori samaraga erisha oladi. Biz bilamizki, pedagogik texnologiya bu ,avvalambor, aniqlikka ega bo'lgan va qat'iy, ilmiy loyihalashtirilgan jarayondir. Pedagogik texnologiyalar dars maqsadini belgilashda ham aniqlik bo'lishini talab etadi. Aniq maqsadlarni belgilash nazorat va baholash ishini yengillashtiradi va bu jarayonga oydinlik kiritadi.

Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi birinchi qadam bu aniqlashtirilgan maqsadlarni ishlab chiqishdir.

Boshlang'ich sinf o'qish kitoblarda G'afur G'ulomning bir qator asarlari, jumladan, "Shum bola" qissasidan parcha va "Ola buzoq" she'ri hamda qator kichik hajviy hikoyalarini uchratish mumkin. Xususan, 4 - sinf o'qish darsida G'afur G'ulom mavzusiga 4 soat ajratilgan. "Shum bola" qissasining boshlang'ich sinfdayoq berilishiga sabab, birinchidan, asarning tili ravon, ruhi aynan bolalar ruhiga mosligi bo'lsa, ikkinchidan, bolalarni aynan shu yoshdan badiiy asarlarga muhabbatli etib tarbiyalash masalasidir. Hozirgi globallashtirish, zamonaviy texnologiyalar asrida aksar bolalar kitob o'qish bilan shug'ullanmay qo'ymoqda. Ya'ni ko'p axborotlar kompyuter va zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali yetkazilib, kitob o'qish zavqi yoshlar tomonidan unutilmoqda. Bu esa fojea. Qanchalik texnika rivojlansa-da, elektron darslik, kitob va tarmoqlar orqali badiiy adabiyotlar tarqatilsa-da, kitobning o'rnini , u beradigan ma'naviy ozuqani bera olmaydi.

Ma'lumki, mutolaaga kirishgan har bir o'quvchi asar mazmunini to'g'ri idrok etishi uchun o'sha hayot, davr, muhit haqida ma'lum darajada bilim va tasavvurlarga ega bo'lishi zarur. Agar o'quvchilarda bunday bilimlar etarli bo'lmasa, asarni o'qishdan oldin bolalar tasavvurini boyitish va unga aniqlik kiritishga qaratilgan ma'lum bir tayyorgarlik ishlari o'tkaziladi. Asarni idrok etishda muallif fikrini

emas, balki tasavvurini ham aks ettirishi hisobga olinadi. Bolalar asarni hissiy idrok etishlari uchun avval uni ifodali o'qishi lozim. Bu tinglovchining yozuvchi tasvirlagan voqealarni aniq tasavvur etishiga yordam beradi, ular ongida asardagi obrazlar haqida yorqin tasavvur hosil bo'ladi. Bu jarayonda asarni o'qishdan oldin o'tkaziladigan tayyorgarlik mashqlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi vazifani o'z oldiga qo'yadi:

- o'quvchilarning asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqidagi tasavvurlarini boyitish, matnni ongli idrok qilishga ta'sir etadigan yangi ma'lumotlar berish, badiiy asarda tasvirlangan faktlarni o'quvchilar o'z hayotida kuzatganlari bilan bog'lay olishlariga sharoit yaratish;

- yozuvchining hayoti bilan tanishtirish, uning ijodiga qiziqish uyg'otish;

- o'quvchilarni asarni hissiy idrok etishga tayyorlash;

- asar mazmunini tushunishga halal beradigan so'zlarning leksik ma'nosini tushuntirish kabilardir.

Asarni o'qishdan oldin tayyorgarlik mashqlarini o'tkazish-o'tkazmaslik uning mazmuni va o'quvchilarning umumiy saviyasiga qarab, o'qituvchi tomonidan hal qilinadi.

Bu jarayonni tashkil etish shakllari xilma-xildir. Olima Qosimova ushbu jarayonning quyidagi shakllarini ko'rsatib o'tadi:

1. Ekskursiya

2. Film namoyish qilish.

3. O'qituvchi hikoyasi¹.

Ularning qaysi birini qo'llash asarning g'oyaviy-mazmuni asosiga, o'quvchilar bilimiga, maktabning moddiy bazasi kabilarga bog'liqdir. Maktabda tayyorgarlik ishlarining didaktik shakllaridan ekskursiya, filmlar ko'rsatish, o'qituvchi hikoyasi, suhbat keng qo'llanadi.

Ekskursiya. Tabiat tasviri, jonivorlar, atrofimizdagi olam haqidagi asarlarni o'qishdan oldin tabiatga, hayvonot olamiga ekskursiya qilish o'quvchilar bilimini chuqurlashtiradi, ularda hayvanot olamini kuzatish va aniq tasvirlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ekskursiya orqali tabiatdagi jonivorlar, hayvonlarni sevishga, ularga mehr bilan munosabatda bo'lishga zamin yaratiladi. Masalan, 4- sinfdan G'afur

¹ Matjonov S., A. Shoalilov, X. G'ulomova, SH. Sariyev, Z. Dolimov, 4-sinf o'qish kitobi darslik Tosh. "Yangiyo'l Poligroaph Service" 2011

G'ulomning "Ola buzoq", she`ri o'tilishidan oldin o'qituvchi qishloq bolalariga uyga borib buzoqchasini kuzatib kelishni topshiriq bersa, shahar maktablaridagi bolalar fermalarga yoki yaqin qishloqlarga sayohatga chiqqandan so'ng o'qilsa, o'quvchilar she`rda aks ettirilgan tasvirini yanada yaxshi idrok etadilar va uning go'zalligi, jozibasidan ta`sirlanadilar.

Film namoyish qilish. Kinofil'm, diafil'm va videotasmalardan "kirish" sifatida foydalanish o'quvchilarning tasavvuri va tushunchalarini oydinlashtiradi, bir tizimga soladi, yangiliklar bilan boyitadi. Masalan, 4-sinfda G'.G'ulomning "Shum bola" qissasidan berilgan parchani o'rganish jarayonida fil'mning aynan o'sha joyi namoyishi o'quvchilarga bo'limda berilgan asarlarni ongli o'qishga, hissiy idrok etishga katta yordam beradi. Shuningdek, "Ola buzoq" she`rini o'tishda videotasmaga tushirilgan chorvachilik fermasidagi sigir-u buzoqlar, yo slaydlarda o'z aksini topgan buzoqchalar tasviri, qator rasmlar galereyasi o'quvchilar tasavvurini boyitish va matnga yanada yaqinlashishga xizmat qiladi.

O'qituvchi hikoyasi. Asar muallifi, yozuvchi haqida ma`lumot berishda eng samarali usullardan biri o'qituvchi hikoyasi hisoblanadi. Bunda o'qituvchi juda qisqa bo'lsa ham, o'quvchilarni yozuvchi, shoirlar bilan tanishtiradi va ular haqida qiziqarli hikoya qilib beradi. SHu bilan birga mualliflarning portretini va ikki-uch kitobini ham ko'rsatadi. O'qituvchining bunday hikoyasi o'quvchilarning badiiy asarga qiziqishlarini yanada orttiradi, kitobga muhabbat uyg'otadi, mustaqil o'qishga o'rgatadi. 1-sinfda ta`limning boshlang'ich bosqichida yozuvchi haqida qisqagina ma`lumot beriladi. Lekin, 4-sinf "O'qish kitobi"dagi G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidan parchani o'qishdan oldin bolalarga O'zbekiston xalq soiri, mohir yozuvchi G'afur G'ulom haqida to'liqroq ma`lumot berib, adib asarlari nafaqat o'zbek tilida, balki bir necha tillarga o'girilgani haqida so'zlab, ulardagi asosiy qahramonlar bolalar ekanligi, tabiatdagi har bir jonzotni sevish kerakligi, asrash lozimligi, bu ish har bir vatan farzandining burchi ekanligi haqida ham aytib o'tadi hamda yozuvchining kitoblaridan bir nechtasini ko'rsatadi. Sinfdan tashqari o'qishga tavsiya qiladi.

Sinfdan sinfga ko'chish bilan yozuvchi hayoti va ijodi haqidagi bolalar bilimi yanada chuqurlashtiriladi. Asar muallifi bilan tanishtirishga qo'yilgan talablar ham shu tariqa o'sib boradi. O'qituvchi yozuvchi hayoti bilan to'liqroq tanishtirishga o'tadi. Bunda kichik

maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshiga mos imkoniyatlarni, ularni yozuvchi bilan qay darajada tanish ekanligi va qaysi asarlarini o'qiganligi hisobga olinadi. O'qituvchi yangi mavzudagi she`rni qay tarzda o'qib berishi o'quvchilarning ham xuddi shunday she`r o'qishlariga zamindir. Ifodali, xatosiz va to'g'ri o'qish she`rni anglashning asosiy omilidir.

Darhaqiqat, she`rdagi poetik mazmun o'zining go'zal shakliga ega bo'lsagina estetik zavq bera olishi mumkin. Boshqa san`at turlarida turli xil materiallar san`at unsurlari sifatida namoyon bo'lsa, badiiyatda faqat so'z va so'z orqali namoyon bo'ladigan poetik unsurlargina poetik mazmun mutanosibligini vujudga keltirishi mumkin, xolos. Biroq, asardagi poetik mazmun bilan muayyan shakl uyg'unligining o'zi badiiy barkamol asar yaratish uchun asos bo'ladi degan tasavvur xatodir. Chinakam san`at uchun, ayniqsa, she`riyat uchun xarakterli bo'lgan asosiy omil lirik "men"ning ruhiy olamidir. Ruhiy borliqsiz har qanday mazmun o'likdir. Lirik qahramonning murakkab, ziddiyatli, turfa xil to'lg'onishlarga, his-tuyg'ularga, ehtirolarga boy bo'lgan qalbisiz she`riyat chinakam badiiyat namunasiga aylanishi qiyin. Zero, har qanday yaxshi she`r markazida o'zining quvonch va tashvishi, orzu va armoni bilan inson turadi. She`rni tahlil qilar ekanmiz, biz xuddi shu insondan, uning tabiatidagi maqsad va intilishlaridan, yanada to'g'ri, inson haqidagi o'z tasavvurimizdan kelib chiqamiz .

Ola buzoq

Uy ichimiz // bilan shu kecha//,
Uxlamadik// oppoq tonggacha//.
Bizda qo'ng'ir// sigir bor edi//,
Sog'-salomat// ko'zi yoridi//.
Ola buzoq, // qashqasi ham bor//,
Usti qora// bag'ri oppoq qor//.
Tili xuddi // lola yaprog'i//,
Safsargulday// tikka qulog'i//.
Dumi gajak, //qo'ng'ir-qo'ng'iroq//,
Sadaf munchoq// tishi yaltiroq// .
Olxo'riday// quralay ko'zi//,
Bosvoldiday// cho'zinchoq yuzi//.
Baqbaqasi // marjon osganday//,
Tumshug'iga // chaqich bosganday//,

Xiyol o'tmay // burni terlaydi//,
Nafasidan // kelar sut hidi//.
Burun uchi // dona-dona ter//,
Mo'lab-mo'lab// allanima der//.
Qamchindasta // har bir oyog'i//,
Biram jajji // silliq tuyog'i//.
Ola buzoq // tug'ilib oldi//,
Og'zimiz ham // oqarib qoldi//...
Katta bo'lsin // ola buzog'im//,

Ovunchog'im,// erkam marog'im!¹//Kuzatishlarimiz o'quvchilarni badiiy asarni idrok etishga tayyorlashda interfaol usullardan, ayniqsa, "Aqliy hujum" metodidan foydalanish yaxshi natijalar berishini ko'rsatdi.

"Aqliy hujum" metodi

"Aqliy hujum" (breynstorming) metodi XX asrning 40-yillarida amerikalik Aleks Osborn tomonidan qo'llanila boshlangan. Mazkur metod muammolarni yechish va guruhdagi shaxslarning g'oyalar ishlab chiqishiga mo'ljallangan spesifik jarayonlar to'plamidir. Dars jarayonida interfaol usullarning qo'llanishi ta'lim sifatini oshirishga, mavzuni o'quvchilar tomonidan tez va osonlik bilan o'zlashtirilishiga asos bo'lmoda. O'quvchilarni badiiy asarni idrok etishga tayyorlashda "Aqliy hujum" usulidan foydalanishni amalga oshirishda quyidagi qoidalar eslatiladi:

Tanqid qilmang va baholamang (hech bir ishtirokchi bolalar fikrini muhokama qilmasligi, baho berishi va tanqid qilishi mumkin emas),

Noto'g'ri javoblar bo'lmaydi (miyangizga nima kelsa shuni ayting).

G'oyalar sonining ko'p miqdori talab etiladi (g'oyalar qanchalar ko'p bo'lsa, shunchalar yaxshi).

O'zgartiring, yaxshilang (bolalar g'oyasiga qo'shing, o'zgartiring, yaxshilang)."Aqliy hujum" metodi ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda berilgan savolga o'quvchilarni g'oyalar, fikrlar bilan qatnashishga chorlanadi va shu vaqtning o'zida o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha g'oya va fikrlar doskaga yozib boriladi. Ikkinchi bosqichda doskaga yozilgan fikrlar ko'rib chiqiladi va tanqidiy

¹ Matjonov S., A. Shoalilov, X. G`ulomova, SH.Sariyev, Z. Dolimov, 4-sinf o`qish kitobi darslik Tosh. "Yangiyo`l Poligroaph Service" 2011

baholanish jarayonida to'g'ri bo'lmagan fikrlarni o'chirib ro'yxat tozalanadi-da, bir necha to'g'ri echim va fikrlar tanlab olinadi.

4-sinf "O'qish kitobi"da berilgan G'.G'ulomning "Ola buzoq " she`ri matni bilan tanishtirishdan so'ng o'quvchilarga quyidagi savol beriladi:

1) Sigirning bolasi nima deb ataladi?

2) Xo'sh, o'quvchilar she`rda berilgan ola buzoqchanning xususiyatlarini kim aytadi?

O'quvchilar javobi doskaga yoziladi.Natijada o'quvchilarning qoramollar haqidagi tasavvurlari, mavzuga oid so'z boyliklari namoyon bo'ladi.Bu esa ularning asarni idrok etishlariga yaqindan yordam beradi.

Yoki savol -javobni rasm asosida olib borish ham maqsadga muvofiq.

Rasm



Shuningdek, ushbu she`r tahlilida klaster usulidan ham foydalanish mumkin.

"KLAUSTER" metodi - ta`lim oluvchilarda berilgan mavzu xususida erkin fikrlash va turli javoblar o'rtasida bog'liqlik o'rnatish usulidir. Guruhlash imkoniyatini yaratuvchi metoddir.

Ma'lumki, an'anaviy ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalanib, ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir.

Ilg'or ta'lim jarayoni esa ko'proq ta'lim oluvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning noan'anaviy shakli, interfaol metodlar va zamonaviy ta'lim vositalarining majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsadga erishishiga yo'naltirishdir.

Noan'anaviy darslarning afzalliklari "qaytar aloqa" ning ta'minlanishi;

- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan materialning yaxshi esda saqlab qolinishi;
- o'z - o'zini va boshqalarni baholash ko'nikmasining shakllanishi;
- mustaqil fikrlash qobiliyatining oshishi.

Jumladan, kichik guruhlarda ishlash usuli qo'llansa, ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ishlash imkoni tug'iladi.

Ta'limning kichik guruhlarda ishlash usuli «ta'lim beruvchi-ta'lim oluvchi» dialogidan voz kechishni va «ta'lim beruvchi-guruh-ta'lim oluvchi» ko'rinishidagi uch tomonlama o'zaro munosabatga o'tishni

nazarda tutadi. O'quv guruhi, tarkibi bo'yicha harakatchan kichik guruhlarga bo'linadi va ularning har-biri o'zicha o'quv materialini o'zlashtiradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, shu tufayli siz bilan ta'lim oluvchilar o'rtasida ancha mustahkam kontakt o'rnatiladi, shaxsiy va bir vaqtning o'zida ta'lim jarayonida jamoaviy ruhiy holat kuchayadi.

Kichik guruhlarda ishlaganda o'quvchilar quyidagilarga erishadilar:

- o'rganilayotgan materialni oldin o'tilgan material bilan bog'liqligini izlab topishni;
- birgalikda o'tilayotgan o'quv materialini muhokama qilishni;
- shaxsiy fikrlarini shakllantirish, ifoda etish va argumentlashni;
- bir-birlarining muvaffaqiyatlarini ko'rsatishni;
- berilgan ishni oxiriga yetkazishga intilishda bir-birini qo'llab-quvvatlashni;
- individual farqning mavjudligiga qaramasdan hamkorlik qilishni;
- ma'lum bir vazifani bajarish uchun tuzilgan jamoada yoki kichik guruhda mahsuldor ishlashni;
- kommunikatsiyaga va turli usullarda muloqat qilishga;
- kooperatsiyaga va harakatlar usullarini almashtirishga;

-bir-birini tushunishga;

-o'zini va guruhni mehnat natijalari uchun ma'suliyatli bo'lishga;

Ko'rinyaptiki, kichik guruhlarda ishlash metodi asosida G'afur G'ulomning "Ola buzoq" she'ri yoki "Shum bola" qissasidan parcha o'tilganda, bolalar an'anaviy darsdagiga nisbatan kengroq ma'lumotga ega bo'ladilar, shaxsiy fikr ifodalash qobiliyatlari shakllanadi, nutqlari ravonlashadi, shuningdek, o'qituvchi harakati ham faollashadi. Ikki tomonlama faollik esa darsni o'z maqsadiga erishishida kata samara beradi.

Demak, tahlillarimiz natijasida quyidagilarni aytish muhim:

1) G'afur G'ulom she'riyatida bolalarga bag'ishlangan she'rlar juda ko'p. Shoir she'riyatida bolalar ruhiyatini ochishda yumordan foydalanish ustunlik qiladi. Nortoji va Ahmad obrazlarini yaratishda yumordan juda samarali foydalangan. G'afur G'ulom bolalarning diqqatini jalb qila olgan. Ularda engil kulgu uyg'otish uchun bolalarning tabiatiga mos badiiy uslublarni qo'llagan.

2) Har qanday interfaol dars bu –o'quvchi uchun yangilik. O'z navbatida, noan'anaviy usulda o'tilgan dars samarasi odatiy darslardan yuqoriroq;

3) G'afur G'ulom ijodi boshlang'ich sinflarda kengroq o'tilishi kerak. Bu borada darslikda yozuvchilarga tegishli takliflar bildirish zarur. Chunki shoir she'riyatida yoshlar ma'naviyatini o'stiruvchi, ular ruhiyatiga mos talay she'rlar uchraydi. Yuqorida tahlil qilingan shoirning yumaristik she'rlari bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Biroq amaldagi maktab darsliklarida (1- 4 sinflarning barchasida) shoir she'riyatiga atigi 2 soat, nasriga 2 soat ajratilgan, xolos;

4) Boshlang'ich sinflarda shoir she'riyatini o'tishda interfaol usullardan foydalanish darsning sermazmun va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi;

5) O'quvchilarga ko'rgazmalar, texnika vositalaridan foydalangan holda, vizual materiallar asosida o'tilgan "Ola buzoq" she'ri tushunarli va tez yod olishlariga zamin bo'la oladi. Ularda buzoqcha haqida tushuncha va malaka hosil qilishda kata rol o'ynaydi.

5) Interfaol usulda o'tkazilgan dars an'anaviy darsdan o'quvchilarni baholashda aniqligi va xolisligi bilan, o'quvchilar va o'qituvchining faolligi bilan, darsning jarayoni esa tezkor va shiddatlilik bilan farqlanadi.

BOSHLANG`ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI O`QISH DARSLARI SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Boshlang`ich ta'limda sinfdan tashqari o`qish darslari samaradorligini ta'minlovchi interfaol metodlardan foydalanish, o`qitishning noan'anaviy usullarini qo`llash juda muhimdir. Jumladan, sinfdan tashqari o`qish darslarida uyushtiriladigan o`yinlar ko`ngilochar mashg`ulot bo`lmasdan, ta'limiy xarakterga ega bo`lishi, o`rganilayotgan asar mazmunini o`zlashtirishga, asar yuzasidan ta'limiy va tarbiyaviy xulosa chiqarishga qaratilishi lozim. Interfaol usullardan o`rinli, o`quvchilarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda foydalanish lozim. Rixsixon Ubayxo`jaeva: "Ilg`or pedagogik texnologiyaning juda ko`p usullari mavjud bo`lib, boshlang`ich sinf ona tili darslarida ular seminar darslar, konferentsiya darslari, "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishlash", "Sinkveyn", "BBB"(Bilar edim, bilishni xohlayman, bilib oldim), "Debatlar", "Tanqidiy tafakkur" va boshqalarni ko`rsatadi. Bu usullardan o`quvchining yoshi, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanilmasa, qilingan ishlar samara bermaydi".

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan xalq ta'limi xodimi Sobir Tursunov: "Noan'anaviy darslarining turi ham juda ko`p: ertak, sayohat, musobaqa, bozor, sport o`yin turlaridan foydalanib yaratilgan darslar durust samara bermoqda. Bu o`quvchilarning darsga bo`lgan qiziqishlarini oshirmoqda. Lekin bu darslarni ba'zi o`qituvchilar sahna darsiga aylantirib, bir bor o`tilgan dars ssenariysidan foydalanib, har safar kelgan dars kuzatuvchisiga namoyish qilib, o`quvchilarni dangasalikka o`rgatmoqda. O`quvchilarda o`yinga qiziqish uyg`onib, jiddiy bilim olishga intilish yo`qolib bormoqda¹",- deb asosli ravishda tanqidiy fikr bildiradi. Boshlang`ich ta'limda sinfdan tashqari o`qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, ularni muayyan mavzularni o`rganishda qo`llash, tatbiq etish o`quvchilarning dastur talablari darajasidagi bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lishlarini ta'minlashi lozim.

¹ Tursunov S. O`zbek bolalar adabiyoti o`qitish metodikasi. Toshkent: "O`qituvchi" nashriyoti. 2016 yil. 164-170- betlar.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ham ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslarini yaratish bo'yicha M.O.Ochilov, B.Farberman, N.Saidahmedov, U.Nishonaliev, S.Yu.Mahmudov, O'. Tolipov, M.Usmonboeva, K.Zaripov, Q.Abdukarimov, U.Sattorov¹ izlanishlar olib borib pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish afzalliklari, mutaxassislik fanlarini o'qitishni yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyalarni muayyan yo'nalishlar fan sohasiga tatbiq etish bo'yicha ham qator ilmiy izlanishlar olib borildi, ularda pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkonini beruvchi loyihalar yaratildi, ular ta'lim samaradorligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. T.G'afforova, D.Po'latovalarning metodik qo'llanmalarida o'qish, ona tili, tabiatshunoslik darslarini interfaol usullar asosida tashkil etish yoritilgan.

Maktablarda qo'yilayotgan eng muhim talablardan biri shaxsning ijodiy sifatlarini rivojlantirishdir. Shuning uchun o'qitish jarayoni samarali usullar asosida tashkil etish bilimlarni mustahkam egallashga, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi, bilim olishga qiziqishni kuchaytiradi. Lekin o'quvchilarda bilishga qiziqishni uyg'otish uchun ular ma'lum darajada boshlang'ich bilimga ega bo'lishi lozim. Bu bilimlar zahirasini suhbat usulda yaratish mumkin.

Noan'anaviy shaklda tashkil etilayotgan sinfdan tashqari o'qish darslari o'quvchilarning jamoa bo'lib kichik guruhlarda faoliyat ko'rsatishi ko'nikmalarini shakllantiradi, mustaqil fikr yuritish, fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, ulardan eng muhimlarini ajrata olish, o'z fikrini ilgari surish, uni dalillash, fikrlarni umumlashtirish va xulosalashga o'rgatadi. Interfaol metodlar o'quvchilarda o'quv materialini o'rganishga qiziqish uyg'otish bilan birga, unda ehtiyojni ham yuzaga keltiradi. Ta'lim samaradorligini oshirishning omili sifatida e'tirof etilayotgan interfaol metodlarni boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslariga ham tatbiq etish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi ko'tariladi.

¹.Yo'ldosheva,A, Istamov,K. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, "Toshkent", 2000-yil, 74-76-betlar.

Sinfdan tashqari o`qish darslarini tashkil etishda “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “6x6”, “Lahzada aql charxi”, “Qarorlar mojarosi” (qaror qabul qilish texnologiyasi) kabi interfaol usullardan va ta`limiy o`yinlaridan foydalanish o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini jamoa bilan maslahatlashishga o`rgatdi, muammolarni hal qilishda ishtirok etish maylini yuzaga keltirdi. Sinfdan tashqari o`qish darslarida o`rganiladigan turli mavzulardagi asarlarni o`rganishda muammoli vaziyatlar yaratish o`quvchilarda o`quv faoliyatini aktivlashtirdi. 4-sinfda “Fasllar ko`rki” mavzuni o`rganishda interfaol usul “Klaster” dan foydalaniladi. O`quvchilar o`qigan asarlari: Rauf Tolibning “Gullar va shamol” ertagi Abduraxmon Akbarning “ Osmonning ko`zi”, N.Ostonovning “Bahor”, T.Adashboevning “Navro`z”, “Boychechak” Z. Diyorning “Binafsha” she`ri asosida “Bahor” mavzusida klasster hosil qiladilar. Bu quyidagi ko`rinishda bo`ladi.

O`quvchilar “Klasster” da yozgan so`zlarini o`qigan asarlari yoki yodlagan she`rlaridan misollar keltirib izohlaydilar.

3-sinfda “Hayvonot dunyosi” mavzusini o`rganishda “Aqliy hujum” metodidan foydalaniladi. O`qituvchi hayvonot dunyosi haqida nimalarni bilishlarini o`quvchilardan so`raydi. O`quvchilar Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyevning she`rlari asosida quyidagi fikrlarni aytadilar:

- hayvonlar juda ko`p;
- yovvoyi hayvonlar bor, uy hayvonlari bor;
- hayvonlarning go`shtidan, yungidan foydalanamiz;
- hayvonlardan ish quroli sifatida foydalaniladi;
- ba`zi hayvonlar “Qizil kitob” ga ham kiritilgan;

Sinfdan tashqari o`qish darslarini tashkil etishda o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatini o`rganish, o`quvchilarning bilimlarni

o`zlashtirish darajasini test sinovlari va yozma ishlari orqali aniqlash, o`qituvchi faoliyatini anketa so`rovlari yordamida tahlil qilish asosida sinfdan tashqari o`qish darslarida hosil qilinadigan ko`nikma va malakalarni o`quvchilar an`anaviy shaklda tashkil etilayotgan dars mashg`ulotlarida o`zlashtira olmaydi. Bundan tashqari, boshlang`ich sinf sinfdan tashqari o`qish dasturida o`tmishni o`rganish, Vatan va tabiat mavzulari, shoir va yozuvchilar ijodini o`rganish sinfdan sinfga o`tgan sari murakkablashib boradi. Uning o`rganishdagi qiyinchiliklar o`z-o`zidan samarali metodik yondashuvni taqazo etadi.

Sinfdan tashqari o`qish darslarida o`zbek bolalar yozuvchilari asarlarini mustaqil o`qishlarini tashkil etishda ilg`or usullardan foydalanish bolalarda ularning ijodiga qiziqish uyg`otadi va bola mustaqil ravishda ularning boshqa asarlarini topib o`qiydi. Masalan, Tursunboy Adashboyev ijodini sinfdan tashqari o`qish darslarida o`rganish o`quvchilarda uning ijodiga katta qiziqish uyg`otadi. Tursunboy Adashboyevning “Qish” she`rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro`y beradigan o`zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she`rni o`qishdan oldin ham o`quvchilar bilan savol-javoblar o`tkaziladi. O`quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o`zgarib, qorda o`zini dushmandan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o`siq yunglari sovuqda yashashga qo`l kelishi to`g`risida tushuncha beriladi. She`r matni bilan tanishishdan oldin xattaxtaga “ayoz”, “quyruq”, “so`qmoq”, “piyma”, “po`stin” “pahmoq” so`zlari yozilib, ma`nosi izohlanadi. She`rni navbat bilan o`quvchilarga to`rt-besh marta o`qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o`tkaziladi. SHE`rning to`la mazmuni uch-to`rt o`quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to`ldiriladi. Mazkur mavzuni o`rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o`quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazmun bo`lishi uchun boy material beradi.

O`quvchilar barglari to`kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko`rar ekan, shu holatni ifodalagan “qor ko`rpasiga o`rangan yalang`och daraxt” yoki “sovuqda mudrayotgan daraxt” kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o`quvchilarning lug`at boyligining oshishiga xizmat qiladi. Biz 3-sinf sinfdan tashqari o`qish darsida

T.Adashboyev ijodini o`rgandik. Dars o`quvchilarda katta qiziqish uyg`otdi. Shoir bilan uchrashuv tashkil etishni so`rashdi.

Sinfdan tashqari o`qish darslarida badiiy matnning lisoniy tahliliga ham e`tiborni kuchaytirish lozim. O`qish dasturining o`quvchilar bilimiga qo`yiladigan talablarida ularning ayrim tasvir vositalari va badiiy til elementlarini bilishlari zarurligi qayd etilgan bo`lsa, o`quvchilarning ko`nikma va malakalariga bog`liq talablarida “tilning ifoda vositalarini o`rinli qo`llay olish va ularning uslubiy imkoniyatlaridan foydalana olish”lariga e`tibor qaratilgan. Jumladan, o`qish dasturida va darsliklarida badiiy asar tili tahliliga quyidagi talablar qo`yilgan:

- O`qish mashg`ulotlarini o`tkazish jarayonida o`quvchilarda nutq faoliyatining asosiy ko`rinishi bo`lgan ko`nikmalari, matn va kitob ustida ishlash, o`quvchilarning bog`lanishli nutqini o`stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

- Olti-yetti yoshli bolalarning nutqini takomillashtirish uchun uning nutqidagi kamchiliklarni o`qish darslaridagina emas, balki barcha predmetlar yuzasidan o`tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari uyushtiriladigan mashg`ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berilishi zarur.

- Matn ustida ishlash murakkablashib boradi, bolalar o`qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatini ifodalovchi so`z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so`z bilan tasvirlashga o`rganadilar. Ularda so`z boyligiga talab ortadi.

Sinfdan tashqari o`quvchilar mustaqil o`qigan asarlarni hisobga olib borishga katta e`tibor qaratildi. 1-2- sinfda o`quvchilar kundalik daftarlariga mustaqil o`qigan asarlari nomi va muallifini yozib bordilar. 3-4-sinfda o`quvchilar o`qigan asarlarini hisobga olib boruvchi, o`z munosabatlarini qisqa qilib yozib qo`yuvchi maxsus daftar tutdilar. Yil oxirida ota-onalar yig`inida, maktab pedagoglari kengashida mustaqil kitobxonlik darajasi yuksak o`quvchilar rag`atlantirib borildi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining kitobxonlik saviyasi targ`ib qilinayotgan asarlar, yozuvchilar ijodi, o`qilgan asar yuzasida uyushtirilgan bahs-munozaralar sifatiga bog`liq bo`ldi.

Ko`rinayotirki, sinfda va sinfdan tashqari darslarda o`qilgan asarlarni ongli ravishda tushunish, his qilish uchun ,dastlab, ifodali o`qishni shakllantirish kerak. Bu 1- sinf o`quvchilariga yoshligidayoq

ohang, ritm va pauza tushunchalarini anglashiga har bir asar mohiyatini tushunib mutolaa qilishiga yordam beradi.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI

Boshlang'ich ta'limda motivlar hosil qilishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. O'yinsiz tom ma'nodagi aqliy rivojlanish bo'lishi mumkin emas. O'yin o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg'otadigan uchqundir. O'yin -boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar -o'qituvchilar, tarbiyachilar, ot-onalar tomonidan qo'llaniladigan usul. O'yin vositasida o'quvchilarning bilim o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. O'yin orqali bolalar borliqni o'rganadi va dunyoni o'zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib, o'yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O'yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O'yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta'sir etish ehtiyoji paydo bo'ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o'yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarini, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi. Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o'yin hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi.

O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim zamin yaratadi. Didaktik o'yin o'rganilayotgan voqea va hodisalarning immitatsion modeli yaratilishi sohasidagi faol faoliyatidir. O'yinning boshqa faoliyat turlaridan farqi shundaki, uning predmeti inson faoliyatidir. Didaktik o'yinda faoliyatning asosiy turi hamkorlikdagi o'quv faoliyatidir. Didaktik o'yinda o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olgan ta'limiy vazifalarning bo'lishi muhimdir. Rahbarlik qiuuvchi kattalar didatik o'yinlarning u yoki bu shaklini yaratar ekan, uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to'playdigan turlariga e'tibor qaratishlari lozim. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar:

o'yin mantig'i, o'yinning harakati, o'yin qoidasi. O'yin mantig'i asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishiga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi. O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijalarga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi o'quvchilarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hammavaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyatga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi. Hamma o'quv materiallari ham o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lavermaydi. Bunday hollarda bolalarni ta'lim jarayoniga qiziqishini oshirishning birdan bir yo'li didaktik o'yinlardan foydalanish va uni tashkil etishdir. O'quvchilarda o'qishga ishtiyoqini oshirish uchun ularni ta'limga qiziqtirish lozim. Buning uchun esa o'quvchi ta'lim jarayonidan qiziqarli tomonlarni topishi va bu jarayon o'z ichiga o'quvchini qiziqтира oladigan materiallarni olishi lozim. Buning yo'li ta'lim jarayoniga didaktik o'yinlarni kiritishdir. Quyida boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin turlaridan ba'zi birlarini ko'rib chiqamiz:

"O'zim tekshiraman"

Bunday o'yinlar o'tkazishda o'qituvchi kichik hajmdagi diktantlarni tanlaydi. Bunday o'yinlarni har bir boshlang'ich sinfda darsning avvalida o'tkazish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdagi diktant yozdiradi. Barcha o'quvchilar yozib bo'lishgach o'qituvchi xattaxtaga diktantni yozib ko'rsatadi. Diktant xattaxtaga oldin yozilib, usti yopib qo'yilgan bo'lsa, o'quvchi pardani ochadi. O'quvchilar esa o'qituvchi yozganiga qarab o'zlarining diktantlarini tekshiradilar. Bunday diktantlarni hatto alifbe darsida ham qo'llash mumkin bo'lib, o'qituvchi avvaliga faqat harflardan, so'ngra (undosh harflar bilan tanishtirilgach) bo'g'inlardan iborat diktant yozdirsa bo'ladi.

- 1 - variant: O.o.I.i.U.u.A.a.O'.o'.
- 2 - variant: - Lo. -no. - to. - mi. - in.
- 3 - variant: Bola, lola, ona, zar, par.
- 4 - variant: Bugun havo issiq.

"Hikoya"

O'qituvchi xattaxtaga bir nechta so'z yozib qo'yadi. O'quvchilar mustaqil ravishda shu so'zlar ishtirokida hikoya tuzadilar. O'quvchilar hikoya tuzar ekanlar, ularning lug'at boyligi ortishi bilan birgalikda, gaplarni to'g'ri tuzish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish va mustaqil fikrlash malakasi shakllanadi. O'quvchilarni vaqti-vaqti bilan rag'batlantirish o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi. Bu o'yindan ona tili darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanish mumkin.

1 - variant: Nafisa, soat, yomg'ir, kitob.

2 - variant: Olma, kasal, o'rtoq, Abduvali.

3 - variant: Mushuk, bobo, poliz, non, sichqon.

« U kim? Bu nima? »

Stol ustiga bir qancha predmetlar terib qo'yiladi. O'qituvchi shu predmetlardan birortasini ta'riflaydi, o'quvchilar shu belgilar asosida gap nima haqida borayotganligini topadilar. Bu o'yinning afzallik tomoni shundaki, undan dars davomida o'quvchilar diqqatini jamlash, qo'llariga dam berish maqsadida yoki yangi tovushlar bilan tanishtirish, ona tili darslarida yangi mavzuni bayon qilish jarayonida ham foydalanish mumkin. Bu o'yin o'quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakalarini shakllantirishga imkon beradi. Bundan tashqari, bu o'yindan dam olish daqiqalarida ham unumli foydalanish mumkin.

1-variant: U shar shaklida. Uni katta-katta sportchilarimiz ham stadionlarda o'ynaydilar. Yosh bolalar ham uni sevib o'ynaydilar. (Javob: «Koptok»)

2-variant: U barcha o'quvchilarning o'rtog'idir. Onalarimiz ham, otalarimiz ham uni juda yaxshi ko'radilar. (Javob: «Kitob»)

3-variant: U shunday narsaki, bizga vitaminlarga boy mevalar beradi. Xohlasak stol yoki stul ham bo'lishi mumkin. (Javob: «Daraxt»)

"Topag'on"

O'qituvchi biror belgi asosida savol beradi. O'quvchilar shu belgini o'ziga jam qilgan predmetlar nomlarini yozadilar, eng ko'p to'g'ri javob topgan o'quvchilar g'olib sanaladi. Bu o'yinni o'tkazish o'quvchilarga so'z turkumlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar berish jarayonini yengillashtiradi. Bundan tashqari ularning so'z boyligi ortib, ularda hozirjavoblik, ziyraklik, ijodkorlik kabi sifatlar shakllanadi.

1 - variant:

Savol: Nima yumshoq?

Javob: Non, xamir, yostiq, ko'rpa, paxta.

2 - variant:

Savol: Nima oq rangda?

Javob: Qog'oz, daftar, surp, bulut, parda, buvimning sochlari, qor.

3 - variant:

Savol: Nigora nima qilyapti?

Javob: Kitob o'qiyapti, kir yuvyapti, qoshiq artyapti.

"Bo'lishi mumkin emas"

Bu o'yinni o'tkazishda o'qituvchi matnni o'qiydi. O'quvchilar bo'lishi mumkin bo'lmagan voqealar ifodalangan jumla yoki gapni topishlari lozim. Hazil-mutoyiba bilan o'tadigan bu o'yin ham o'quvchilar dan ziyraklik, sinchkovlik va kuzatuvchanlikni talab qilishi bilan birgalikda, ulardan atrofida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq bo'lmaslikni ham talab qiladi. Undan tashqari ularning darsdan tashqari bo'lgan ilmiy va badiiy adabiyotlarga va ilmiy ommabop filmlarga qiziqishini orttiradi va hikoya tinglash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Bu o'yin bir necha marta o'tkazilgach, keyinchalik o'quvchilarga shunday hikoyachalar tuzishni ham topshirish mumkin.

"Bo'lishi mumkin emas" o'yinidan foydalanib o'qituvchi ona tili yoki o'qish darslarining samarali bo'lishiga erishishi mumkin. Bundan tashqari badiiy ertaliklar, musobaqalar, viktorinalar o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

1-variant: Dushanba dam olish kuni bo'lgani uchun Olim maktabga bormadi. U singlisi Vazira bilan hayvonot bog'iga bordi. Ular hayvonot bog'ida suvda suzib yurgan sherni, qafasda sayrayotgan baliqlarni va kattakon vahshiy bulbulni ko'rdilar.

2-variant: Ibratjon yozgi ta'til kunlarida buvisinikiga dam olgani bordi. U qishloqda o'rtoqlari bilan qor bo'ron o'ynadi. Buvisi sigir sog'ayotganda sigirning uloqchasini ushlab turdi. Buvisiga sigirlarga don berishda yordamlashdi.

3-variant: Abdulla juda bilimli bola. U bugun ham topshiriqni juda yaxshi bajardi. O'qituvchi uni maqtadi va "nol" ball qo'ydi. Abdulla yaqinda 2-sinfni tugatib, 1-sinfga o'tdi.

«Noto'g'ri jumla»

Bu o'yin suratlar asosida o'tkaziladi. O'quvchini suratni tasvirlab berishi asnosida suratlarga tegishli bo'lmagan jummalarni ham ishlatadi. o'quvchilar ziyraklik bilan shu jummalarni topishlari lozim.

O'quvchilardan bu o'yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatib turib o'qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto'g'ri jumlaning topa bilish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi. Bu o'yindan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham foydalanish mumkin.

1-variant (Manba. T.G'afforova va b.q. «Ona tili», 1-sinf uchun darslik. 2009-y.36-bet, 62-mashq.) Hasan tuxumlarni joyiga qo'ydi. Bir necha kun o'tdi. Nigora koptogini yo'qotib qo'ydi. Qaldirg'och bola ochdi. (Nigora matnda yo'q.)

2-variant. (Manba shu darslik, 52-bet, 96-mashq.), Bobomiz Amir Temur bog'lar yaratgan. Bog'larning ichiga saroy, hovuz, favvora qurdirgan. Gulnora kitob o'qib o'tirgan edi. U yerlarda mevali daraxt, chinor, gul ektirgan. (Javob: Gulnora haqidagi jumla matnga tegishli emas.) 3-variant: (Manba shu darslik, 60-bet, 109-mashq.) Buxoro qadimiy va navqiron shahar. Shaharda Labihovuz, Ko'kaldosh kabi yodgorliklar bor. Dildora a'lochi qiz. Sayohatchilar Shohrud arig'i bo'yida sayr qiladilar. (Javob: Dildora haqidagi jumla matnga tegishli emas.)

"Safar"

O'quvchilarga maktabdan yoki o'z uylaridan ma'lum bir joygacha bo'lgan yo'lni tasvirlash topshiriladi. O'quvchilar bir yoki bir necha kun kuzatadilar va yo'lni og'zaki tasvirlab beradilar. Sinchkovlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, atrof-muhitga diqqat-e'tibor talab etiladigan bu o'yin vositasida Vatanga e'tiqod, tabiatga muhabbat hislarini tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari o'quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug'at boyligi ortadi. Shu bilan birgalikda o'quvchilarning yo'l harakati qoidalarini qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. "Safar" o'yinidan mustahkamlash darslarida yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham foydalanish mumkin.

1-variant: Uydan maktabgacha bo'lgan yo'l.

Men maktabga borish uchun uydan chiqib, o'ng tarafga yo'l olaman.

Ko'chaning oxirigacha borib, yana o'ng qo'l tomonga boraman. Oziq-ovqatlarda'koniga yetib, chap tomonga burilaman. Biroz yurgach, maktabimiz oldidan chiqaman.

2-variant: Uydan sport majmuasigacha bo'lgan yo'l.

Men sport majmuasidagi kurash to'garagiga qatnayman. U yerga boorish uchun uydan chiqib, chap qo'l tarafga yuraman. Ko'chaning oxirigacha borib, o'ng qo'l tomonga qarab markaziy yo'lgacha boraman. Katta yo'ldan o'tish uchun piyodalarga ajratilgan yo'lak bo'ylab borib, svetofoarning qizil chirog'i yonganda, maxsus ajratilgan yo'ldan yurib katta yo'ldan o'tib olaman. Yo'ldan o'tgach to'g'rida sport majmuasi ko'rinib turadi.

3-variant: Maktabdan buvimnikigacha bo'lgan yo'l.

Buvim maktabga yaqin turadilar. Maktabimizning katta darvozasidan chiqib o'ng qo'l tomonga qarab yuraman. To'g'riga boraverib, o'ng tomonga burilib ketgan qator ko'chalarning uchinchisiga burilaman. Bu ko'chaning nomi Al-Xorazmiy. Al-Xorazmiy ko'chasidagi 21-xonadonda buvim yashaydilar. "So'z»

Ona tili, o'qish darslari samaradorligini oshirish uchun yoki turli ertaliklarning qiziqarli o'tishi uchun juda qo'l kelishi mumkin.

1-variant:

N O N

2-variant:

k i y i k

"Pochtachi"

O'quvchilardan bittasi pochtachi sifatida sinfga kirib keladi va o'quvchilarga bittadan surat solingan xatjild topshiradi. Har bir o'quvchi qo'lidagi suratda nimalar tasvirlanganini so'zlab beradilar. Boshqa o'quvchilar o'rtoqlarining hikoya davomida nechta so'zdan foydalanganini sanab boradilar. So'zlardan ko'p va o'rinda foydalangan o'quvchi g'olib sanaladi.

«Rebus»

Rebus boshlang'ich sinf o'quvchilariga juda sodda ko'rinishda berilib, surat, belgilar asosida hal etiladigan boshqotirmadir. Rebuslarni hal etish uchun, avvalambor, suratda nima tasvirlanganini topish lozim bo'ladi. Shundan so'ng shartli belgilar asosida yangi so'z hosil qilinadi. Shu tariqa rebus hal etiladi va nima yozilganligi topiladi. Shartli belgilar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) Rasm yonidagi biror-bir harf o'chirilib, yoniga boshqa bir harf yozib qo'yilgan bo'lsa, demak rasmda nima tasvirlangani topiladi va shu so'zdagi o'chirilgan harf o'rniga boshqa harf qo'yiladi. Masalan: Rasmdan «besh» so'zini o'qiymiz. «e» harfi o'chirilgan. Uning ustida

«o» harfi turibdi. Demak. Biz «besh» so'zidagi «e» harfi o'rniga «o» harfini qo'yamiz va «bosh» so'zini hosil qilamiz.

2) «'» - bu belgi so'zning birinchi harfini olib tashlash lozimligini bildiradi.

Masalan: [5] «besh» so'zining birinchi harfini olib tashlaymiz va «esh» so'zini hosil qilamiz.

3) «'» - bu belgi esa so'zning oxirgi harfini olib tashlash lozimligini bildiradi.

4) «to'rt» so'zining oxirgi harfini olib tashlaymiz va «to'r» so'zini hosil qilamiz. T. G'afforova boshchiligida ishlab chiqilgan 1- sinf o'qish darsligida ham olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida bir qancha rebuslar berilgan bo'lib, bunday qiziqarli topshiriqlar takrorlash darslarining o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Biz quyida boshlang'ich sinflar ona tili va o'qish darslarida foydalanish uchun berilgan rebuslarning bir qancha variantlarini keltiramiz.

1-variant:

(Javob: «Oy ona - emish, bolasi -yulduz»)

2-variant:

(Javob: «Tinchlik - baxt keltirar»)

3-variant:

(Javob: «Ota rozi - vatan rozi»)

Krossvord

Krossvord o'yinini o'tkazish uchun o'quvchilar yoshiga mos holda juda soda ko'rinishda krossvordlar tuzib olinadi. O'quvchilar mustaqil ravishda javoblarni topib yozadilar. Dastlab krossvordlar o'qituvchi boshchiligida hal etiladi. O'quvchilarda krossvordlarni hal etish ko'nikmalari paydo bo'lgandan keyin o'qituvchi nazorati ostida mustaqil hal qiladilar. «Krossvord» o'yini o'quvchilar dunyoqarashini o'stirish bilan birgalikda ularga so'zlar imlosini yodda saqlab qolishlariga ham imkon beradi. Boshlang'ich sinflarda krossvordlar suratlar asosida ham berilishi miunkin. Suratlar asosida berilgan boshqotirma quyidagicha hal etiladi:

O' qituvchi: 1 - suratda nima tasvirlangan?

O'quvchilar: Anor.

O'qituvchi: Anor so'zi nechta harfdan iborat?

O'quvchilar. To'rtta.

O'qituvchi: Anor so'zini 1 raqami ostidagi to'rtta katakchaga yuqoridan pastga qarab yozamiz. 2-suratda nima tasvirlangan?... Shu

tarzda katakchalar to'ldirib boriladi. O'yin avvalida katakchalarga so'zlarni o'qituvchi yozib bergan bo'lsa, keyingi so'zlarni o'quvchilar navbati bilan yozishlari ham mumkin. Katakchalarni to'ldirishda o'quvchularning bevosita ishtiroki ularning qiziqishlarini oshiradi. Katakchalar to'ldirib bo'lingach, o'qituvchi ajratib ko'rsatilgan (qalin chiziq bilan chegaralangan) katakchalarda yozilgan so'zlarni o'quvchilar bilan birgalikda o'qiydi. Biz quyida 1-sinflarda qo'llash mumkin bo'lgan krossvord namunasini keltiramiz. Suratlarda tasvirlangan narsalar nomlarini katakchalarga to'g'ri joylashtirsangiz, ajratib ko'rsatilgan qatorda so'z hosil bo'ladi. Krossvordlardan darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Mavzu: Undosh tovushlar va harflar.

Dars shiori: Tilimiz davlat tili - sevib o'rganamiz uni.

Dars maqsadi: Undosh tovushlarning xususiyatlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish; muhim belgilarga qarab undosh tovushlarni aniqlash, ko'nikmalarni oshirish.

Darsning borishi: Dars qo'shiq bilan boshlanadi.

Ustozlar bayrami bo'lganligi uchun "Ustozlar" qo'shig'i aytiladi. She'rlar aytiladi.

O'qituvchi: AZKY o'quvchilari darsimizni boshlashdan oldin sinfni guruhlariga ajratamiz.

Uy vazifasini tekshirish: Undosh tovushlarning xususiyatlarini umumlashtirish.

O'qituvchi:

Osmonlarda yulduzlar,

Yonar doim tinmayin.

Maktabda biz yulduzlar,

Bilib olib tinmayin.

- Bolajonlar, yuqoridagi qo'shiqda qanday unlilar va qanday undoshlar bor?

- Endi shu so'zlardan qatnashtirib gap va matn tuzing.

- Bolalar ustoz va murabbiylar kuni yaqinlashmoqda. Biz darsimizga bir qancha olim va ertak qahramonlarini taklif qilganmiz. Ular darsimiz davomida biz bilan birga boradilar va darsimizda g'olib o'quvchini aniqlab beradilar.

"Bilimda tojdor" darsimizni boshladik.

Darsimizni ustozlarimiz tekshirib boradilar.

1-o'quvchi hisobchi vazifasida bo'ladi.

Aziz o'quvchilarim, Bilimdon tengsizlarim,
Televizorga qaraylik, Savol-javob qilaylik.
2-o'quvchi chiqadi.

1. Darsimiz reja asosida boradi.
2. Undosh va unli harflar haqidagi bilimlarini tinglash.
3. Darslik asosida mashqlar bajarish.
4. Mustaqil ish.
5. Topishmoq testlar.
6. Maqollar.
7. Kichkintoy teatrlari.
8. Testlar.
9. Bilimda tojdorni aniqlash.
10. Ertak qahramonlarining topishmoq va savollariga javoblar.
- 11 .Mo'jizalar maydonidagi o'yinlar va musiqiy lahzalar.

Dars oldindan beriladi.

B, ch, k, j undoshlarini talaffuz qiladilar va suhbat yordamida undosh tovushlarni talaffuz qilganda havo og'izda to'siqqa uchrashini, shuning uchun shovqin eshitilishini: (ch, k) va shovqin bilan birga ovoz eshitilishini (b,j) aniqlaydilar.

Ertak qahramonlaridan oq kampir chiqadi va topishmoq, test aytadi:

1. Bordir 6 xil tovush, Ular cho'zib aytilar. So'z tuzilmas ulardan,
O'ylang balki tanirsiz.

a) Unlilar b) Undoshlar d) So'zlar.

2. Soni unli tovushlarga teng.

So'zda unli qancha bo'lsa, shuncha deng.

a) undosh b) so'zlar d) bo'g'in.

3. Ikki harfdek ko'rinar,

Bir tovush aytilar.

Ajratilmay ko'chirilar.

a) sh, ch, ng b) a, o, i. d) yo, f, h.

4. Ham harf bo'lar,

Ham raqam.

Qaysi u harf

Va raqam.

a) 3,4, b) o harfi

Xulosa:

Demak bugun o'tamiz,

Undoshlarning sehrini.
Undoshlarsiz tuzilmas,
Biror so'z yo bo'g'in.
Jarangli jarangsiz harf,
Tuzilar turna qator.
Endi navbat kitobda.
Kitobim bu oftobim ,
Bilimga kon bulog'im.
Sekingina ochamiz,
Chizmay, yirtmay, kir qilmay.

32-mashq¹. Bu mashqni bajarish bilan tovushning so'z ma'nosini farqlashidagi ahamiyati tushuntiriladi. Bularni bo'g'inlardan kubiklar yordamida "Kim chaqqon" o'yini orqali bajariladi. Dars "Mo'jizalar maydoncha" sida olib boriladi. Mustaqil ish.

33-mashq². Chiroyli yozuvda lug'at diktant orqali olib boriladi.

Qayi(n, sh, q.). Ku(z, n, ch, t.). Navbat sport o'yinlariga. Sport o'yinlarida guruhlardan 1 kishi bajaradi. Kichkintoy teatri orqali olib boriladi.

33-mashq³. Bu mashq iqtisodiy bilim berish mashqi.

Oila budjeti.

O'quvchilar matnni o'qiydilar. O'qituvchi yordamida matnda nima haqida gap borayotganini tushunib oladilar. So'ngra mashqning grammatik topshirig'i bajariladi. Savdo- sotiq orqali mashqni yakunlaydilar.

Darsni yakunlash.

Darsda yaxshi qatnashgan o'quvchilar aniqlanadi. Ballar hisoblanguncha darsga xulosa qilinadi. Darsda nimalar o'rgandingiz? Undosh tovushlar va unli tovushlardan farqi qanday? Bilimda tojdor aniqlanadi. O'qituvchi uy vazifasini e'lon qiladi.

¹ G`ulomova,X, Sh.Yo`ldosheva, Shermatova,A. 4-sinf ona tili darsligi. Toshkent, "O`qituvchi",2007-yil, 46-bet.

² Shu manbaa

³ Shu manbaa

HOZIRGI ZAMON TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY O'QITISH TA'LIMINING O'RNI

Hozirgi zamon ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'limning qulay turi sifatida kirib keldi. Masofaviy ta'lim ma'lumot olishning shunday shaklidirki, unda kunduzgi va sirtqi ta'lim bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal, an'anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi. Masofaviy ta'limning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

O'qituvchi - o'quvchi - kommunikatsiya.

Masofaviy ta'lim vositasida o'quvchi uchun qulay bo'lgan joyda individual jadval asosida maxsus imkoniyatlar, telefon, elektron aloqa va boshqa ta'lim vositalari yordamida bir maqsadga qaratilgan nazorat qilish mumkin bo'lgan ta'lim jarayoni tashkil etiladi. Masofaviy ta'limda ma'lum maqsad asosida ta'lim subyekt va obyektining ta'lim vositalari yordamidagi o'zaro ta'siri amalga oshadi. Ma'lumot jarayoni o'ziga xos pedagogik tizim elementlarini o'z ichiga oladi. Bular: ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, o'quv-moddiy, moliyaviy-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslar, marketing kabilar. Masofaviy ta'lim tizimi insonparvarlik prinsipiga asoslanadi. Ya'ni hech kim kambag'allik, geografik muammolar, ijtimoiy himoyalanganlik va boshqa sabablar tufayli bilim olish huquqidan mahrum bo'lmasligi lozim. Masofaviy o'qitishda o'qituvchi o'quvchiga o'quv materialini "Internet" tizimi orqali yuboriladi. Ushbu kurs bo'yicha ta'lim olishni istagan o'quvchilar veb-saytga murojaat qilib, nazariy bilimlarni oladilar, amaliy topshiriqlarni bajaradilar va o'qituvchiga javobni elektron pochta (e-mail) orqali jo'natadilar. O'qituvchi o'quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqni tekshirib, javobni yana elektron pochta orqali o'quvchiga yuboradi. Zarur bo'lsa, kerakli ko'rsatmalar beradi.

O'quv jarayonida o'quvchi darslikdagi, elektron kutubxona va elektron darsliklardan, videokonferensiyalardan foydalanadi.

Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qishdir. Mustaqil o'qish davrida o'quvchidan mustaqil fikrlash, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi. Masofadan o'qitishning uslubiy vositalari quyidagilar:

a) darslik;

- b) audio va vidiodarsliklar;
- d) veb-saytlar;
- e) elektron kutubxonalar;
- f) matnlar;
- g) elektron darsliklar.

Albatta foydalanuvchi ixtiyorida masofadan ta'lim olishda multimediyali kompyuter, modem va telefon kabi vositalar mavjud bo'lishi kerak. XXI asrda masofaviy ta'lim eng istiqbolli insonparvar ta'lim va ta'limning integral shakli sifatida ta'lim tizimiga kirib kelmoqda. XXI asr ta'lim jarayoniga global texnologiyaning kirib kelishi bilan ham xarakterlanadi. Chunki bozor iqtisodiyoti talablari o'z-o'zidan ta'lim jarayonini dunyo standartlari darajasida takomillashtirishni taqozo etadi. Hozirgi kunda masofadan o'qitish dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida keng tarqalgan va qulay ta'lim shakli sifatida rivojlanmoqda. Masalan, Finlandiyaning Oulu universitetida, Buyuk Britaniyaning London Metropolitan universitetida, Gollandiyaning Fontis universitetida, Janubiy Koreya respublikasida va boshqa rivojlangan mamlakatlarda masofaviy o'qitish texnologiyasi keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda talabalarni o'qitish va boshqa soha mutaxassislarining malakasini oshirish sohasida samarali qo'llanilib kelinmoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, dunyoga yuz tutayotgan O'zbekiston uchun ham bu ta'lim turi uzoq kelajak emas. Shuning uchun O'zbekiston o'quv yurtlarida ham ba'zi bir islohotlarni amalga oshirishni davr taqozo etmoqda.

O'qitishdagi axborot texnologiyalari - bu o'qitish faoliyatida qo'llaniladigan elektron vositalar va ularni ishlatish usullari majmuidir. Elektron vositalar tarkibiga apparatli, dasturli va axborotli komponentlar kiradi. Ularni qo'llash ko'rsatmalari o'qitishdagi axborot texnologiyalarini metodik ta'minotiga kiradi.

Masofaviy ta'lim bu o'qitishning insonparvar shakli bo'lib, an'anaviy, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi. Bunda texnik vositalar o'quv materialni mustaqil o'zlashtirish, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra, masofaviy o'qitish kommunikatsiya va axborotni qayta ishlashning yangi texnik vositalari va sirtqi ta'limning asosiy usullariga tayanishi kerak. Bu o'z navbatida masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish to'g'risida gapirishga imkoniyat beradi. Masofaviy ta'lim tizimi apparatli, dasturli va uslubiy vositalarning murakkab

kompleksi bo'lib, o'z ichiga server va ishchi stansiyalar, shaxsiy kompyuterlar, kommunikatsiya vositalari, umumtizimli va tarmoqli dasturlar ta'minotiga, lokal va markazlashgan bilim va axborot banklarini boshqaruv tizimlari, o'rgatuvchi dasturlari va shu dasturlarni yaratish uchun instrumental vositalariga ega bo'lgan audio va video texnikalarni oladi.

Masofadan o'qitish texnologiyasi (MO'T) maxsus metod, vosita va o'qitishning tashkiliy shakllari tizimi bo'lib, ta'lim mazmunini ko'p tarmoqli ravishda amalga oshirishga qaratilgan.

Oliy o'quv yurtlarining ko'pgina o'qituvchilari "o'qitish metodi" tushunchasiga unchalik qiziqmaydilar. Chunki ko'pchilik o'qituvchilar o'qitish faoliyatini empirik tarzda o'rganib oladilar.

Ular, asosan, kafedra mudirlari yoki yetakchi professor-o'qituvchilariga taqlidan o'qitish usullarini qo'llaydilar. Lekin shu usullar qaysi ta'lim metodlari tizimiga kirishini bilmaydilar yoki qiziqmaydilar. Ta'lim metodini bilish ta'limni takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Ta'lim metodi har xil o'quv predmetlarini o'qitishni qanday amalga oshirish yo'llarini belgilaydi.

Ta'lim metodi o'qituvchi va o'quvchi faoliyati to'g'risida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriyadir. Masofadan o'qitish har xil ta'lim metodlari orqali amalga oshiriladi va unda bir qancha usullar dan foydalaniladi. Har bir usul muayyan harakatlardan iborat bo'lib, o'qitishning har xil didaktik vositalar yordamida ma'lum bir maqsadga erishishga qaratiladi.

Masofadan o'qitish metodlaridan foydalanganda quyidagi usullarni qo'llash mumkin: namoyish qilish, illyustratsiya, tushuntirish, hikoya, suhbat, mashq, masala yechish, materialni yodlash, yozma ish va takrorlash kabilar.

Pedagogik jihatdan qayta ishlangan o'quv mazmunini o'z ichiga olgan masofaviy o'qitish o'qituvchi va o'quvchi qo'lidagi o'quv vositalari o'quv mazmunini taqdim etish, o'quvchilarning o'rganish faoliyatini tekshirish va boshqarish vazifasini bajaradi. Ma'lum bir o'quv materiali bir qancha o'rgatish vositalari bilan berilishi mumkin. Vositalarning har biri o'z didaktik imkoniyatlariga ega. O'qituvchi bu imkoniyatlarni bilishi va o'quv materialini har xil vositalariga ko'ra bo'lib chiqishi, didaktik vaifalarni amalga oshirishga qaratilgan o'quv axborotlarini tashuvci tizim sifatida o'quv materiallaridan o'quv vositalari kompleksini yarata olishi kerak. Masofaviy o'qitish tizimi vositalari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Darsliklar (an'anaviy darsliklar, elektron darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar va boshqalar).
2. Kompyuter tarmoqdagi o'quv-metodik qo'llanmalar.
3. Odatdagi va multimediya variantlaridagi kompyuterli o'qituv tizimlari.
4. Audio o'quv-axborotmateriallari.
5. Video o'quv-axborot materiallari.
6. Masofaviy laborotoriya praktikumlari.
7. Masofaviy trenajorlar.
8. Masofaviy axborot va bilimlar bazasi.
9. Masofaviy elektron kutubxonalar.
10. O'rgatuvchi ekspert tizimlariga asoslangan o'qitish vositalari.
11. Geoaxborotli tizimlarga asoslangan o'qitish vositalari.
12. Virtual reallikka asoslangan o'qitish vositalari.

Masofadan o'qitish tizimida o'qitish vositalari yangi axborot texnologiyalari vositasida amalga oshiriladi. Filologik ya'ni gumanitar fanlarni o'qitishning xorij tajribasi bizdagi o'qitish sistemasiga o'rni bilan o'xshaydi. Ayni vaqtda, tafovutli o'rinlarga ham ega. Aynan yangi texnologiyalarning o'qitish jarayoniga jadal kirib kelishi g'arb mamlakatlaridagi o'qitish usulublari va sistemasini takomillashtirishga, o'rni bilan, o'zgartirishlarga olib kelgan. O'qituvchining kompyuter vositalaridan keng foydalanishi darsning samaradorligini oshirib boradi. Shunga qaramasdan o'qituvchining darsdagi o'rni va salmog'ini saqlab turishga hamma vaqt hamma joyda e'tibor qratiladi. Ba'zi xorijiy mamlakatlarda talabalar ma'ruzaga kirmasdan o'qituvchi tomonidan avvaldan talabalar uchun maxsus tayyorlangan ma'ruza matni bilan tanishish orqali ham imtihon topshirishlari mumkin. Ayni holat talabaning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Xorij tajribasiga ko'ra, har bir ma'ruza uchun videomateriallar tayyorlagan bo'lib, ular ma'ruzadagi matnni tasvirdagi ko'rinishi sifatida ahamiyatga ega. Talaba darsdan so'ng kutubxonaga borib, ayni videomateriallarni tomosha qilish orqali darsda olgan ma'lumotlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Muayyan bir darslarni bilan bog'liq bilimlarni talabalar kutubxona va xususiy shug'ullanish orqali o'zlashtirishlari imkoniyati ham mavjud. Shunga qarmay, talabalarning barchasi qatnashishi zarur bo'lgan alohida darslar ham mavjud¹.

¹ Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching / Cambridge UK: Cambridge University Press, 2001.P.66

Axborot texnologiyalari ta'limning turli yangi ko'rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtlarda modulli ta'lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta'limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo'ldi. "Blended learning" (aralash ta'lim) haqida shunday fikr bor – ushbu ta'lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan. Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta'limni tashkil etishda va ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an'anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o'qishga bo'lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala - tanlangan uslubiyotlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi. Bugungi kunda blended learning kunduzgi an'anaviy ta'lim va masofaviy ta'limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an'anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg'unlashtirishga imkon yaratiladi. Bu tizimda o'qituvchi ta'lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Blended learning masofaviy ta'lim (Distance learning), sinf xonada ta'lim (Face-to-Face learning) va internet orqali ta'lim (Online learning)dan iborat.

Vebinar metodi

Bugun masofaviy ta'limning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqotga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni etkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og'zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i asosida tashkil etiluvchi ta'lim ham sub'ekt-sub'ekt paradigmasiga o'tmoqda¹.

Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya Internet orqali bir vaqtda hozir bo'lgan tinglovchilar bilan audio video (va yuqorida sanab o'tilgan ko'plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo'lsa-da, butun o'quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida

¹ Tom Kubiszyn and Gary D. Borich: Educational Testing and Measurement: Classroom Application and Practice, 11th Edition. John Wiley and Sons, Inc. 2009.P.38

o‘zaro uzviy bog‘lanmaydi, ya’ni alohida-alohida bir martalik darslar bo‘ladi deyish mumkin.

Evristik o‘qitish metodi

Evristik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo‘lgan masalani aniqlab oladi. O‘quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o‘zlashtirib oladilar va uning echimi bo‘yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O‘rnatilgan masalani echish davomida o‘quvchilar ilmiy bilish metodlarini o‘zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko‘nikmasi tajribasini egallaydilar¹. Ta’lim jarayonida tadqiqotchilik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O‘qituvchi faoliyatining tuzilmasi

- o‘quvchilarga o‘quv muammosini taklif etish;
- o‘quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o‘rnatish;
- o‘quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish

O‘quvchi faoliyatining tuzilmasi

- o‘quv muammolari mohiyatini anglab olish;
- tadqiqot muammosini o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan birgalikda o‘rnatishda faollik ko‘rsatish;
- ularni echish usullarini topish;
- tadqiqiy masalalarni echish usullarini o‘zlashtirish

Evristik metod o‘qituvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishni taqozo etadi. Buning natijasida o‘quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma’lum holatlarda qo‘llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang‘ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o‘qituvchilarning fikrlariga ko‘ra birmuncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta’lim tizimiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni faol joriy etishga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo‘nalishdagi loyihalarni tayyorlash o‘ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida

¹ J. Michael Spector: Foundations of Educational Technology: Integrative Approaches and Interdisciplinary Perspectives (Interdisciplinary Approaches to Educational Technology), 2nd Edition. Routledge, 2016.P.93

birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan.

Respublikamiz oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar kataloglashtirish, respublika ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan elektron o'quv adabiyotlarini barcha ta'lim muassasalari orasida targ'ib qilish muhim va murakkab vazifa hisoblanadi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu masalani ijobiy yechimini topish hamda ta'lim muassasalari uchun yaratilgan elektron o'quv resurslari va ta'lim muassasalari saytlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Buning natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan tashkil qilingan www.ziyonet.uz axborot- ta'lim portali ishga tushirildi va bu portalda barcha ta'lim muassasalari uchun ta'lim resurslari joylashtirilganligi ahamiyatga molikdir.

Ziyonet axborot-ta'lim portali

ZiyoNet jamoat axborot ta'lim tarmog'i 2005 yil 28 sentyabrda tashkil topgan. ZiyoNet tarmog'ining asosiy maqsadi ta'lim tizimida respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilarni bilim olish jarayonida axborot- kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

ZiyoNet axborot ta'lim tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta'minlash, AT sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqot qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni o'z zimmasiga oladi. **ziyonet.uz** subdomenlarida 12 ta ochiq resurslar joylashgan bo'lib, ular quyidagilar:

1. people.ziyonet.uz – mashhur vatandoshlarimiz haqidagi ma'lumotlar;

2. sites.ziyonet.uz – foydali saytlar bazasi;

3. library.ziyonet.uz – elektron kutubxona;

4. foreign.ziyonet.uz – xorijiy tillarni o'rganish;

5. ask.ziyonet.uz – savol-javoblar xizmati;

6. institutions.ziyonet.uz – ta'lim muassasalari katalogi;

7. groups.ziyonet.uz – ijtimoiy guruhlar tizimi;

8. blogs.ziyonet.uz – veb-sayt yaratish xizmati;

9. abiturient.ziyonet.uz – Respublika oliy ta'lim muassasalaridagi

barcha

mutaxassisliklar bo'yicha ma'lumotlar va testlar;

10. meros.ziyonet.uz – O'zbekiston madaniy merosi;

11. games.ziyonet.uz – ta'limiy o'yinlar jamlanmasi;

12. talents.ziyonet.uz – iqtidorli yoshlar bloki;
Tarmoqda ijtimoiylikning quyidagi elementlari joriy etilgan:

- Foydalanuvchi profili
- Do‘stlar bo‘limiga foydalanuvchi qo‘shish
- Xabar almashish
- Foydalanuvchilar reytingi
- Fikr va mulohazalar bildirish
- Qiziqishlar bo‘yicha foydalanuvchilarni guruhlariga birlashtirish

ID.UZ tizimidan ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilarga Ziyonet portal o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan:

4. Ziyonet portalining kutubxonasiga axborot-ta’limiy ma’lumotlarni joylashtirish;
2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satelitlarni yaratish;
3. Ziyonet portalining yopiq bo‘limlariga kirish va u erdan ma’lumot olish;
4. Ziyonet axborot resurs tarmog‘ining turli tanlovlarida qatnashish.

Respublika pedagogika ta’lim muassasalari portal

O‘zbekiston Respublikasi pedagogika ta’lim muassasalarining yagona axborot makoni ta’lim jarayoni qatnashchilarini samarali o‘zaro aloqasini ta’minlovchi, turli axborot resurslariga kirish imkoniyatini beruvchi, axborot va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishuvchi sifatida axborot-ta’lim sharoitlarining ochiq tizimini yaratadi.

An’anaviy va elektron shakldagi o‘quv materiallari yagona ta’lim muhitining tarkibiy qismi sifatida bir-birlarini to‘ldirishlari muhim sanaladi. Yangi axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish ayrim pedagogik muammolarni echishdagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shu maqsadda Tempus loyihasi doirasida www.pedagog.tdpu.uz portal ishlab chiqilgan bo‘lib, uni ta’lim muhitining birligini, pedagogic ta’lim sifatini, uning rivojlanishini, ilmiy-pedagogik salohiyatdan samarali foydalanishni tashkil etish sharoitini yaratuvchi sifatida qarash mumkin.

www.pedagog.tdpu.uz portali bosh sahifasi

Yagona axborot portalning yaratilishi quyidagi ijobiy natijalarga olib kelishi maqsad qilingan:

- Respublika pedagogika ta'lim muassasalarining yagona axborot muhiti yaratiladi;

- yagona kutubxona muxitini shakllantiradi (elektron kutubxonani yaratilishi, elektron darsliklar va noan'anaviy axborot tashuvchilar fondining shakllanishi, yagona ma'lumotlar bazasini yaratilishi v h.);

- pedagogik ta'lim sohasida yagona telekommunikatsiya tarmog'i muhiti shakllantiriladi;

- yangi axborot-ta'lim muhitini shakllantiradi, ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy-psixologik asoslarini yaratadi;

- yangi axborot madaniyatiga ega pedagogik kadrlarini shakllantirish orqali pedagogik ta'lim sifatini oshiradi;

- yangi ta'lim texnologiyalarining ilmiy va metodik ta'minoti tizimini yaratadi;

- ta'lim axborotlariga, axborot resurslariga ommaviy tashrifni ta'minlashi, hujjatlarni uzatish, hisobga olish mexanizmini tizimlashtirishi, respublikada pedagogik ta'limning holati bo'yicha axborotlarni jamoatchilik uchun ochiqligini amalga oshiriladi;

- masofaviy ta'lim tizimi rivojlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab sanalsa-da, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'limda axborot texnologiyalarini tub ma'noda joriy etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston", 2017.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.:Sharq, 1998.
3. .Abduvaliyev M., Omilxonova J. - Ona tili darsligi 4-sinflar uchun. Toshkent, "O'qituvchi",2005-yil, 74-bet.
4. Akramov.R., G'ulomova.X. 4-sinf ona tili darsligi. Toshkent, "O'qituvchi", 2006-yil, 65-bet.
5. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha tahrirdagi davlat ta'lim standarti. Toshkent. 2005-yil, 6-son, 34-37-betlar.
6. 10. Babanskiy,A. Hozirgi zamon umumiy ta'lim maktabda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 2003-yil, 104-106-betlar.
7. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. -Toshkent: 1968
8. Bob Kizlik. Lesson Planning, Lesson Plan Formats and Lesson Plan Ideas.,
9. Eshmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.- Toshkent,2004-y.
- 10.Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: O'zRFA "Fan"nashr., 2000.
- 11.G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. -T.:2011.
- 12.Hamroyev M., D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH. Yo'ldosheva. Ona tili. "Moliya-iqtisod" nashriyoti, Toshkent, 2007-yil.
- 13.Hamroyev M., O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. TDPU, Toshkent, 2007-yil
- 14.Ikromova R., D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgio'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001.
- 15.Ikromova R., D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.

16. Isoqov I., U Ro'ziboyeva. Ma'ruza mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalar. Xalq ta'limi. 2002. № 3.
17. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.// Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997 -64 b.
18. Karimova V.M. Psixologiya. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
19. Mahmudov M.H. Ta'limni didaktik loyihalash prinsplari. - T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002.
20. Matjonov S., A. Shoalilov, X. G`ulomova, SH. Sariyev, Z. Dolimov, 4-sinf o`qish kitobi darslik Tosh. "Yangiyo`l Poligroaph Service" 2011
21. Nishonaliyev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. Xalq ta'limi. 1999. No 6.28-31.
22. Ochilov M.O. Muallim qalb me'mori. - T.: O'qituvchi, 2001.
23. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni// Barkamol avlod -O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: 1997.-64 b.
24. Pedagogik texnologiya: Zamonaviy ilmiy-nazariy asosi. Mualliflar guruhi. Toshkent, 2008.
25. Qosimova, K., A. Ne'matov. Ona tili darsligi, 2-sinf uchun darslik. "Cho'lpon" 2005-yil, 44-bet.
26. Qosimova, K. Ona tili darsligi 4-sinf uchun, Toshkent, "O'qituvchi" 2003-yil, 65-66-betlar.
27. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti.
28. Saidahmedov N. "Yangi pedagogik texnologiyalar mohiyati". "Xalq ta'limi" jurnali. 1999.
29. Saidahmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash texnologiyalari. Toshkent: 200-y.
30. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T.: O'zMU. 2003.
31. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: "Moliya", 2003.
32. Saidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. - T.: XTV RTM, 1999.
33. Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. -T.: O`qituvchi, 2010.318 b.
34. Ta'lim texnologiyasi. - T.: O'qituvchi, 1999.

35. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. - T.: 1999.

36. Tolipova J, Numonova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiya. "Xalq ta'limi" jurnali, 3-son.

37. To`xliyev B. Adabiyot o`qitish metodikasi. – Toshkent:, 2010. – 168 b.

38. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboyeva R. O`qish kitobi. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.– Toshkent: O`zbekiston, 2012.– B. 81.

39. Yo`ldashev J.G."Ta`lim yangilanish yo'lida" - T.: O'qituvchi. 2000.

40. Yo'ldoshev J. G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. Toshkent, 2008-y.

41. Yo'ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari, yechimlari. "Xalq ta'limi". 1999. N 2

42. Ziyomammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. - Toshkent, 2009.

43. Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya. Zamonaviy o'zbek milliy modeli. Toshkent, "Lider Press", 2009-y.

MUNDARIJA

Kirish	2
Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish .	6
Sifat mavzusini o'tishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	27
Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish va ularda DTS talablari	57
Noan'anaviy darslar va axloqiy ta'limiy tadbirlarda xalq maqollaridan foydalanish	71
4 – sinf o'qish darsida ertaklarni interfaol usullarda o'tish	77
Boshlang'ich sinflarda G'afur G'ulom she'riyatini o'tishda interfaol usullardan foydalanish.....	81
Boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari o`qish darslari samaradorligini ta'minlovchi interfaol metodlardan foydalanish	91
Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarning o'rni.....	97
Hozirgi zamon ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'limining o'rni.....	107
Foydalanilgan adabiyotlar	116

Mohichehra Yoqubovna Ro'ziyeva

**ONA TILI VA O'QISH DARSLARIDA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

(Metodik qo'llanma)

Муҳаррир:

Ғ.Муродов

Техник муҳаррир:

Г.Самиева

Мусаҳҳиҳ:

А.Каландаров

Саҳифаловчи:

М.Ортиқова

Нашриёт лицензияси АИ № 178. 08.12.2010. Оригинал – макетдан босишга рухсат этилди: 13.03.2018. Бичими 60x84. Кегли 16 шпонли. «Times New Roman» гарн. Офсет босма усулида босилди. Офсет босма қоғози. Босма тобоғи 7,5. Адади 100. Буюртма №43.

Бухоро вилоят Матбуот ва ахборот бошқармаси
“Дурдона” нашриёти: Бухоро шаҳри М.Иқбол кўчаси 11-уй.
Баҳоси келишилган нархда.

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмаҳонасида чоп этилди.
Бухоро шаҳри М.Иқбол кўчаси 11-уй. Тел.: 0(365) 221-26-45